

AXMETJANOV M.M., TOJIYEV M., TOSHEVA G.D.



**PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR VA
PEDAGOGIK MAHORAT**

Toshkent - 2018

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Bu yerda Sizning ish manzilingiz yozilishi kerak

Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Tosheva G.D.

**PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR VA
PEDAGOGIK MAHORAT**

**5 A 321601 – YENGIL SANOAT MASHINALARI VA APPARATLARI
MUTAXASSISLIGI MAGISTRALARI UCHUN**

Toshkent - 2018

Taqrizchilar: Q.T.Olimov – Buxoro MTI o'quv ishlari prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

B.R. Adizov – Buxoro davlat universiteti huzuridagi «Pedagogika» fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Mazkur darslikda bo`lajak mutaxassislarga kasbiy ijod, mahorat ko`nikmalarini hosil qilish, hozirgi zamon ta`lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiya loyihalari orqali yondashish, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning qirralari yoritilib, o`qitish jarayonini tashkil qilish shakllariga izoh berilgan, o`qituvchi va talaba o`rtasidagi munosabatlar, nutq madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish kabi masalalar o`z aksini topgan.

Annotaciya

V dannom uchebnike predostavlena vozmojnostъ buduЩim specialistam ovladetъ professionalъnymi navыkami, pedagogicheskim masterstvom, v uchebnom posobii izlojenы sovremennые pedagogicheskie texnologii, raznovidnosti pedagogicheskix navыkov, organizaciya uchebnogo processa. Otrajeny vzaimootnosheniya mejdu prepodavatelem i studentom, rechevaya kulturna i formirovanie pedagogo-texnicheskoy kvalifikacii.

Annotation

This **training manual** will provide future professionals with the opportunity to create professional skills, mastering skills, modern pedagogical technologies, pedagogical technologies and pedagogical skills, organizing teaching process are explained, the relationship between teacher and student, speech culture, and pedagogical techniques are reflected.

KIRISH

Mamlakat huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish yo`lida dadil odimlamoqda. Bu hol jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida tub o`zgarishlar qilish kerakligini bosh maqsad qilib belgilaydi.

Ushbu maqsadning ijobiy yo`nalishining kashf etilishi, mamlakatning ma`naviy rivojlanishini ta`minlashi uchun, eng avvalo, o`sib kelayotgan yosh avlodni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda ma`naviy tafakkurni rivojlanish, aqliy salohiyat, ma`naviy - axloqiy sifatlarni rivojlanishni yo`lga qo`yish va buning uchun ularga ta`lim - tarbiya beruvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirishiga bog`liq. Shu nuqtai – nazardan Oliy o`quv yurtlarida tahsil olayotganlarni davr texnikasi, uning ishslash texnologiyasi bilan qurollantirishda pedagogik texnologiya harakatlantiruvchi kuch bo`lib xizmat qiladi. Bu masala ta`lim islohotlari to`g`risidagi hujjatlarda ayniqsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturida aniq qilib belgilangan. Xususan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturini” ro`ybga chiqarishning ikkinchi bosqichi (2001-2005 yillar)da ushbu muammoni to`la yechishga alohida e`tibor qaratilib “... ta`lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini davom ettirish, o`quv jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash” nazarda tutilganligi, buning yaqqol ifodasıdır. Mazkur tezis ta`lim tizimini yangilanishi va ta`lim mazmunini takomillashuvi jarayonida o`quv tarbiya ishlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishni talab etadi. Shu munosabat bilan biz mazkur o`quv qo`llanmani **“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”** deb nomlab, ta`lim muassasalarining o`quv tarbiya jarayonini pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash va ta`lim-tarbiya jarayoniga ilmiy yondashuvlar asosida yoritishni lozim deb bildik. Darslikda pedagogik texnologiyalarning mohiyati, qo`llash zaruriyati, pedagogik texnologiya printsiplari va ta`lim-tarbiya jarayoniga ilmiy yondashuvlar bayon etiladi.

Biz darslikda pedagogik texnologiyalar, ilg`or pedagogik texnologiyalar, yangi pedagogik texnologiyalar nazariyasining tatbiqiy asoslarini yoritishga harakat qildik. Chunonchi, u ta`lim jarayonining istiqbolini ta`minlashda muhim o`rin tutadi.

“Pedagogik mahorat” bo`lajak pedagoglarda kasbiy mohirlilik, ijod, ko`nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o`qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

“Pedagogik mahorat”ni o`rganish jarayonida talabalar pedagogik kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg`or pedagogik tajribalarni mustaqil o`zlashtirishga o`rgatiladilar. O`qish, o`qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko`nikma, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o`zlashtirish malakalarini shakllantirishga e`tibor qaratilmog`i darkor.

Shunday qilib, insonning ma`naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, hatti – harakati, odob – axloqi, kasb mahorati, uning mazmundorligi va nihoyat uni qanchalik takomillashtirib borishi bilan farqlanib turadi.

Darhaqiqat, biz hayotda bir xil guruchdan turli ko`rinish va ta`mdagi palov pishiruvchi oshpazlarni, bir xil undan turli ko`rinish va ta`mga ega bo`lgan non tayyorlaydigan nonvoylarni ko`p uchratamiz. Doimo mazali va shirin taom pishiruvchi oshpaz, mazali va yumshoqqina non pishiruvchi nonvoy mahsulotlarini tanovvul qilishga, kiyimlar tikuvchi ustalarga murojaat etishga intilishimiz ko`pchilikka sir emas. Bu intilishning mazmunida kasb mahorati, mehnat unumdonorligi va mohirligi yotadi.

Demak, inson faoliyatining ko`lami keng, anglash, tushunish, qo`llay olish malakasi, serqirra va mahoratlari inson baxtli ekan, avvalo, uning mohirligini takomillashtirish uchun kasbiy mahoratni tarbiyalashni to`g`ri tashkil etmoq talab qilinadi. Shuningdek, eramizdan oldingi 551 – 479 yillarda yashab o`tgan Xitoy faylasufi va davlat arbobi Konfutsiy ham **“Men eshitaman va men esdan**

chiqaraman. Men ko`raman va men eslab qolaman. Men bajaraman va men tushunaman!!!” deganida, bajarish mahoratini nazarda tutgan edi.

Pedagogik nazariya va tajriba ushbu masalaning dolzarbligini yana qo`yidagi holat bilan isbotlaydi: pedagogik izlanish, ta`limiy o`qish, o`qitishning me`yoriy hujatlari, darsliklar, axborot vositalari, qanchalik mukammallahsgan bo`lmasin, pedagogik amaliyat, ta`lim - tarbiya ishlarining muvoffaqiyati oxir oqibatda pedagog shaxsiga, uning kasb – kor mahoratiga bog`liq. Ehtimol, shu nuqtai – nazardan ham Respublikamizning birinchi Prezidenti Oliy majlisning birinchi chaqiriq to`qqizinchisi sessiyadagi “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” mavzusidagi ma`ruzasida “Tarbiyachilarning o`ziga zamonaviy bilim berish, ularning **ma`lumoti, malakasini oshirish** (Ta`kid bizniki) kabi paysalga solib bo`lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta`lim – tarbiya tizimini o`zgartirishdagi asosiy muammo shu erda. O`qituvchi talabalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerak”¹..Ular chet ellarda malakasini oshirsin, dong`i chiqqan universitetlarda o`zlari lektsiya o`qisin, tajriba orttirsin, mana shundan keyin O`zbekistonning obro`yi – nomi olamga ovoza bo`ladi, inshoolloh”,² – deb bejiz ta`kidlamagan edi.

Darslikda biz - yoshlarning “Pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”, “Psixologiya”, “Tarbiyaviy ish metodikasi”, “Pedagogik etika” fanlaridan olgan ma`lumotlarimizga tayangan holda va ular to`g`risida so`z yuritib, mazkur fanlardan olingan bilimlarini chuqurlashtirishga, amaliy yo`nalishini mukammallashtirishga e`tibor qaratdik.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997, 7 – bet.

² Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997, 12 – bet.

I – MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA UNING QIRRALARI.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: pedagogik texnologiyaning tarkibiy tuzilishi, asosiy tarmoqlari, fanlar tizimidagi o‘rni va boshqa fanlar bilan bog‘liqligiga oid nazariy bilim berish, fanga oid dastlabki ko‘nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O‘QUV MAQSADLARI:

- ta’limiy maqsad: *talabalarga pedagogik texnologiya va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;*
- tarbiyaviy maqsad: *talabalarda pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;*
- rivojlantiruvchi maqsad: *talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.*

1.1. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHA.

UNING MAQSADI VA VAZIFALARI.



O‘quv maqsadi

Pedagogik texnologiya, uning maqsadi va vazifalari haqida nazariy bilimlar berish

O‘z – o‘zini el ishiga bag`ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan oliy janob o`qituvchilarni, mo`tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko`taramiz.

I.A. Karimov.

Tayanch iboralar: texnologiya, mahorat, YUNESKO, aql-zakovat, o‘quv jarayoni, bilimdonlik, intelektual qo‘biliyat, o`qituvchi faoliyati, jadallashtirish,

samaradorlik, o`qitish sifati, texnika taraqqiyoti. emperik bilim, foydali natija, o`quv predmeti.

XXI asr aql-zakovat, ma`naviyat va bilimdonlik asri bo`ladi. Shuning uchun ham bu asr jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy taraqqiyotida tub o`zgarishlar qilish lozimligini taqozo etmoqda. Bu tub o`zgarishlar, avvalo, yoshlar tarbiyasiga ularning barkamol avlod bo`lib shakllanishiga qaratilgan. Zero, birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta`kidlaganlaridek: «**Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishga, qanday ma`naviy fazilatlar egasi bo`lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog`lik faol munosabatda bo`lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog`liq**». Shu bois «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko`zda tutilgan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmokda. Bular:

- Ta`lim tizimi va mazmuni yangilandi;
- Yangilangan uzluksiz ta`lim tizimi uchun davlat ta`lim standartlari ishlab chiqildi va amalda qo`llanilmoqda;
- Yangilangan ta`lim mazmuni bo`yicha DTSga mos o`quv dasturlari va darsliklari yaratildi va yaratilmoqda;
- Ta`lim –tarbiya boshqaruvini isloh qilish amalga oshirilmoqda;
- Talaba yoshlarning intelektual qobiliyatları ma`naviy-axloqiy salohiyatiga qo`yilgan talablar monitoringi olib borilmoqda;
- Ta`limming bozor iqtisodiyotiga moslanadigan mexanizmlari o`rnatilmokda.

Shunday qilib, ta`lim tizimining yangilanganligi, o`qitish mazmunini yangilashga, u esa, o`z navbatida ta`lim mazmunini va uni belgilovchi hujjatlar (o`quv rejasi, o`quv dasturi, darsliklar)ning yangilanishiga olib keldi. Bu yangilanishlar o`z navbatida, tabiiyki o`qitish jarayonini rejalashtirish, dars mashg`ulotini loyihalashtirishga yangicha yondashishni, o`quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilishni taqazo qildi.

Shunga ko`ra «ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish, yangi izlanishlarni yo`lga qo`yish va ishlab chiqarishga joriy etish» zaruriyatı paydo bo`ladi.

Mazkur sharoitda o`quv jarayonining tashkilotchisi, amalga oshiruvchisi va nazoratchisi qilib faqat o`qituvchini belgilash ayni paytda o`qituvchini ta`lim ob`ektiga aylantirib, uning ijodiy faoliyatini chegaralash mutlaqo to`g`ri emas. Ayniqsa, fan-texnikaning jadal rivojlanayotgan, axbortning keskin ko`payib borayotgan bir davrida ta`lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash, orqali erishish mumkin bo`ladi.

Darhaqiqat, «Ta`lim to`g`risida»gi Konunning 3-moddasida «ta`lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqlashgan yondashuv». Yoxud, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4 - bo`limidagi «Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari» bandiga «... ilg`or pedagogik texnologiyalar, ta`limning yangi shakl va uslublari, o`quv, shu jumladan differentsiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi» - deb vazifa qo`yilgani bejiz emas.

Masalaga shu nuqtai-nazardan yondashilganda respublikamizning ta`lim muassasalari, ayniksa, mutassis kadrlar tayyorlash bilan shug`ullanuvchi o`rta maxsus va oliy ta`lim muassasalari oldida qo`yilgan mazkur ijtimoiy buyurtma o`rta maxsus va oliy ta`lim auditoriyalarida taxsil ko`rayotgan bo`lajak pedagog – tarbiyachilarni ilg`or pedagogik texnologiyalarning mohiyati –mazmuni bilan tanishtirishni, ularni amalda qo`llashning amaliy ko`nikma va malakalari bilan qurollantirishni dolzarb masala qilib qo`yayotganligi ko`zga tashlanadi.

Shu o`rinda, shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, jahon hamjihatligida uning siyosiy, iqtisodiy-ma`naviy, madaniy mavqeい kundan kunga ortib bormokda. Bu kelajakda xalq xo`jaligining barcha jabhalarida jumladan, sanoat, qishloq xo`jaligi, madaniyat, maorif sohalarida ishlaydiganlarning bilimdon, ishbilarmon tadbirkor, tashabbuskor, bo`lishini talab etadi. Bunday xususiyatlarga ega bo`lishning amal topishi maktab ostonasida qo`yiladi. Shunga ko`ra bunday shaxslarni tarbiyalash uchun o`qitish va tarbiyalashning mavjud, strategik metodlari, shakllari, vositalari yetarli emas. Demak, ta`lim - tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish

lozim. Bu birinchi zaruriy shartlardir. Ikkinci zaruruy shartni B.Ziyomuhhammadov va M. Abdullaevlar o`z risolalarida shunday tavsiflaydilar:

-ma`lum sabablarga ko`ra jahon hamjihat tarraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o`rin olish uchun, aholi ta`limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg`or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;

-ikkinchidan, an`anaviy o`qitish tizimi yozma va og`zaki so`zlarga tayanib ish ko`rish tufayli axborotli o`qitish sifatida tavsiflanib, o`qituvchi faoliyati birgina o`quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi,

-uchinchidan, fan - texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko`payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

-to`rtinchidan, kishilik jamiyati o`z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va emperik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo`lgan, aniq yakuniga asoslangan texnik tafakkurga o`tib borayotganligi;

-beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg`or bilim berish metodi hisoblangan ob`ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Olimlarning fikricha o`qitish shaxsga yo`naltirilgan emas, an`anaviy bayon qilish, eslab qolish shaklda olib borilganligi va yuqoridagi zaruriyat tafsil oluvchilarning aniq tafakkur paradigma /namuna/ misollari asosida o`qitilganligi natijasida mustaqil fikrlash, o`zgalar fikriga ko`r-ko`rona ergashishning shakllantirilganligidadir. Bu hol albatta har qanday taraqqiyotga salbiy ta`sir kursatib, ta`lim oluvchilarni uzoqni qurolmaydigan xolga solib qo`yadi. Bilimli bo`lish iste`dodni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning yagona yo`li esa, yangi pedagogik texnologiyadir.

Xo`sh, pedagogik texnologiya nima? Nega bu so`z birikmasiga keyingi vaqtarda “yangi” so`zini va “–lar” qo`shimchasini qo`shib, “yangi pedagogik texnologiyalar” deb atayapmiz? Bu kabi savollarga javob berish uchun, avvalo,

“texnologiya” so`zining, mohiyat mazmunini aniqlab chiqish lozim. “Texnologiya” so`zi 1872 yilda qo`shma, yunoncha, ya`ni “texnos” – san`at, mahorat va “logos” - fan so`zlaridan olinib, “mahorat fani” ma`nosini, “O`zbek tilining” 1981 yilda nashr etilgan izohli lug`atida esa, “ishlab chiqarish protsesslari, metod va vositalari xaqidagi bilimlar majmui” degan ma`noni anglatadi.

Buni pedagogika faniga ko`chirib, “pedagogik texnologiya” deb izohlaydigan bo`lsak, unda “ta`lim - tarbiya qoidalari, metodlari shakl va vositalari xaqidagi bilimlar majmui” degan ma`no kelib chiqadi. Chunki, “Pedagogika” bu ta`lim - tarbiya demakdir. Shunday qilib, “pedagogik texnologiya” bu ta`lim - tarbiya jarayonining qoidalari, metodlari, shakllari, vositalarining mukammaligini anglatuvchi bilimlar yig`indisi, yoki san`atidir. Zero, har bir o`qituvchi, o`qitish va tarbiyalashning qoida, shakl, metod, vositalarini mukammal, san`at darajasida bilsa, shunga qarab o`qish jarayonini tashkil qilsa, talabani mustaqil o`qishga, mustaqil fikrlashga, mutolaa qilishga o`rgatadi va ko`zlangan maqsadga erishadi.

Shunday qilib, “Yangi pedagogik texnologiya” bilimli bo`lishni, iste`dodni rag`batlantirishni nazarda tutgan, o`quv tarbiya jarayonini san`at, mahorat darajasiga ko`tarishga imkon yaratadagan, ta`lim sohasidagi barcha islohotlarning harakatlantiruvchi kuchidir.

Ma`lumki, yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o`tib borishi tufayli ishlab chiqarishning barcha jabxalari uchun ishbilarmon, o`z kasbini mukammal biladigan tadbirkor, tashabbuskor mutaxassislar tayyorlash talab etiladi. Bunday mutaxassislar zamonaviy texnika, uning ishlash texnologiyasi bilan quollangan bo`lishlari va bu jarayonga ishtirok etish malakalariga ega bo`lishlari lozim bo`ladi.

Pedagogika fanlari doktori professor Nurali Saidaxmedov ushbu sohaning yetakchi mutaxassis sifatida muammoni yoritayotgan olimlarning g`oyalarini fikrli ravishda 3 guruhga ajratib, quyidagicha izohlaydi:

-ba`zi olimlar masalaga “pedagogikadagi zamonaviy yo`nalish” deb an`anaviy yondashadilar va o`z imkoniyatlari doirasidagi muammoga ilk bor qo`l uradilar (X.Abdukarimov, K.Zaripov, T. Nazarov, U.Nishonaliev);

-boshqa guruh tarafdorlari ta`limning bugungi ahvoliga qayg`uradilar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch, texnologiyalashtirish deb qaraydilar.(I.YA.Lerner, F.Fradkin, Dj. Bruner, T.Sakamota);

-uchinchi guruh olimlari texnollashtirishni ob`ektiv jarayon deb yangicha sifatiy muammolarni yechish uchun ta`limning evolyutsion bosqichga ko`tarilish shartlaridan biri ekanligini e`tirof etadilar.(V.P.Bespalko, M.V.Klarin, M.Klark, T.A.Il'ina).

Ko`rib chiqilgan barcha yo`nalishdagi qarashlarda an`anaviy pedagogik texnologiyadan ma`lum darajada chekinish va pedagogik texnologiyaga texnik rivojlanish taraqqiyoti nuqtai nazaridan qarash g`oyasi mavjudligi seziladi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga shaxsni rivojlantirish jarayoni shaxsga yo`naltirilgan ta`lim deb qarash mujassamlashgan. Zero, mustaqillik va demokratik rivojlanish yo`lidan borayotgan mamlakatimizning bosh vazifasi ham ta`lim oluvchilarning ma`naviy-axloqiy tarbiyalashdan iboratdir. Ma`lumki, o`quv jarayoni texnologik tayyorgarlikning asosi hisoblanib, barcha operatsiyalar, o`qitish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Shunga ko`ra, professor N. H. Avliyoqulovning ta`biricha “Texnologiyani” o`qitish jarayoniga joriy etish pedagogik texnologiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi”.

Bu qarashlarning barchasida yangi pedagogik texnologiyalarga o`qitishning zamonaviy uslubi deb anglash mavjud.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaga o`qitishning bir yangi uslubi, shakli, yoki boshqarish uslubi sifatida qarash unchalik mantiqqa to`g`ri kelmaydi, chunki, pedagogik texnologiya tushunchasini o`quv jarayonini tashkil qilish, boshqarish, baholash, tahlil qilish jarayonlarining bir, yoki bir necha sohasini, bosqichlarini qamrab oladigan, ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv, texnik va informatsion uslublar tizimlari deb atash bir oz mantiqqa yaqin bo`ladi.

Shuni e`tirof etish joizki, “Yangi pedagogik texnologiyalar” termini hali standartlashtirilmagan, uning mohiyati ilmiy jihatdan to`liq ochib berilmagan mahsuli, taraqqiyot omili va ta`lim islohotlarining kuchi sifatida unga ta`riflar berilgan. Bu ta`riflarda ma`lum darajada pedagogik texnologiyaning mohiyati, mazmuni, uning davr bilan hamnafaslik tomonlari yechimini topa olgan.

Endi, mazkur ta`riflarni qo`rib chiqamiz. Xalqaro tashkilot YUNESKOning ta`rifiga ko`ra **“Pedagogik texnologiya - bu, ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyatini hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilish, o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir”** (**YUNESKO**). Bu ta`rifda pedagogik texnologiyaning ko`p jihatlari ochib berilgan bo`lib, asosan ta`lim-tarbiya jarayoniga yakka xolda emas, balki tizimli yondashish asos qilib olingan.

Ushbu ta`rifga mazmun va mohiyat nuqtai nazaridan yaqin ta`rifni fikrimizcha yapon pedagogi, olim T. Sakamoto izohlagan. Uning fikricha - **“Pedagogik texnologiya-bu majmuali fikr yuritish metodini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuaga keltirishdir”**. Mazkur, yuqoridagi ikki ta`rif, shubxasiz tayanch so`zlar “tizimli yondashuv” va “majmuali yondashuv” asosiyligi, pedagogik texnologiya mazmunini anglatuvchi tayanch so`zlar bo`lib, ta`riflardagi boshqa barcha so`zlar tizim sifatida pedagogik texnologiya mohiyatini tavsiflaydi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyat-mazmunini o`rganish, unga davr fantexnika, xudud xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish faqat uzoq xorijda emas, balki mustaqil davlatlar hamdo`stligi (MDH)da ham amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga tadbiq etish g`oyasini Rossiyada birinchilardan bo`lib V.P.Bespal’ko amalga oshirdi.

Ma`lumki, G`arb va Sharq olimlarining fikrlariga ko`ra pedagogik texnologiyada belgilangan dastlabki maqsad va mazmun asosida o`quv jarayoni rejalashtiriladi, uni amalga oshirish loyihalari ishlab chiqiladi, natija kafolatlanadi. Bunday yondashuvda talaba shaxsining ustivorligi, ta`limning

talaba shaxsini faol shakllantirishga xizmat qilishi, esdan chiqarib qo`yilayapti. Mana shu kamchilikni birinchilardan bo`lib V.P. Bespal'ko payqadi va uni to`ldirishga harakat qiladi. Uning ta`biricha: **“Pedagogik texnologiya - bu o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan talaba shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir”**. Bu ta`rifda pedagogik texnologiya pedagogik jarayonning shunday mexanizmlarining umumlashgan texnologik asboblari tarzida qayd etiladiki, unga inson salohiyatidan qat`iy nazar ushbu asboblar oldindan tuzilganligi va loyihalanganligi tufayli shaxsning shakllanish jarayonini kafolatlay oladi. Demak, ta`lim-tarbiya jarayoni pedagogik texnologiya asosida ko`rilsa, barcha pedagogik mexanizmlar ishlab chiqarish korxonasidagi texnologik xarita singari, bola shaxsining shakllanishi uchun poydevor yaratib, shaxsiy fazilatlar (bilim, iqtidor, malaka, tarbiya) shakllana boradi. Bu ta`lim jarayoniga texnologik yondashuvning hosilasidir.

O`quv jarayonining pedagogik texnologiyasi g`oyasini ko`tarib chiqqan rus pedagoglaridan biri M.V. Klarin pedagogik texnologiyani ta`riflab shunday yozadi: **“Pedagogik texnologiya - o`quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad, mazmun, yo`nalish, ko`rsatgichlaridan kelib chiqib, o`quv jarayonini loyihalash va tizimli yondashishdir”**.

Ushbu ta`rifdan shu narsa ma`lumki, o`quv maqsadlariga erishish va yaxshi natijani qo`lga kiritishning muhim sharti o`qitish texnologiyasining mexanizmi bo`lgan o`quv jarayonini loyihalash va ta`limga tizimli yondoshishdir.

Ta`limga tizimli yondashish g`oyasi ko`tarilgandan so`ng asta - sekinlik bilan pedagogik texnologiyaning mohiyat-mazmuniga ma`lum aniqliklar kiritila borildi. Shunday yo`nalishda rus olimlaridan biri B.M. Monaxov pedagogik texnologiya mohiyatini “.....avvaldan rejalarashtirilgan maqsadlar asosida natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo`lgan tartibli amallar tizimi deb fikr yuritib, **“Pedagogik texnologiya – bu o`quv jarayonining texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik**

jarayon turg`unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub`ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi” deb ta`riflaydi.

Ta`lim maqsadini aniqlash o`quv - biluv faoliyatini optimallashtirish nuqtai nazaridan ham pedagogik texnologiyaga ta`riflar berilgan. Shulardan biri I.YA.Lernerning ta`rifidir. Uning fikricha “**Pedagogik texnologiya - talabalar harakatlarida aks etgan o`qitish natijalari orqali ishonchi anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi**”.

XX asrning 90 yillarida Rossiyada “Pedagogik texnologiya” tushunchasi birmuncha kengaytirilib talqin qilina boshlandi. Unga qadar pedagogik texnologiya faqat o`qitish jarayonini texnologiyalashtirish misolida qaralgan bo`lsa, endi o`quv-tarbiya jarayonini tezlashtirish asosida ko`rish va tarbiya maqsadi, mazmuniga mos keladigan metodlar, vositalar hamda materiallarni tanlash bevosita hamda bilvosita pedagogik texnologiyani loyihalashdagi tarbiyachi - o`qituvchi faoliyatiga xos hujjatlar aspektida qurildi. Shundaylardan biri akademik B.T.Lixachyovdir. Uning fikricha: “**Pedagogik texnologiya - bu maxsus tanlab olingen o`quv - tarbiya vositalari (sxemalar, chizmalar, diagrammalar) shakllari, metodlarini aniq anglatadigan psixologik - pedagogik ko`rsatmalar yig`indisidir**”. Bunda texnologik jarayon talabalar tomonidan o`zlashtiriladigan axloqiy bilim, ko`nikma, malakalar hamda shaxsiy xususiyatlarning shakllanishini ta`minlovchi vosita sifatida ishtiroy etadi.

Bu davrda pedagogik texnologiyaga oid fikrlar, g`oyalar V.Go`zeev, V.A.Slastyonin, I.Volkov, M.Choshanov, Ch.Yudit, V.Pityukovlarning kitoblarida bayon etilib, ularda pedagogik texnologiya o`quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtiruvchi omil nuqtai-nazaridan qo`rib chiqilgan. Bulardan tashqari yana bir guruh psixolog - pedagog olim (N.F.Talizina, YU.N.Kulyutkin, L.M.Fridman va x.k.) larning ta`riflari ham mavjud:

- **pedagogik texnologiya** – o`quv jarayoniga texnologik-tizimli yondashuv;
- **pedagogik texnologiya** – maqsad, (vazifa) faoliyat natijalarining yaxlitligi va muvaffaqiyatini ta`minlashni loyihalashtirish;

- **pedagogik texnologiya** – ta`lim-tarbiyaning eng qulay imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan o`quv jarayonining shakl, metod va vositalarining o`zaro hamkorligidir.

Yuqoridagi ta`riflar orasida eng mukammali, pedagogik texnologiyaning mohiyat - mazmunini to`liq ochib beradigani nazارимизда YUNESKO bergen ta`rifdir. Zero, ta`lim-tarbiyada kam kuch va vaqt sarflab yaxshi natijalarni tezroq qo`lga kiritish uchun barcha imkoniyatlar-texnik vositalar, o`qituvchi mahorati, talabalarning o`zlashtirish darajasi iqtidori, salohiyatini inobatga olish shu kunning talabidir.

Respublikada pedagogik texnologiyani ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish va uni fan sifatida e`tirof etishni birinchilardan bo`lib pedagog olimlardan B.L.Farberman, N.S. Sayidaxmedov, M.Ochilov, O.Roziqov, X.Abdukarimov, T.Nazarova, K.Zaripov, B.Ziyomuhammedov va boshqalar talqin qildilar. Bular tomonidan pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini aniqlashtirish, uning xududga mos variantini yaratish, ta`limni texnologiyalashtirish vositasida talaba shaxsini shakllantirish, o`qituvchi pedagogik mahoratini yuksaltirish masalalari ko`tarilib chiqildi.

Pedagog - olim K.Zaripov pedagogik texnologiyani pedagogik mahorat, pedagogik ijod, ijodiy faoliyatning mahsuli deb qarab pedagogik texnologiya yordamida ta`lim jarayonidagi xato, kamchiliklar mavxumini loyihalashtirib, uni asta-sekinlik bilan voqe`likka aylantirish deb qaraydi va bu tushunchani shunday ta`riflaydi: **“Pedagogik texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatga, ta`lim-tarbiya jarayoniga, avval, rejorashtirilgan maqsadni amalga oshirish va ma`lum loyihami pedagogik tizim amaliyatiga qo`llashdir”.**

M.Ochilov pedagogik texnologiyani ta`lim jarayoniga tizimli texnologik yondashuv; ta`lim maqsadlarini oydinlashtirish (identifikatsiyalash), natijani kafolatlash, faoliyatni ob`ektiv baholash deb qarab, “pedagogik texnologiya” tushunchasiga shunday ta`rif beradi:

“Pedagogik texnologiya - tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta`lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob`ektiv baholash uchun

inson salohiyati hamda texnik vositalarining o`zaro ta`sirini inobatga olib, ta`lim maqsadlarini oydinlashtirib, o`qitish va bilim o`zlashtirish jarayonlarida qo`llaniladigan metod va metodlar majmuidir.”

Pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxo`jaevaning ta`rifi quyidagicha: “**Pedagogik texnologiya - pedagogik faoliyatni bosqichma - bosqich amalga oshirib, ta`lim va shaxsning barkamol bo`lishi taraqqiy etishga qaratilgan maqsadga erishish tizimining loyihasidir**”.

Pedagogik texnologiyaga pedagogik jarayonning majmui sifatida qaralib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi to`g`risida fikr yuritgan olimlardan biri B. Ziyomuhamedov va Sh. Abdullaevalardir. Ularning fikricha “Pedagogik jarayon majmuini muayyan vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi – pedagogik texnologiya deyiladi”. Shunga ko`ra, ”**Pedagogik texnologiya - bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo`naltirilgan o`quv jarayonining majmui sifatida ko`rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo`lgan o`qituvchi (pedagog)ning o`qitish vositalari yordamida talaba(talaba)larga ma`lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko`rsatgan ta`sirini nazoratga tutuvchi va ta`lim natijasini baholab boruvchi texnologiyalashgan ta`limiy tadbirdir**”. Mazkur ta`rifda shu narsa ko`zga tashlanadiki, pedagogik texnologiya ta`lim- tarbiya jarayonini bir butunlikda ko`radi, ta`limning maqsadi, mazmuni, o`qitish metodlari va vositalarini bilim beruvchi va bilim oluvchilarni majmuiga keltirishni, o`qitish bosqichlarini loyihalashni, uning borishini nazorat qilish, natijani kafolatlashni ham majmuaga keltirishni nazarda tutadi. Uning yana bir xususiyati shundaki, ilmiy asoslangan yaxshi loyihalangan pedagogik texnologiya o`qituvchi mahoratidan qat`iy nazar ko`zlangan maqsadga erishishni kafolatlaydi, talaba ta`lim - tarbiyaning yakunida egallagan bilimlarni faol amalga oshiruvchisiga aylanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya ilmiy kontseptsiyaga asoslangan maqsadni belgilash va unga erishishda ijtimoiy, didaktik, ruhiy-pedagogik,

falsafiy nazariyaga suyangan vazifa, faoliyat, natija yaxlitligi, muvaffaqiyatini ta`minlaydigan, ta`lim-tarbiyaning loyihalangan jarayoni, tamoyillari, metodlari, vositalarining o`zaro hamkorlikdagi birligidir.

Shu o`rinda, pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilovning fikriga qo`shilgan holda pedagogika nazariyasi va amaliyotida tan olingan va ilmiy nazariy jihatdan asoslangan, pedagogik olimlar bildirgan fikrlarni tahlil qilib, pedagogik texnologiyaning mohiyat-mazmuniga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ta`lim jarayonini oldindan loyihalash va guruhda talabalar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida talabalarning o`qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta`lim maqsadi real, aniq diagnostik bo`lishi va talabaning bilim o`zlashtirish sifatini ob`ektiv baholash;
- ta`lim jarayonining tuzilishi va mazmunining yaxlitligi, o`zaro bog`liq va o`zaro ta`sirda bo`lishi;
- ta`lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta`lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o`zaro ta`sirini hisobga olish;
- ta`lim maqsadlarini ko`zlagan etalon asosida talabalarning kuzatiladigan, o`lchanadigan xarakterlari shaklida juda oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o`qitish;
- bilim o`zlashtirish jarayonida yo`l qo`yilgan xatolarni aniqlab, kuzatib borish;
- shakllantiruvchi va izohlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta`limning kafolatlanganligi;
- ta`lim samaradorligining yuqoriligi;
- majmuaga keltirishni nazarda tutadi.

Uning yana bir xususiyati shundaki, ilmiy asoslangan, yaxshi loyihalangan pedagogik texnologiya o`qituvchi mahoratidan qat`iy nazar ko`zlangan maqsadga

erishishni kafolatlaydi, talaba ta`lim-tarbiyaning yakunida egallagan bilimlarni faol amalga oshiruvchisiga aylanadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1.“Pedagogik texnologiyaning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. “Pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyati va mazmunini izohlab bering.
3. Pedagogik texnologiya kontseptsiyasining rivojlanish tarixi va uning YUNESKO tomonidan tan olinishi xaqida so`zlab bering.
4. Pedagogik texnologiya tamoyillariga izoh bering.
5. Pedagogik texnologiyaning mohiyat-mazmuniga nimalar kiradi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

- 1.Talabalarning o`qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`lim jarayoni loyihasini tuzish deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
2. Talabaning bilim o`zlashtirish sifatini ob`ektiv baholash deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
3. Bilim o`zlashtirish jarayonida yo`l qo`yilgan xatolarni aniqlab, kuzatib borish degan firning ma`nosini izohlab bering.
4. Pedagogik praksiologiya tushunchasini izohlab bering.

TESTLAR

1.Ta`lim iborasiga qaysi variantda to`g`ri ta`rif berilgan?

- A) nazariy va amaliy mashg`ulotlar;
- *B) bilim berish, malaka va ko`nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi;
- C)olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlar majmui;
- D) insonlarning o`rganish qobiliyati;

2.O`zbekiston Respublikasida ta`lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi, bu...

- *A) Insonni har tomonlama rivojlantirish va kamol topishi;
- B) ekologiyani yaxshilash;

- C) Ilm, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish;
- D) Dunyoviy aloqalarni bir-biri bilan bog`lash;

3. Pedagogik jarayonning vazifasi nimalardan iborat?

- A).Bilim, ko`nikma,malakahosilqilish;
- B) O`quv fanlarni mazmunini o`zlashtirib olish;
- *C) Bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish;
- D) Bilish faoliyatini rivojlantirish.

4. Didaktik printsiplar deganda nimani tushunasiz?

- *A) Ta`limda o`quv materialini tanlash va uni o`rganishda asoslaniladigan boshlang`ich asosiy qonun – qoidalar;
- B) Pedagogik texnologiyalarni ta`limda qo`llash qoidalari;
- C) O`qituvchining rioya qiladigan metodik sistemasi;
- D) Talabalar uchun yo`l–yo`riqlar, kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar tizimi.

5. Qaysi texnologiyalarda o`quvchilarda aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga asosiy e`tibor qaratiladi?

- A) Didaktik o`yin texnologiyalarida;
- *B) Muammoli ta`lim texnologiyalarida;
- C) Modulli ta`lim texnologiyalarida;
- D) Loyihalash texnologiyalarida.

6. Kasbiy ta`lim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

- *A) o`qitish va o`qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli;
- B) olamning zaruriy xususiyatlari haqidagi axborotlar majmui;
- C)bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish;
- D) biror ob`ektni amaliy o`zgartirish.

7. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysi javobda ko`rsatilgan.

- *A) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta`lim, fan, ishlab chiqarish;
- B) Ta`limning uzluksizligi, fan va ta`lim jarayonlarining aloqalari;
- C) Iqtidorli bolalar va iste`dodli yoshlar, fan, ishlab chiqarish;
- D) SHaxs, davlat, ta`lim tizimini moliyalash, moddiy texnika ta`minoti;

8. Metodologiya nima?

- *A) Metodologiya – metod haqidagi ta`limot, yoki metodlar nazariyasi;
- B) Fanlarni o`qitish qoidasi;
- C) Fanlarni o`qitish nazariyasi;
- D) Metodga asoslanmagan o`qitish usullari.

9. Interaktiv usullarga asoslangan ta`lim jarayonini ko`rsating?

- *A) Hamkorlikda ta`lim olishda ta`lim oluvchi uchun tashkil etilgan bilim faoliyatining maxsus shakli;

- B) An`anaviy o`qitish metodikasini inkor etuvchi, avtoritar boshqaruv usullariga asoslangan ta`lim usuli;
- C) eksperimental psixologiya yutuqlari assosida mavzuning ilmiyligi, izchilligi, oddiyidan murakkabga yo`nalishni, ko`rsatmaliligi, bilim va axborotlarni hayotiyligi, jonliligi ravon tilda olib borilishi.
- D) Didaktikaga asoslangan ta`lim usuli.

10. Ta`lim texnologiyasi turlarini belgilang?

- *A) Muommali, shaxsga yunaltirilgan, masofaviy, moduli;
- B) Nazariy, amaliy, aralash, mustahkamlash;
- C) Noan`anaviy, an`anaviy, mustahkamlash;
- D) Aralash, ma`ruza, masofaviy, nazariy;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakulov N.H. Zamonaviy o`qtish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakulov N.X. Prakticheskie osnovy modulnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizzxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyat. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
- 8.Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru
[www.ise.Iip.Net.](http://www.ise.Iip.Net)

1.2. INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI.



O'quv maqsadi

Innovatsion pedagogik faoliyatning ilmiy - nazariy asoslari haqida nazariy bilimlar berish

*Bilimni go`zal tarzda
o`qitish – ilohiy
san`at!*

A.Frans

Tayanch iboralar: rivojlanish jarayoni, yangilik kiritish, reformatsiya, pedagogik innovatsiya, innovatsion pedagogik faoliyat, innovatsion ko`rsatkichlar, nazariy asoslarini tahlil qilish, tarbiyalash jarayoni, qaramaqarshi jarayon, psixologik-pedagogik kuzatish.

Jamiyatning rivojlanish jarayoni ta`lim —tarbiya tizimini qayta ko`rib chiqish bilan bog`liqdir. Jamiyatdagi o`zgarishlar ta`lim va tarbiya yo`nalishida ham tuzatishlarni talab etadi. O`qitishning yangi shakl va metodlarini qo`llash asta — sekin jamiyat rivojlanishining progressiv kuchi bo`lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatdagi qayta qurishlarda yangilik kiritish ulkan

axamiyatga ega bo`ladi. Yangilik kiritish bu uzlusiz jarayon, pedagog faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir.

Yangilik kiritishning boshlanishi jamiyat asosida, uning doimiy yangilanishida yashiringan bo`ladi. Novatorlik jarayonini rivojlantirish taraqqiy etib borayotgan jamiyatning faqatgina iqtisodiy emas, balki boshqa barcha sabablarga ko`ra tarixiy vazifasi hisoblanadi. O`zgarishlarsiz, doimiy ravishda yangiliksiz ilgari harakatlanish bo`lmaydi degan qoida asosli hisoblanadi. Biroq yangisini oldindan mavjud bo`lgan, ommaviy pedagogik amaliyotda ijobiy natijalarga ega bo`lgan yutuqlar asosida qurish kerak bo`ladi. Jamiyatda bo`lgani kabi ta`lim va tarbiyada ham yangilik kiritish bir vaqtning o`zida jamiyatda va ta`limda qayta qurishlarning ham natijasi va eng samarali vositasidir. Chunki ta`lim ijtimoiy vazifa sifatida jamiyatdagi o`zgarishlarni aks ettiradi.

Olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish ta`lim tizimining rivojlanganligi jamiyatning rivojlanishi ma`lum darajasi bilan belgilanishini ko`rsatadi, Bir — biri bilan bog`liqligi ta`lim tizimi jamiyatga va uning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatib uni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishidan iborat. Shuning uchun ta`limdagi o`zgarishlar faqatgina natijasi emas, balki jamiyatning yanada rivojlanishida zarur.

Ilmiy teriminologiyalarda ta`limda o`zgartirish deganda reformatsiya, isloh qilish jarayoni tushuniladi. Reformatsiya (isloh qilish) — bu davlat faoliyati aspekti, ijtimoiy jarayonlar, reformalar, jamiyatning siyosiy yo`nalishini o`zgartirishdir.

Reformalashtirish (isloh qilish)ga ta`limning ijtimoiy holatini o`zgartirish, uning mavqeini oshirish, davlat ajratadigan mablag`larini oshirish va boshqalar kiradi. Isloh qilish natijasi davlat hokimiyati tomonidan tashkil etiladigan va olib boriladigan yangilik kiritish kiritiladi.

Ta`limda yangiliklar kiritish faqatgina davlat siyosati darajasida emas, balki ta`lim tizimi va fan xodimlari hamda tashkilotchilaridan kelib chiqadigan tashabbus natijasida ham amalga oshiriladi. Bu jarayon innovatsion pedagogik faoliyat yo`li bilan tashkil etiladi.

Innovatsion pedagogik faol tushunchasi "yangi", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "pedagogik innovatsiya" bir —biriga aloqador tushunchalar qatorida turadi. "Yangi" atamasi birinchi bor yaratilgan, yoki bajarilgan, paydo bo`lgan, yoki yaqinda yuzaga kelgan sifatida tushuniladi. Ilmiy — nazariy manbalar yangilikning bir necha darajalarini ko`rsatadi:

- absolyut (umuman) yangilik, ilgari hech qachon va hech qaerda mavjud bo`lмаган narsani yaratishga asoslanadi;
- lokal yangilik, ilgari ma`lum bo`lgan lekin bugungi kunda esdan chiqarilgan ob`ektini aktuallashtirishga asoslangan;
- me`yoriy yangilik, bunda ob`ekt me`yor hisoblangan boshqasi bilan solishtirilganda yangi hisoblangan;
- sub`ektiv yangilik, qachonki ob`ekt ushbu sub`ekt uchun yangi, lekin boshqa sub`ektlarga ancha keng ma`lum bo`lgan hollarda;

Yangini yaratish jarayoni "**yangilik**" deb ataladi. Ilmiy tadqiqotlarda bu jarayon quyidagicha belgilanadi:

- ma`lum bo`lganni boshqa ko`rinishda qurish;
- ba`zi o`zgarishlar bilan mavjud bo`lganini takrorlash;
- ma`lumni aniqlashtirish, konkretlashtirish;
- ma`lum bo`lganni muhim elementlar bilan to`ldirish;
- umuman yangisini yaratish.

"Innovatsiya" atamasini madaniyatshunoslik va lingvistikada transfera jarayonini ifoda etish uchun paydo bo`ladi.

Transfera jarayoni biror bir madaniy xodisani bir kontekstdan boshqasiga kirib borishini va shu bilan bir vaqtida ilgari xos bo`lмаган yangi sifatlarga ega bo`lishini anglatadi. Ana shu madaniyatning rivojlanishini xal etuvchi omili bo`lib kelgan. Shunday qilib, "innovatsiya" "yangilik" tushunchasining sinonimi xisoblanadi.

"Innovatsiya" tushunchasining paydo bo`lishi faylasuf — iqtisodchi Y.Shumpeter nomi bilan bog`liq. U, ana shu tushunchani - iqtisodiyotning

rivojlanish soxasiga kiritdi va bir qator "innovatsion kombinatsiyalar", "innovatsiyalarni amalgalashirish" kabi atamalarni kiritdi.

"Innovatsion faoliyat" atamasining paydo bo`lishi XX asrning 70 yillarida sodir bo`ldi. Avvaliga bu atama iqtisodiyotda qo`llanildi, keyin esa, inson faoliyati boshqa soxalariga xam kirib keldi.

"Innovatsion faoliyat" tushunchasining mazmunini o`rganib olimlar bir necha yondashishlarni ko`rsatdilar:

- Innovatsion faoliyatga yaxlitlik xususiyati xosdir, ya`ni kiritilayotgan yangilikning keng miqyosidaligi, xamma narsani o`z ichiga oladigan, globalligi;
 - Innovatsion faoliyat yangilanishlar va o`zgarishlar uzlucksizligi xamda muntazamligiga ega bo`lishi kerak.
- Innovatsion faoliyat xar doim amaliyotda ilgari mavjud bo`lgan biror — bir tayanchga asoslanadi.

Yangini, ya`ni yangilikni o`zlashtirish va yaratish zaruriyati yangi ilmiy yo`nalish "pedagogik innovatsiyalar" paydo bo`lishini belgilab berdi. Pedagogik innovatsiyalar yangi pedagogik texnologiya uchun asos bo`la oladi. Pedagogik innovatsiya quyidagilarni belgilab beradi: Pedagogik neologiya (yangilik) yangilikni pedagogik xamkorlik tomonidan qabul qilinishi, baholanish va o`zlashtirilish muammolarini o`rganadi.

Pedagogik praksiologiya ta`lim tizimida yangilikni qo`llanilishi xaqidagi ma`lumotlarni umumlashtirish bilan shug`ullanadi.

Pedagogik innovatsiya pedagogikaning soxasi sifatida ta`limning turli soxalarida innovatsion jarayonni nazariy asoslab, kelayotgan yangiliklarni o`zlashtirish bo`yicha amaliy maslahatlar berishga intiladi. Innovatsion jarayonlarni boshqarish-masalalarini tahlil qiladi.

Innovatsion pedagogik muammolar X.Barnet, D.Gamil'ton, N.Gross, N.Dinikson, M.Maylz, A.Xoberman, R.Xeyvlok, N.Azizzxo`jaeva va boshqalar asarlarida ochib berilgan bo`lsa, pedagogik innovatsiyalarni o`rganishning ijtimoiy — falsafiy jihatlari Nilanin, A.I.Prigonin, N.R. Yusufbekovalar ishlarida berilgan. Pedagogik innovatsiyalar mohiyatini baholash mezonlari, tarkibini

aniqlash nazariy — metodologik jihatlari esa, M.S.Burgina, V.S.Lorensov, M.M.Potashnik, A.T.Xomerin ishlarida ko`rib chiqilgan. Innovatsion o`quv yurtlari faoliyatlari taxlili V.I.Andreev, M.V.Levij, A.T.Kasprjan, E.M.Nikitin ishlarida asoslab berilgan.

Bu olimlarning ishlarini taxlil qilib chiqish, yaxshisini yaratish va o`zlashtirish jarayonida bir necha o`zaro bog`liq bo`lgan bosqichlarni ajratib ko`rsatish imkonini beradi.

yangilikni ishlab chiqish — yangini yaratish, yoki ilgari yaratiltanni izlash va moslashtirish;

yaratilganni o`rganish — ekspertlar tomonidan baholanishi, sinov tekshirishlari, ilmiy — pedagogik ekspertiza;

yangilikni qo`shimcha ishlab chiqish — moslashtirish, ishslash yangi sharoitlariga mos ravishda tuzatish;

«amaliyotga tadbiq etish — yangini nazariy o`rganib chiqish va uni amaliy amalga oshirish;

innovatsiya predmetini yanada rivojlantirish. Innovatsion jarayonning ilmiy ta`rifi pedagogik faoliyatda yangilikni yaratish, o`zlashtirish, foydalanish va tarqatish bo`yicha kompleks faoliyatni o`z ichiga oladi.

Pedagogik adabiyotlarda "yangilik" tushunchasi va "yangilik kiritish" sinonimlar sifatida qaraladi.

"Pedagogik innovatsiya" tushunchasini tadqiqotchilar (K.Angelovski, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, O.T.Xomerik va boshqalar) yangi vositalarini, ya`ni yangilikni o`zlashtirish jarayoni sifatida qaraydilar. "Innovatsion jarayon" tushunchasi innovatsion faoliyat bilan bog`lanadi. M.S.Bichurin, L.D.Gireva, L.I.Ovsyannikova, F.Y. Anushkevich kabi tadkiqotchilar "pedagogik innovatsiyalar" va "pedagogik yangilik" tushunchalarini sinonimlar sifatida ishlatadilar. Tadqiqotchi V.I.Andreev "Innovatsiyalar" tushunchasi xaqida o`z nuqtai nazariga ega. U "pedagogik iynovatsiyalar" atamasida bir necha mazmunlarni ko`rsatadi:

- yangi mazmun va yangi metodlarni ishlab chiqish;

- shu kungacha mavjud bo`lgan ilgor tizimlar va texnologiyalarni tadbiq etish va tarqatish;
- maktabni boshqarish va rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish;
- maktabni tajriba maydonchasi sifatida tushunish;
- maktab umuman yangi bo`lgan ta`lim yo`nalishiga ega bo`lgan vaziyat.

Psixologik — pedagogik manbalarni taxlil qilishgan bir qator mualliflar asosiy pedagogik innovatsiyalarga ta`lim berish jarayoni doirasidagi o`zgarishlar kiritish lozimligini quyidagicha ko`rsatib berishgan:

- talabalarni o`qitish, rivojlantirish va tarbiyalash tizimida, yoki uning aloxida tarkibiy qismlariga;
- o`qitish mazmunidagi, ya`ni xamma, yoki aloxida fanlar o`quv rejali va dasturlariga;
- o`quv jarayoniga mikro EHM va mul'timedia texnologiyalar yordamida o`qitish texnologiyalari xamda vositalarini ixtisoslashtirilgan guruh va maktablarda o`qish jarayoni kompleks o`qitishni;
- ta`lim standartlaridagi va o`quv — tarbiyaviy jarayonga dasturli talablarni standartlashtirishdagi yangi turdagи o`rta maxsus maktabni va o`qitishning yangi texnologiyalarini tashkil etishni;
- testlar va bevosita aloqador natijalarni o`lchovchi boshqa vositalar yordamida o`qitishning natijaliliginini baxolashda;
- "o`qituvchi—talaba" tizimidagi munosabatlarni shakllantirishni.

Tadqiqotchilar L.N.Sedova, E. V.Red'kina, O.B.Kapichnikovalar pedagogik innovatsiyalar yaratish va o`zlashtirish jarayonini innovatsion pedagogik faoliyat deb ataydilar. Innovatsion pedagogik faoliyat mazmuni sifatida ular davr talabi bilan zamonaviy maktab oldiga qo`yilgan dolzarb muammolarni xal etish, samarali yo`llarini izlash uchun alohida pedagoglar va butun ijodiy jamoalar yaratadigan o`qitish va tarbiyalash amaliyotini tushunadilar. Innovatsion faoliyatni turlarga ajratish alohida e`tiborga loyiqidir. Tadqiqotchi K.Angelovskiy "pedagogik innovatsiyalarni aniq turlarga ajratish mumkin emas, chunki har qanday turlashda sxematizm mavjud, etarlicha to`la va ketma — ketlik tartibiga

ega bo`lmaydi" deb ta`kidlaydi. V.S.Lorensov, M.M.Potishnik, O.T.Xomerlarning innovatsion pedagogik faoliyatga doir tasniflari quyidagi ko`rsatkichlarni o`z ichiga oladi:

1. *O`quv—tarbiyaviy jarayonning u, yoki bu qismi bilan aloqadorligi bo`yicha:*

- ta`lim mazmunida;
- o`quv — tarbiyaviy jarayonning metodikalari, texnologiyalari, shaklida, metod, usullari, vositalari, uslublarida;
- o`qitish va tarbiyalashni tashkil etishda;
- mакtabni boshqarish tizimida;

2. *Qayta tuzish hajmi asosida:*

- alohida (lokal, yagona bo`lgan) bog`liq bo`lmagan;
- modulli (aloxida to`plami), bog`liq bo`lgan;
- tizimli, butun maktabni o`z ichiga oluvchi.

3. *Faoliyatning innovatsion imkoniyatlari asosida:*

- modifikatsion, ommaviy amaliyotda mavjud bo`lganni ratsionalizatsiyalash, takomillashtirish bilan boliq.
- kombinatorlik, turli xil pedagogik texnologiyalardan elementlarni birlashtirishga asoslangan;
- radikal, umuman yangi, ilgari qo`llanilmaganni yaratishga qaratilgan.

4. *O`zidan avvalgilarga munosabati asosida:*

- o`rnini bosuvchi, eskirib qolgani o`rniga yangi vositani kiritishga asoslangan;
- almashuv faoliyatini yakunlashga asoslangan;
- ochib beruvchi, yangini o`zlashtirishga qaratilgan;
- eskisini kiritish, ya`ni esdan chiqqan eskisidan foydalanish.

K.Angelovskiy, Rodjers, Mayle (AQSH), Broinsuik, Bolen (Frantsiya), Nayxof, Marklund (Angliya), N.Potkonyak, M.Mandis (YUGoslaviya) va boshqa tadqiqotchilar innovatsion pedagogik faoliyatni turlarga ajratish muammolari bo`yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Bu ishlarga quyidagi mezonlar asosida innovatsion pedagogik faoliyatning turlari beriladi:

1) tarqatilishi doirasiga qarab:

- ta`lim mazmunida;
- o`qitish va tarbiyalash texnologiyalarida;
- ta`limni boshqarish tizimlarida;
- ekologik ta`limda.

2) yangini amalga oshirish usuliga qarab:

- muntazam, rejorashtirilgan, oldindan tayyorlangan;
- to`satdan, tayyorgarliksiz, tasodifiy;

3) novatorlik tadbirdari kengligi va chuqurliligiga qarab:

- ommaviy, fundamental;
- qisman, kichik,

4) yangining yuzaga kelishi xarakteriga qarab:

- tashqi, o`qitish va tarbiyalash shakllariga taalluqli;
- ichki, o`qitish va tarbiyalashning moxiyatiga taalluqli.

Innovatsion pedagogik faoliyat bo`yicha ba`zi pedagogik tadqiqotlar bu faoliyatni quyidagilarga asoslanib turlarga ajratadi:

1. Yangilik amalga oshiriladigan doiraga aloqador:

- o`qitishning mazmuni va tuzilishi;
- o`qitish texnologiyasi;
- o`qitish, dars o`tish va bilim berish jarayonini tashkil etish;
- o`qitish vositalari;
- o`quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish tizimiga.

2. Yangilik kiritishni amalga oshirish usuliga qarab, bu quyidagilarni ajratib ko`rsatishga imkon beradi:

- muntazam, rejorashtirish (ko`zda tutilgan), oldindan o`ylab olingan;
- to`satdan, tayyorgarliksiz, tasodifiy;

3. Innovatsiyalar chuqurligi va to`laligiga qarab:

- ommaviy, katta, global, strategik, muhim, chuqur va boshqalar;

- kichik, mayda, qisman va boshqalar.

4. Innovatsion faoliyatning borishiga qarab:

- tashqi (o`qitish va tarbiyalashning noan`anaviy texnologiyalar, metodlar, shakl va vositalari. Talabalarning hayot tartibi boshqa rolining, muassasaning ishlash yangi sharoitlari va boshqalar);
- ichki, ma`lum vaqt davomida erishilgan o`qitishning ancha yuqori natijalarini beruvchi (bilimlari, sifati va mustahkamliligi, bilimlar tizimini o`zlashtirish darajasi, o`rganish va tadqiqotchilik amallarining, integrativ va umumlashtirilgan malakalarning shakllanganligi).

L.N.Sedova, E.V.Red'kina, O.T.Kapichnikovalar innovatsion pedagogik faoliyatga quyidagi yondashishdan foydalanadilar. Ular innovatsion pedagogik faoliyatni quyidagicha tushunadilar:

- shakllanayotgan shaxsga ta`sir ko`rsatish, shaxsga yo`naltirilgan usullarini tashkil etish;
- o`qitish va tarbiyalashning yangi metodlari, usul, shakl va vositalarini o`zgartirish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o`qituvchi ishlari tizimidan foydalanish;
- innovatsion ta`lim muassasalarining faoliyati.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat nazariy asoslarini tahlil qilib chiqish bu muammo murakkab va qarama — qarshi hodisalardan iborat ekanligini ko`rsatadi. Bu muammoga nazariy yondashishlar innovatsion faoliyatning metodologik va tashkiliy jihatlari bilan o`zaro bog`liqlikda o`rganilishi kerak.

Innovatsion pedagogik faoliyatni tahlil qilish o`qitish va tarbiyalash an`anaviy ommaviy amaliyotini innovatsion faoliyat xususiyatlari bilan solishtirishni nazarda tutadi. Innovatsion va an`anaviy pedagogik faoliyat o`rtasida murakkab dialektik umumiylilik, o`xshashlik mavjudligini ko`rsatadi. Bu umumiylilik shunday yo`l bilan aniqlanadi: innovatsion pedagogik faoliyat o`rganiladi, umumlashtiriladi, amaliyotga tadbiq etiladi. Natijasi o`qitish va tarbiyalashning yangi sifatli darajasi bo`lib qoladi. An`anaviy pedagogik faoliyatni tahlil qilish

uning sifati qanchalik yuqori bo`lsa, amaliy ishchilar va butun pedagogik jamoalarning yangi goyalari shunchalik qiziqarli, samaraliligini ko`rsatadi. Natijada innovatsion va an`anaviy iedagogik faoliyatlar bir —biriga ta`sir ko`rsatadi, bir — biri bilan qo`shilib birlashib boradi,

Innovatsion faoliyatga metodologik yondashishda innovatsiyalarning muhim xususiyatlarini, uning sifat ko`rsatkichlarini ajratib ko`rsatish zarur. Innovatsion faoliyatning asosiy ko`rsatkichlari olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagi toifalarga ajratilgan:

- 1.Natijalilik — ta`lim va tarbiyada yuqori sonli va sifatli natijalar olish (Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, T.I.Shamova).
- 2.Mustahkamlik — vaqtinchalik emas, balki uzoq vaqt muvaffaqiyat va mustahkam natijalar mavjudligi (Yu.K.Babanskiy).
- 3.Optimalligi — o`qituvchi ishidagi metodlari, usullari, shakllari va vositalari bir —biriga mos kelishi (M.N.Skatkin), vaqtli, kuchli va vositalarni to`g`ri sarflash (Yu.K.Babanskiy).
- 4.Komplekslik — shaxsning barkamol rivojlanishiga ko`rsatma. "Yordamchi natjalarga" erishish (V.V.SerikoB). Ta`lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarining birligini ta`minlash (E.I.Monoszon).
5. Imkoniyatlari kengligi — "kam sonli uslublardan turli xil kombinatsiyalarda foydalanish" (V.V.SerikoB), "mos ravishda ta`sir ko`rsatish" (Yu.K.Babanskiy).
6. Amaliylik — ushbu innovatsiya doirasida zamonaviy maktab asosiy qarama — qarshiliklarini o`qitish va tarbiyalashning yangi vazifalariga mos hal etish (E.I.Monoszon).
- 7.Istiqbolliligi — "ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini, xayot talablarini, ijtimoiy buyurtmani" hisobga olish (M.N.Skatkin).
- 8.Tizimlilik — ishda "xamma samaralilarni yasamovchiga" olib keluvchi mantiqning mavjudligi (YA.S.Turbovskiy).
- 9.Ilmiylik — xamma xulosalarning isbotliligi va asosiyligi, "umumi pedagogik g`oyani aniq o`quv—tarbiyaviy amaliyotga aylantirish" (E.I.Monoszon).

10.Qo`llanilishi — pedagogik innovatsiyaning sub`ektiv omillarga nisbatan bogliq bo`lmasligi, "yangilikni talabalarning mavjud o`quv imkoniyatlariga va o`qituvchilar asosiy ommasi imkoniyatlariga mos kelishi" (Yu.K.Babanskiy).

Keltirilgan ko`rsatkichlarga amal qilish innovatsion faoliyatni shaxsga yo`naltirilgan ta`lim jarayoni talablarini amalga oshirishga qaratilgan tizim kabi qarash imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatga metodologik yondashish uning tarkibiy qismlarini ajratib ko`rsatish imkonini beradi:

- shaxsga ta`sir ko`rsatish innovatsion usullarini qo`llash;
- o`qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlash tizimlaridan foydalanish;
- innovatsion ta`lim muassasalarining faoliyati.

Ta`sir ko`rsatishning innovatsion usullari shaxsning individual sifatida o`zini tashkil etishiga qaratilgan pedagogik faoliyatning alovida soxasidir. Pedagogik yordam bu tarbiyalanuvchi bilan birgalikda uning shaxsiy qiziqishlarini va insoniylik qimmati hamda mustaqilligini saqlashga xalal berayotgan muammoni yo`qotish yo`llarini aniqlash jarayonidir. Pedagogik yordamning nazariy — metodologik asosi tarbiyalovchilar va tarbiyalanuvchilar faoliyatida zulm o`tkazmasligi, majburlamaslik (kuchdan foydalanmaslik) pedagogik kontseptsiyasi xisoblanadi.

Pedagogik majbur etmaslik kontseptsiyasi B.T. Lixachev, V.G.Maramov, V.L.Sitarovlar ishlarida ishlab chiqilgan.

Ushbu aqidaga ko`ra zulm qilmaslik birligi va ularning o`zaro aloqasi, tabiiy va ijtimoiy majburlash sababchi ekanligini tashkil etadi. B.T.Lixachevning fikricha tarbiya soxasida xatto "zarar yetkazma" tamoyilini hisobga olib xam, "insonparvarlik pedagogikasi"ga mos sharoitlarida xam, yaxshilikni ko`zlab zulm o`tkazmaslik mumkin emas. Bola albatta "ijtimoiy xayotda faol ishtirok etar ekan u istaydimi, yo`qmi zulmga yomonlikka, odob va axloq qoidalarini o`rganishga chaqirib, da`vat qilinar ekan, jamiyatning qonun qoidalarini bajarishga ko`nikma hosil qilishi shart". Aks xolda jamiyat fojiaga yuz tutadi.

Zulm o`tkazmaslik kontseptsiyasini ishlab chiquvchilar o`z asarlarida tarbiya shaxsning ma`naviy "asosini", uning axloqiy erkinligini shakllantirish xisoblangan qoidaga tayanadilar.

Tarbiyalash negativ — ijtimoiy sharoitlarda va ekstremal vaziyatlarda o`z - o`zi bilan bo`lishga qodir. Mustaqil mas`uliyatli qarorlar qabul qilishga va harakat qilishga tayyor shaxsni rivojlantirishga yo`naltiriladi. Tarbiyalash o`sib kelayotgan avlodga ijtimoiy xayot tajribasini yetkazishning doimiy ob`ektiv mexanizmi xisoblanadi. Zero, tarbiyalashning o`zi barkamol, ijodiy erkin shaxsni shakllantirishga qodir.

Tarbiyalash jarayoni — bu murakkab, uzoq davom etadigan, qarama-qarshi jarayondir. U pedagogik maqsadga muvofiq, ta`sir ko`rsatish yo`li bilan amalga oshiriladi. Har qanday majburiy harakat o`rni bilan yakka ta`sir o`tkazishi mumkin.

Pedagogik majburlashda insonparvarlik kontseptsiyasi yetakchilik qilib tarbiyachi majburlab, o`rgatish orqali shakllanayotgan shaxsni rag`batlantirishni xam bilishi lozim.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchining tanlovini zarur bo`lgan harakatlar va xulqi foydasiga yo`naltirishi kerak. Ba`zan tarbiyalanuvchiga bu usulni tanlash qiyin va yoqmaydi, lekin zaruriy bo`ladi.

Oqilona pedagogik majburlash jarayonida tarbiyachi tarbiyalanuvchining o`zi ongli ravishda o`zini majburlashiga va o`zini cheklashiga erishadi. Bunday ta`sir ko`rsatish tarbiyalanuvchining o`z erkinligini cheklaydi va qiynaladi. U murakkab jarayon, u faqatgina, tarbiyachi quvonchli kelajagi bilan birga tarbiyalanuvchining irodasini, uning o`zini anglashga qobiliyatini, o`zini tuta bilishini, uning ichki ma`naviy erkinligini rivojlantirishga, mustahkamlashga erishganidagina maqsadga erishiladi.

Ko`zlangan natijaga erishish uchun, pedagog asosiy masalani xal etishi kerak. Asosiy masala tarbiyalanuvchilarning mazmunli va pozitiv yo`nalgan hayonlarini tashkil etishdan iboratdir. Tarbiyalanuvchilar hayotini tashkil etish asosi bolalar va kattalarning munosabatlar bo`yicha birgalikdagi jamoaviy

faoliyati bo`lishi kerak. Bunday faoliyatni tashkil etish o`zaro aloqalarning maxsuldarligini ta`minlashda yetarlicha imkon beradi. Pedagog uchun me`yoriy pedagogik jarayonni amalga oshirish muximdir. Bu jarayon har doim ham bir xil bo`lmaydi. Bir tomondan u hamkorlik, birgalikda ijod, hamdo`stlik bilan, boshqa tomondan esa, turli xil kelishmovchiliklar, qarama — qarshiliklar, nizolar, noto`g`ri xulq bilan boradi. Bunday jarayonda pedagog zulm o`tkazmaydigan, foydali ta`sir ko`rsatadigan vositalarga boy imkoniyatlaridan foydalanishi kerak,

Bu masalani xal etishda pedagog tarbiyalanuvchi aql idrokiga, muxabbatiga, obro`sni va qadr — qimmatiga murojaat etishi imkoniyati orqali erishadi. Pedagog o`zining xaqligini isbotlashga jiddiy dalil —isbotlar, misollar bilan ishontirish vositalarini izlaydi.

Yuqorida zulm qilmaslik pedagogikasi murakkab va qarama—qarshi jarayonligi aytib o`tilgan edi, Shuning uchun zulm qilmaslik pedagogikasi faqatgina bu jarayonga o`qituvchining bir o`zi emas, tarbiyalanuvchilarning o`zlari ham tayyorlangan bo`lganlaridagina maqsadga muvofiq bo`ladi, Pedagog birinchi navbatda bolalar uni tushunishlarini his etishi kerak. Ana shu maqsadda pedagog tarbiyalanuvchilarning tanqidiy fikrlashlari, ularning xayotiy xodisalarni mustaqil taxlil qilish va baxolash qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ishlashi kerak. Bolalar tashqi ta`sir ko`rsatishlardan qat`iy nazar mustaqil qaror qabul qilishga o`rganishlari kerak.

Pedagogik zulm o`tkazmaslik bolalar va kattalarning ob`ektiv, tabiiy va ijtimoiy zarur o`zaro aloqalaridir. Bu o`zaro aloqalar maxorat bilan qo`llanilgan aqli majburlashga asoslangan. "Pedagogik yordam" atamasi pedagogik adabiyotlarda o`zining sinonimlariga ega, Bular; "**psixologik-pedagogik kuzatish, pedagogik o`zaro aloqalar, individual yordam**".

Psixologik-pedagogik kuzatish. M.R.Bityanov, I.V.Dubrovin, YA.I.Rogov va boshqalarning psixologik — pedagogik kuzatish tarbiyalanuvchi bilan birga, uning yonida xarakat qilish, ba`zan, bir oz oldinda harakatlanishni ifoda etuvchi pedagogik yordamning bir turi tushuniladi.

Tarbiyalovchining vazifasiga quyidagilar kiradi: o`z tarbiyalanuvchisini diqqat bilan kuzatishi va quloq solishi, uning istaklari va talablarini o`rganishi, yutuqlarini va yuzaga keladigan qiyinchiliklarini qayd etishi, maslaxat bilan yordam berish va tevarak — atrofga namuna bo`lib yo`l ko`rsatishi kabilarni aytib o`tishi mumkin.

Pedagog uchun tarbiyalanuvchisini nazorat qilmaslik, unga o`zining yo`nalishlari va yo`lini majburlamaslikka intilish muxim xisoblanadi. Pedagogik kuzatib borish shaxsning mavjud, yoki mumkin bo`lgan muammolarini aniqlash va taxlil qilish bo`yicha tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchining o`zaro munosabatlari usuli xisoblanadi.

Pedagogik kuzatish jarayonida yuzaga kelgan muammoni xal etish mumkin bo`lgan yo`lini birgalikda loyixalashtirib, amalga oshirilishi kerak. Pedagog pedagogik kuzatishni tashkil etishida kattalar va tarbiyalanuvchi o`rtasida ochiq, bir —biriga ishonish, sheriklik, o`zaro munosabatlarining tashabbuskori bo`lishi kerak. SHu kabi pedagog pedagogik kuzatishda maxoratli inson bo`lib ishtirok etadi. U shakllanayotgan shaxsga refleksiyaga qobiliyatini rivojlantirishga o`z xarakatlari uchun javobgarlikni his etishiga yordam beradi. Pedagogik kuzatish shaxslararo o`zaro munosabatlar vaziyatlarida har bir shaxsning muvaffaqiyatli o`qishi va rivojlanishi uchun pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarni yaratishga yo`naltirilgan.

Bu ishtirokchilar o`rtasida turli xil ta`sir ko`rsatishlar almashish bir — biriga bog`liq jarayondir.

Psixologik — pedagogik tadqiqotlar mualliflari tomonidan pedagogik ta`sir ko`rsatishni tashkil etish va amalga oshirishga talablar ishlab chiqilgan.

Bu talablarga quyidagilar kiradi:

- talabalar va pedagogning o`zaro munosabatlarida dialoglilik;
- o`zaro aloqalarning faoliyatli — ijodiy xususiyatlilik;
- shaxsning individual rivojlanishini qo`llashga qaratilgan;
- shaxsga mustaqil qaror qabul qilishi, bilim olish va xulqi mazmuni xamda usullarini ijodiy tanlashi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish.

Pedagogik o`zaro aloqalarni tashkil etishda pedagog bir qator shartlarga amal qilishi kerak. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi:

- tarbiyalanuvchining insoniy madaniyat dunyosiga qo`shilish istagini doimiy ta`minlab turish;
- har bir shaxsga mustaqilligani namoyon etish yangi tajribalarni egallashi uchun sharoitlar yaratib berish;
- tarbiyalanuvchining faolligini qo`llab turish uchun kommunikativ sharoitlar yaratish;
- turli aloqalar tizimida to`tri o`zaro munosabatlarni ragbatlantirish: "jamiyat — gurux —shaxs", " davlat — tarbiya institutlari — shaxs", "jamoa —mikrogurux —shaxs" "pedagog —tarbiyalanuvchi", "shaxs—shaxslar guruxi", shaxs — shaxs;
- shaxsning men — kontseptsiyasini tashkil topishiga yordam berish;
- xayot faoliyatining turli soxalarida birgalikda maxsuldar munosabatlarni rag`batlantirish.

Bu jarayon tarbiyalanuvchiga tarbiyachi tomonidan o`ylab chiqilgan va anglab etilgan zarur sharoitlarni yaratib berishni ko`zda tutadi. Bunday sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o`z ehtiyojini qondirish va boshqa odamlar ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bilim, ko`rsatma va ko`nikmalar;
- o`zining qadriyatlarini, ko`rsatma va malakalarini anglab etish;
- o`zini anglashni, o`zini mavqeini belgilash, o`zini amalga oshirish va o`zini tashkil etishni rivojlantirish;
- o`zini va boshqalarni tushunishni, ijtimoiy muammolarga ta`sirchanlikni rivojlantirish;guruxga va jamiyatga aloqadorligi xissini rivojlantirish,

Shunday qilib, pedagogik yordam ko`rsatish o`qituvchining kasbiy faoliyati boshlang`ich qoidalari sifatida qaraladi.O`qituvchining ishlash tizimi. O`qituvchining ishlash tizimi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo`llashga asoslanadi.

Ayrim mualliflar o`qitish texnologiyalariga fan va san`at oralig`idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyixalash bilan bog`laydilar,

Shunday qilib, bir yondashuvda o`qitish texnologiyalari, o`qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jixozlash sifatida xam belgilanadi. Unda texnologiya o`quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi. Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta`lim amaliyotini yangi yoki zamonayiylashtirilgan bilimlar bilan ta`minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta`limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tadbiq etish sifatida qaraladi.

L.N.Sedov, E.V.Rod'nina, B.Kapichnikovalar tadqiqotlarida yangi pedagogik texnologiyalar deganda talabaning o`zini rivojlantirish jaryoayonini rag`batlantirish maqsadida uning shakllanuvchi shaxsiga yo`naltirilgan innovatsion pedagogik faoliyatning loyixasi tushuniladi.

Psixologik — pedagogik va sotsiologik adabiyotlarni taxlil qilish innovatsion pedagogik texnologiyalarga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- shaxsning atrof — muhitga ijtimoiy — qadriyatli munosabatlarini;
- shaxsning xususiyatlarini xisobga olish;
- pedagog va tarbiyalanuvchining o`zaro munosabatlari;
- shaxsning o`zini tarbiyalash va o`zini rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirish.

Pedagogik texnologiyalarning ko`rsatkichlariga mualliflar quyidagilarni kiritadilar:

- o`qituvchi va o`kuvchining pedagogik munosabatlari xususiyatlari;
- pedagogik talablarni qaytish uslublari;
- pedagogik nizolarni bartaraf etish uslublari;
- informatsion ta`sir ko`rsatishni amalga oshirish; o`kuvchining xulqiga pedagogik javob qaytarish. G.K.Selevkoning tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni turkumlari berilgan: 1.Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar

(shaxsiy munosabatlarning ustunligi, individual yondoshish, demokratik boshqarish, mazmunning yorkin insonparvarlik yo`nalishi).

2.O`quvchilar faoliyatlarini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiya (o`yin texnologiyalari, muammoli o`qitish, tayanch signallari, kommunikativ o`qitish).

3.O`qitish jarayonini tashkil etish va boshqarishni samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiya (dasturlashtirilgan o`qitish, differentsatsiyalashtirilgan o`qitish texnologiyasi, individual o`qitish, istiqbolli o`zib ketish o`qitishi, o`qitishning guruxli va jamoali texnologiyasi, axborot texnologiyalari).

4.O`quv materialini metodik takomillapggirish va didaktik qayta qurish asosidagi pedagogik texnologiyalar (aqliy xarakatlarini bosqichma —bosqich shakllantirish texnologiyasi, didaktik birliklar va boshqalarni mustaxkamlash texnologiyasi).

5. Xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiya

b.Muqobil texnologiya

7.Kompleks politexnologiyalar.

Ilmiy adabiyotlarda "pedagogik texnologiya" uchta jixati to`g`risida fikr yuritiladi: ilmiy, tavsifiy, amaliy.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy jixati o`qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlarini ilmiy asoslashdan iborat va pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishdan iborat.

Tavsifiy jihatni o`qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari va ko`zlangan natijalarga erishish vositalari to`plamini tashkil etuvchi jarayonning algoritmi ishlab chiqiladi.

Amaliy jixati pedagogik texnologiya jarayonni amalga oshirishni o`z ichiga oladi. Olimlar tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarning quyidagi darajalarini ko`rsatadilar:

Umumpedagogik darjası: umumpedagogik (umumdidaktik, utmumtarbiyaviy) texnologiya — ushbu region, o`quv muassasasi, o`kitishga ma`lum bosqichidagi yaxlit ta`lim jarayonini ifoda etadi.

Xususiy metodik darajasi — xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o`quv — tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo`ladi.

Modulli (lokal) darajasi - o`quv ~ tarbiyaviy jarayonning maxsus bo`limlari texnologiyasi, xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni bajarish texnologiyasi. Pedagogika fanida o`qitish texnologiyalari bilan bir qatorda ta`lim texnologiyalari xam mavjud. Olimlar ta`lim texnologiyalari mazmuni — axborot aspektini bildirsa, o`qitish texnologiyasi — jarayonga aloqador deb hisoblaydilar. Bu tushunchalar orasida hali aniq farqlash mavjud emas. Pedagogik texnologiyalarning asosiy mezonlari ularning talabalarning tayyorgarlik darajasiga, axborotlar bilan tanishganliklari va amaliy tayyorgarliklari hisoblanadi, Pedagogik texnologiya o`qituvchiniyang faoliyati va talabalar faoliyati bilan ifodalanadi. Faoliyatning ana shu turlari xususiyatlaridan kelib chiqib pedagogik texnologiyalarning tuzilishi belgilanadi.

Pedagogik texnologiyalar tuzilishiga kuyidagilar kiradi: kontseptual asosi, ta`lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayon. Har bir pedagogik texnologiya ma`lum ilmiy kontseptsiyaga asoslanadi. Pedagogik texnologiyaning ilmiy kontseptsiyasi ta`lim maqsadlariga erishishni falsafiy, psixologik, ijtimoiy — pedagogik va didaktik asrlanishidan iborat. O`quv jarayonining mazmuni ta`lim jarayoni umumiylar va aniq maqsadlaridan hamda o`quv materiali mazmunidan iborat.

Texnologik jarayon o`quv jarayonini tashkil etishni, o`qituvchi faoliyati, talaba faoliyatini, o`quv jarayonini boshqarish usullari, o`quv jarayonini diagnostika qilishni o`z ichiga oladi. Olimlar har qanday pedagogik texnologiya javob berishi kerak bo`lgan mezonlarni ajratib ko`rsatadi. Pedagogik texnologiya ilmiy kontseptsiyaga tayanishi kerak. Tizimlilik pedagogik texnologiyaning mezon sifatida jarayonning mantiqini, pedagogik texnologiyaning hamma qismlarining o`zaro bog`liqligidan, yaxlitligidan iborat bo`ladi. Uning mezoni boshqaruvchanlik xisoblanadi. Boshqaruvchanlik o`quv jarayonini diagnostika

qilishdir. Uni rejalashtirish, va amalga oshirishni loyihalashtirish o`qitishning turli vositalari va metodlaridan foydalanishni o`z ichiga oladi.

Samaralilik pedagogik texnologiyaning mezoni sifatida ta`lim jarayonini tashkil qilish aniq sharoitlarida yaxshi natijalarga erishishni ko`zda tutadi. Pedagogik texnologiyalarning mezonlaridan biri qayta takrorlash bo`lishi kerak. Qayta takrorlanish pedagogik texnologiyalarni boshqa o`quv muassasalarida qo`llanilishi mumkinligini ko`zda tutadi.

Shunday qilib, innovatsion jarayonlarning pedagogika asoslarini, ularning vazifalarini, rivojlanish qonuniyatlarini, mexanizmi va ularni amalga oshirish texnologiyalarini taxlil qilish o`quv jarayonini dunyo standartlari darajasida va pedagogik — psixologik fanlarning yutuqlarini xisobga olib tashkil etish imkonini beradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Innovatsion pedagogik faoliyatning ilmiy - nazariy asoslariga nimalar kiradi?
2. Ilmiy terminologiyalarda ta`limda o`zgartirish deganda nimani tushunasiz?
3. Transfera jarayoniga izoh bering.
4. "Pedagogik innovatsiya" tushunchasiga izoh bering.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Talabalarning o`qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`lim jarayoni loyihasini tuzish deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
2. Talabaning bilim o`zlashtirish sifatini ob`ektiv baholash deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.
3. Bilim o`zlashtirish jarayonida yo`l qo`yilgan xatolarni aniqlab, kuzatib borish degan firning ma`nosini izohlab bering.
4. Pedagogik praksiologiya tushunchasini izohlab bering.

5. Ta`lim berish jarayoni doirasiga o`zgarishlar kiritish lozimligini ba`zi olimlar qanday ko`rsatib berishgan? Izohlab bering.

TESTLAR

1. O`qituvchining innovatsion faoliyati qaysi masalalarini echishga qaratilgan?

- *A) Voqelikni o`zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgan;
- B) SHaxsiy ijodiy-motivatsion yo`nalganlikni aniqlashga qaratilgan;
- C) Kasbiy faoliyatni baholashga qaratilgan;
- D) Innovatsion faoliyatga bo`lgan zaruriyatni anglashga qaratilgan.

2. Shaxsga yo`naltirilgan ta`limning asosiy tamoyilini ko`rsating?

- A) Ta`lim markaziga o`qituvchi qo`yiladi;
- *B) Ta`lim markaziga o`quvchi (talaba) qo`yiladi;
- C) Ta`lim markaziga pedagogik jamoa qo`yiladi;
- D) O`quv yurtining moddiy texnik ta`minoti xisobga olinadi.

3. Og`zaki ta`lim metodlari qaysi javobda ko`rsatilgan?

- A) Hikoya, suhbat, mashq;
- B) Ma`ruza, trening, suhbat;
- *C) Hikoya, suhbat, ma`ruza;
- D) Ma`ruza, seminar, laboratoriya ishi.

4. Interfaol ma`nosini anglatadi. Nuqtalar o`rnida qoldirilgan so`zni toping.

- A) Kichik guruhlarga ajratish;
- B) Guruhlarda ta`lim olish;
- *C) Ta`lim olish uchun o`zaro xarakat qilish;
- D) Bahslashish.

5. Oliy ta`lim innovatsion siyosatining asosiy tamoyillaridan biri.

- *A) Ilmiy va ta`limiy jarayonlarning birligi, jamiyat ravnaqiga yo`naltirilganligi;
- B) Oliy ta`lim sifatini ta`minlash;
- C) Oliy ta`limning iqtisodiy ravnaqini ta`minlash;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

6. Ta`limda ilm orqali bilim olish deganda nimani tushunasiz?

- A) Bitiruv malakaviy ish tayyorlash natijasi;
- B) Kurs ishlarini bajarish natijasi;
- *C) Ta`lim oluvchining ilmiy metodlarga asoslanib bilim olishi;
- D) Dars jarayonida ta`lim va tarbiyani birligiga erishishi.

7. Muammoli o`qitish texnologiyasi bosqichlarini belgilang?

- A) A) Muammoli vaziyat, o`quv muammosi, o`quv muammosini echish uchun izlanish, muammoning echilishi;
- B) O`quv muammosi, o`quv muammosini echish, muammoning echilishi;
- *C) Muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli vazifa, muammo echimi;
- D) Muammoli holat, o`quv muammosi, muammoning echilishi.

8. Kichik guruhlarda o`qitish metodining o`ziga xos xususiyatlarini

- *A) O`qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi, so`ngra o`quvchilarining kichik guruhlardagi mustaqil ishlari tashkil etadi;
- B) O`quv materialini o`rganish guruh o`rtasida fikr almashish orqali amalga oshiriladi;
- C) O`quv materiali qismlarga ajratilib, tabaqlashgan holda o`qitiladi;
- D) 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etilib, o`quv materialining ma`lum qismi mustaqil o`zlashtiriladi;

9. Testni ishonarlilagini ta`minlovchi omil qaysi javobda ko`rsatilgan?

- *A) Test savoliga berilgan javoblar soniga;
- B) Topshiriqlarni turli xil mazmunda bo`lishiga;
- C) Testlarning umumiy soni;
- D) Topshiriqlarni oson yoki qiyinligiga;

10. Elektron darslik nima?

- A) bu muayyan texnologik jarayonni bajarishga karatilgan xamda o`zida aqliy va jismoniy harakatiga oid bilimlar majmuasini mujassamlashtirgan elektron o`quv resurslari;
- B) Metodik qo`llanma;
- C) Komp'yuter texnologiyalariga asoslangan muayyan kasb doirasida ma`lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko`nikmalar va malakalar majmuasi.
- *D) Komp'yuter texnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llashga, mustaqil ta`lim olishga, hamda fanga oid o`quv materiallari to`g`risidagi ma`lumotlarni samaradorli o`zlashtirilishiga mo`ljallangan vosita;

Foydalilanilgan adabiyotlar

10. Avliyakulov N.H. Zamonaviy o`qtish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T:
2001. – 68 b.
11. Avliyakulov N.X. Prakticheskie osnovy modul'noy sistemy obucheniya i
pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.

12. Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
13. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
14. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
15. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
16. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
17. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
18. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru
[www.ise.Iip.Net.](http://www.ise.Iip.Net)

1.3.PEDAGOGIK JARAYONDA O`QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI.



O`quv maqsadi

Pedagogik jarayonda o`qituvchining innovatsion faoliyati haqida nazariy bilimlar berish

*O`rnak ko`rsatish va`z –
nasihatgaqaraganda har
doim kuchliroq ta`sir etadi.*

S. Jonson

Tayanch iboralar: mavjud ijtimoiy sharoitlar pedagogik faoliyatni yangilashni talab etdi. Innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy vazifasi an`anaviy o`qitishni o`zgartirishdan iborat.

Zamonaviy innovatsion o`qitish talaba shaxsini jamiyatda tez sodir bo`layotgan o`zgarishlarga tayyorligini, yaratishga, ijodkorlikka, fikrlashning turli xildagi shakllariga qobiliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan. Innovatsion faoliyat inson xayoti doirasida muntazam o`zgarishlar kirituvchi maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat bo`lib qolishi kerak. Innovatsiya o`zining moxiyati bo`yicha progressiv va regressiv xususiyatga ega bo`lishi mumkin.

Innovatsion pedagogik faoliyatda qadriyatlilik mazmuni muximdir. Innovatsiya ob`ektlari ta`limning hamma komponentlari xisoblanadi: ta`lim maqsadlari, ta`lim mazmuni, o`quv jarayonining tashkiliy shakllari, o`qitish metodlari va o`quv jarayonini boshqarish shakli va boshqalar.

Innovatsion pedagogik faoliyatning muxim sharti, predmetga yo`naltirilgan o`quv faoliyatini shaxsga yo`naltirilgan o`quv faoliyatiga aylantirilayotgan sharoitlarda bo`lajak o`qituvchini tayyorlash modelini ishlab chiqish xisoblanadi.

Model (Modele, lotincha o modulus —o`lchov, namuna) innovatsion pedagogik faoliyat modeli tushunchasi asosi qilib o`qituvchining faoliyati jarayonining sxemasini tushunishini oldik.

Ushbu muammo bo`yicha adabiyotlarni o`rganish ko`pchilik olimlar bo`lajak mutaxassislarni tayyorlash modeli deganda mutaxassislarning modelini va uning faoliyatini, yoki tayyorlash modelini tushunishlarini ko`rsatadi.

Tadqiqotchi I.N.Sigov mutaxassis modelini xalq xo`jaligi tizimi ob`ektiv talablarini tasvirlashni o`z ichiga oluvchi mutaxassis obrazi sifatida talqin qilish kerak deb hisoblaydi. V.R.Okazov, K.P.Seleznevlar esa, mutaxassis modelini me`yor, uning malakasiga ijtimoiy zarur bo`lgan talablar etaloni sifatida qarash kerak deb xisoblaydilar: mutaxassis nima qilishi kerak? Nimalarni bilishi, nimalar

xaqida aniq tasavvurga ega bo`lishi, nimalar bilan tanish bo`lishi kabi, qo`shimcha talablar ma`naviy, siyosiy, estetik, emotsiyal, irodaviy talablarga amal kilish kerak. E.E.Smirnov "Mutaxassis modelini" ushbu kasbda mavjud bo`lgan sharoitlar bilan ifodalanadigan uning faoliyat analogi deb xisoblaydi. Ushbu muammo bo`yicha tadqiqotlarni o`rganib chiqish mualliflar modelga o`quv faoliyatlarni va dasturlarni, tarbiyaviy xususiyatlarni turli chora — tadbirlarni, kerakli tayyorgarlikni ta`minlovchi ishlab chiqarish soxasi bilan aloqalar shaklini kiritadilar degan xulosaga kelishga imkon beradilar.

Tadqiqotchi Yu.A.Lavrinov o`quv dasturlari va rejalaridan tashqari bu tushunchaga o`quv jarayonini boshqaruvchi turli xujjatlarni ham kiritadi.

Yu.A.Lavrinovning ishlarida modelni qurishda quyidagilarni ko`zda tutishni ko`rsatadi:

- a) mutaxassisning funktsional moxiyatlarini; b) uning soxasi kengligini B) kasbiy xususiyatlarini;
- g) bu faoliyatning yaqin kelajagi va uzoq kelajagi rivojlanishining ekspert baholash va prognoz qilishini;
- d) fanlar hajmi va nisbatlarini xisobga olish bilan ularni sxemasini.

A.T.Rastupov, model — bu empirik belgili tuzilish deb ta`kidlaydi. Bu modellarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi mutaxassis faoliyatiga tor proqmatik yondoshishdan iboratdir. Ular odatda, shaxsning rivojlanishini, xususiyatlarini, uning extiyoylari va talablarini, qobiliyat, imkoniyatlarini e`tiborga olmaydilar.

Shaxsga yo`naltirilgan model mutaxassisning kasbiy muxim shaxsiy sifatlarini va mutaxassisning kasbiy yo`nalganligini o`z ichiga olishi zarur. Mutaxassis modellarini o`rganish tadqiqotlariga tayanib biz bo`lajak o`qituvchilarni innovatsion faoliyati modeli nazariy va amaliy asoslarini aniqladik. Bo`lajak o`qituvchi innovatsion faoliyati modelini qurishda shaxsiy faoliyatli yondashish kontseptsiyasiga tayandik. Shaxsga yo`naltirilgan o`qitish kontseptsiyasi nazariy asoslari ta`lim jarayoni rivojlantiruvchi vazifalarini amalga

oshirish tabiatini va sharoitlariga bo`lajak o`qituvchini tayyorlash maqsadli, mazmunli va protsessual xarakteristikalarini aniqlashga tayanildi.

Shaxsga yo`naltirilgan yondashishda quyidagi xususiyatlarni ajratib oldik:

- 1)pedagogik innovatsiyalarning maqsadlari — pedagogik jarayonning hamma sub`ektlarini shaxsiy rivojlantirish. Innovatsion jarayonda pedagogning tutgan o`rni o`zgarishi kerak. O`qituvchi bilimlarini etkazib beruvchi emas, balki talaba shaxsining tashkil topishi va rivojlanishida yordamchi sifatida ishtirok etadi.
- 2)o`quv jarayonini tashkil etish xarakteri. O`zlashtirish jarayoni eskicha yodlab olish xususiyatlariny yo`qotib, o`quv jarayoni sub`ektlarining o`zaro aloqalari va fikrlash faoliyatları turli shakllarida sodir bo`ladi.
- 3)mustaqil o`rganish faoliyatini baholash.
- 4)yangi pedagogik tajribalarini o`zlashtirish.
- 5)ta`limning o`zgarayotgan mazmuni va maqsadlarini mos ravishda bilimlarni, malaka va ko`nikmalarni egallash bo`yicha maxsus ishlar.

Faoliyatli yondoshishning o`ziga xosligi, xususan, innovations faoliyatining qarama—qarshiliklari va qonuniylari xisoblanadi. Innovatsion pedagogik faoliyatni o`rganuvchi M.M.Potashnik, N.R.YUsufbekova, D.I.Lalin kabi tadqiqotchilar pedagogik innovatsiyalarning hayotiy qismlarini" ajratib ko`rsatadilar.

Birinchi bosqichda innovatsiya amaliy faoliyatini shakli, g`oyasi, fikri, yoki namunasini anglab yetish, qabul qilish, yoki qabul qilmaslik darajasida yuzaga keladi. Novatorlar bu bosqichda eskini yangi sifatida qayta tyklashga xarakat qiladilar. Shuni aytish kerakki, innovatsiya eskisini takrorlash hisoblanmaydi. Anglab yetish darajasida amalga oshiriladigan innovatsiyalar eskisini qaytarish emas, balki eski yechimlar mazmuni qismlarini hozirgi zamon pedagogik muammolarini hal etishda ma`lum darajada takrorlash hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalarni o`zlashtirish bosqichida yangi pedagogik bilimlar va pedagogik faoliyatga talablarning kuchayishi tendentsiyasiga xos hisoblanadi.

Odatda pedagogik jamoada innovatsiyalarning ahamiyati va unga baho berish bo`yicha fikrlar bo`linishi sodir bo`ladi. Bu bosqichda innovatsiyalarga qadriyatli me`yoriy ko`rsatmalar ishlab chiqish zarur.

Ishlab chiqilgan innovatsion faoliyat modelida shaxsiy — faoliyatli va tizimli yondoshishlarga tayanildi. Bunday modelning markaziy zvenosi kasbiy o`zini anglash madaniyatini, ijodiy refleksiv faoliyatni o`z ichiga oluvchi kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish jarayoni hisoblanadi,

Innovatsion faoliyat modelida maqsadga intilish va ijodiy refleksiv faoliyat ajratib ko`rsatiladi. Innovatsion faoliyatning umumiyligi maqsadi va uning kasbiy tayyorlashning turli bosqichlari, maqsadlari ko`rsatiladi. Innovatsion faoliyatning maqsadi individual — variativ jihatlarini birlashishidan iborat bo`ladi va jamiyat, pedagog hamda talabaning hamkorlikda ijodkorligidan iborat bo`ladi.

Innovatsion faoliyat modelida refleksiv jarayonlarga alohida o`rin ajratiladi. Innovatsion faoliyat vaziyatlarni, shaxsiy harakatlarini, boshqalar harakatlarini doimiy refleksiv tahlil qilishni talab etadi.

Refleksiv jarayonlar — bu novatorning hayolida talabaning ichki dunyosini aks ettirish, uning intilishlarini, fikrlari, sezgilarini tushunishdir.

Refleksiv jarayonlar — bu o`zining bilimlarini, amaliy tajribasini doimiy qayta ko`rib chiqish; o`ziga, o`zining kasbdoshlari tajribalariga tanqidiy munosabatdir; tevarak — atrofning yangi mazmunlarini va qadriyatlarini yaratishdir.

O`qituvchi — novatorning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish innovatsion jarayonga talabaning o`zini yanada tabiiy ishtirok etishi, uning shaxsiga e`tibor berish imkoniyatini beradi.

Innovatsion tayyorlash masalalari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasiga erishish.
- pedagog — novatorning kasbiy bilimdonligini shakllantirish.
- kasbiy, o`zini mavqeini anglash va ijodiy refleksiv faoliyati madaniyatini rivojlantirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida ma`lum qarama — qarshiliklarni yo`qotish jarayoni zarurdir.

Bu qarama — qarshiliklar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy — tarixiy haqiqatning sifati o`zgarishi va tarbiya, o`qitish, qayta tarbiyalash, o`zini tarbiyalash kabi pedagogik jarayonlarga an`anaviy yondoshishlarning o`rtasidagi;
- o`qituvchilarni kasbiy tayyorlashga odatiy bo`lib qolgan yondashish va o`qituvchining shaxsi xamda innovatsion faoliyati maqsadga muvofiqligini falsafiy tushunish o`rtasidagi;
- professiogramma asosida o`qituvchini bosqichma — bosqich, elementma — element shakllantirish va pedagogning shaxsi tizimli rivojlanishini tushunish bilan butun tuzilmaning dinamikasi o`rtasida;
- yangi turda fikrlovchi o`qituvchiga ijtimoiy talab bilan o`qituvchini tayyorlashda faoliyatning amaliy sharti ortib borishi o`rtasidagi;
- pedagogik faoliyatda o`qituvchining ijodkorlik yo`nalishini talab etilishi bilan uniig tayyorlov ob`ekti sifatida uniyag xaqiqiy pozitsiyasi o`rtasida;
- pedagogning innovatsion kasbiy xarakatlarini va bo`lajak o`qituvchida o`zining faoliyati xaqida tasavvurlari yetishmasligi.

Innovatsion faoliyat modelining tarkibiy qismlaridan biri uning kasbiy malakasi xisoblanadi. Bo`lajak o`qituvchining kasbiy — pedagogik malakasi shaxsi integral xarakteristikasi xisoblanadi. U insonga jamiyatda qabul qilingan qoidalar standartlarga binoan pedagogik vazifalarini kasbiy bajarishga tayyorligi va qobiliyatini ko`rsatadi.

Kasbiy — pedagogik saloxiyati aniq —tarixiy xususiyatga ega bo`ladi. U dinamikdir, amaliy faoliyatsh davomida namoyon bo`ladi va baxolanadi. Kasbiy saloxiyati asoslari tayanch pedagogik ta`limni beradi uning darajasi esa o`qituvchining butun kasbiy faoliyati davomida muntazam oshib boradi.

Kasbiy — pedagogik saloxiyati pedagogning shaxsiy-insonparvarlik yo`nalishi bilan belgilanadi.

Mutaxassis pedagog fikrlashining aloxida usuli, dunyon boshqacha ko`rishi bilan ajralib turadi.

Bu qarashlar fikrlashning tizimli usuli, pedagogik hodisalarni va jarayonlarni turlarga ajratish malakasi bilan ifodalanadigan tizimli — yaxlitlikda qarash bo`lishi kerak,

Kasbiy salohiyatining bu tarkibiy qismi pedagogik xaqiqatni tizimli ko`rish va unda tizimli xarakat qilish malakasi xisoblanadi. Kasbiy saloxiyati keyingi tarkibiy qismi predmeti soxasini bilishi xisoblanadi.

Predmeti soxasini bilishi pedagog ish olib boradigan iredmet sohasining rivojlanish tendentsiyalarini tushunishi, axborotlarni yangilab borishni bilishi bilan bog`lik.

Pedagogik texnologiyalarni bilishi kasbiy saloxiyati tuzilishini tarkibiy qismi xisoblanadi. Bu texnologiyalar quyidagilardan iborat:

- kommunikatsiya madaniyatini ta`minlovchi texnologiyalar
- o`zining predmeti soxasidagi axborotlardan foydalanish texnologiyasi;
- o`quv axborotlarini etkazishni ta`minlovchi texnologiyalar.

(Integratsiya) Tajribalardan foydalanish qobiliyati kasbiy saloxiyati tarkibiy qismi xisoblanadi. Bu tarkibiy qismi individual tajribalarni shakllantirish va etkazish jarayonini osonlashtiradi.

U o`ylamasdan qabul qilishni, foydalanishni oldini oladi. Kasbiy saloxiyati kreativlik bilan bog`liq bo`ladi.

Kreativlik doimiy o`zgarib turadigan, ta`lim berish vaziyatlariga ijodiy moslashishga, qobiliyatlarini o`ziga xos ifoda etish. Bu o`z navbatida individual shaxsiy darajasida erkinlikdan foydalanishga tayyorligini ko`rsatadi.

Pedagogik saloxiyat tuzilmasida pedagogik refleksiyaga qobiliyat sog`lom tanqidiylikni ishlab chiqadi. Bu sifat bir xilda fikrlash va ishlash yuzaga kelishini oldini oladi.

O`qituvchining innovatsion faoliyatida kasbiy — pedagogik faolligi aloxida o`rin egallaydi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat modelining asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- shaxsiy — insonparvarlik yo`nalishi;
- tizimli fikrlash;
- nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun pedagogik bilimlarni otish va foydalanish qobiliyati;
- pedagogik faoliyat va pedagogik metodlar tuzilmasini egallash;
- pedagogik faoliyatda shaxsiy insonparvarlik yo`nalishining birlamchiligi;
- yangi sharoitlarda ishlashga tayyorgarlik;

O`qituvchining innovatsion faoliyati asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- o`qituvchining fikrashi va xulqini insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish;
- o`qituvchini ilmiy — pedagogik axborotlarni faol izlovchisi va foydalanuvchisi sifatida shakllantirish;
- tadqiqotchilik, tajriba —tekshirish ishlari asosida yangi pedagogik bilimlardan foydalanish.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Innovatsion pedagogik faoliyatning turlariga izoh bering.
2. G.K.Selevkoning tadqiqotlari haqida nima deya olasiz?
3. O`qituvchining innovatsion faoliyatiga izoh bering.
4. Innovatsion faoliyat modelining asosiy bosqichlari nimadan iborat?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. V.S.Lorensov, M.M.Potishnik, O.T.Xomerlarning innovatsion pedagogik faoliyatga doir tasniflari qaysi ko`rsatkichlarni o`z ichiga oladi? Izohlab bering.
2. Innovatsion faoliyatga metodologik yondashish deganda nimani tushunasiz? Uning ko`rsatkichlariga nimalar kiradi? Izohlab bering.

3. Pedagogik ta`sir ko`rsatishni tashkil etish va amalga oshirish talablarini izohlab bering.
4. O`qituvchining kasbiy faoliyatiga tavsif berng.
5. Metodik daraja tushunchasini izohlab bering.

TESTLAR

1. Pedagogik innovatsiya.

- A) Bu pedagogik tizimni tamomila o`zgartirishga yo`naltirilgan yangiliklar;
- B) O`quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangicha maqsad;
- C) Pedagogik tizimning ba`zi elementlarini yuqori samara beradigan yangiliklar bilan almashtirish;
- *D) Bu yangilik kiritishni anglatib, u pedagogik tizimning ichki resurslarini ishga solgan holda samarali natijaga olib keluvchi yangiliklar.

2. Ta`limning shaxsga yo`naltirilganligi asosan qanday metod va yondashuvlar bilan bog`liq?

- A) O`qituvchining ilmiy metodik saviyasiga bog`liq;
- B) Ta`lim oluvchining tarbiyalanganligi, pedagogik tizimning ba`zi elementlarini yuqori samara beradigan yangiliklar bilan almashtirishga bog`liq;
- *C) Ta`limda hamkorlikda ta`lim olish, loyihalash metodi, differentsiyal va individual yondashuvlarni amalga oshirish bilan bog`liq;
- D) Ta`lim oluvchining oilaviy muxitiga bog`liq.

3. Ta`limda texnologik yondashuvni asosiy yutug`i.

- A) Ta`lim jarayonida texnika vositalaridan foydalaniladi;
- B) Ta`lim jarayonida ko`rgazmalilikka asoslanadi;
- C) Ta`limda komp`yuterdan unumli foydalaniladi;
- *D) Differentsiyal va individual yondashuvni ta`minlaydi.

4. Jamoaviy ijodiy ishni tayyorlash metodikasi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) O`tkaziladigan tadbirni reja asosida tayyorlash va o`tkazish;
- *B) O`quvchi-talabalar bilan birgalikda tanlab olish rejasini hamkorlikda tuzish, reja asosida kichik ijodiy guruhlarga bo`linish va topshiriqlar olish, tadbirni tayyorlash, tadbirni o`tkazish, o`tkazilgan tadbirni tahlil qilish, yakun yasash;
- C) Tadbirni qiziqarli va ta`sirchan etib tayyorlash, hamkorlik pedagogikasi printsiplari asosida tayyorlash va o`tkazish, tahlil qilish;
- D) Tadbirni reja asosida belgilangan vaqtida o`tkazish, o`quvchi- talabalarga topshirilar berish, tomoshabinlar fikri bilan qiziqish, hamkorlikda ta`lim olish, loyihalash metodi, differentsiyal va individual yondashuvlarni amalga oshirish.

5. O`qituvchining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishga tegishli bo`lgan yondashuvlarni aniqlang.

- A) Tashkilotchilik, ilmiy, namunali;
- B) Konstruktiv, kommunikativik, gnoseologik;
- *C) Akmeologik, kreativ, refleksiv;
- D) Mas`uliyatli, samimiy, talabchanlik

6. Darsga qo`yiladigan tarbiyaviy talabni aniqlang?

- A) dars to`zilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;
- B) murakkablashib boruvchi mashqlar yig`indisini ishlab chiqish;
- *C) tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- D) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashqil etish;

7. Berilgan variantlardan rivojlantiruvchi talabni aniqlang?

- A) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashqil etish;
- B) o`quv mashg`ulotlarini odimlash darajasida o`tkazish;
- C) har bir darsning ta`limiy vazifasini aniq belgilab olish;
- *D) dars to`zilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish.

8. Javoblarning qaysi birida o`qituvchining rahbar sifatida jamoani boshqarish yo`llari ko`rsatilgan?

- *A) Avtoritar, demokratik, liberal`;
- B) YOqtirish-yoqtirmaslik, do`stlik o`zaro hurmat, salbiy munosabat;
- C) Xabar berish, ma`lumot olish, xikoya qilish, suhbat o`tkazish;
- D) mavqeiga ko`pa, o`zaro hamkorlikka asoslangan, murosasozlikka asoslangan, barchaning teng kuchli boshqaruviga asoslangan.

9. Yosh o`qituvchi o`zining ish faoliyatida qanday psixologik muammolarga duch keladi?

- A) Do`stlik, hamjihat bo`lib ishlash, xizmatdagi mutanosiblik;
- B) YOlg`on xushomad qilish, kasbga bo`lgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoqtirmaslik;
- *C) Ijtimoiy munosabat, guruhdan qo`rqish, talaba va o`qituvchi o`rtasida ziddiyatning hosil bo`lishi;
- D) Mensimaslik, buyruq, ayplash, kesatiq;

10. Ta`limda proektsion uskunalar va slaydlarni qo`llash qaysi didaktik tamoyilda o`z ifodasini topgan?

- A) Ta`lim va tarbiyaning birligi;
- B) Nazariya va amaliyotning birligi;
- C) Onglilik va faollik;
- *D) Ko`rgazmalilik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyakulov N.H. Zamonaviy o`qtish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakulov N.X. Prakticheskie osnovy modul`noy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizzxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyat. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
- 8.Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

www.ise.Iip.Net.

II – MODUL. O`QITISH JARAYONINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

MODULNING UMUMIY MAQSADI: ta`limda texnologik yondashuvning mohiyat mazmunini aniqlash, ta`limda didaktik maqsadni belgilash, o`qitishga bo`lgan yondashuvlarning qiyosiy tasniflari, talabalarda fanga oid dastlabki ko`nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- ta`limiy maqsad: *talabalarga pedagogic texnologiyai va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;*
- tarbiyaviy maqsad: *talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;*
- rivojlantiruvchi maqsad: *talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.*

2.1. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI O`QITISHNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI



O'quv maqsadi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o`qitishni tashkil etish shakllari haqida nazariy bilimlar berish

*Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.
Oqillar nazdida gar o`ltirish odobdir,
Maslahat tashlaganda so`zga
ko`rsatgil himmat.
Ikki narsa aqlga sig`maydi gar bilsang,
So`zlash payti sukutu keraksiz joyda
suhbat.
Sa`diy Sheroziy*

Tayanch tushunchalari va iboralari: ta`lim jarayoni, ta`lim mazmuni, an`anaviy yondashuv, tadkikiy-ijodiy yondashuv, texnologik yondashuv, ta`lim – tarbiya jarayoni tizimi, tizimli yondashuv, aksiomatik yondashuv, modulli – muammoli yondashuv, ta`lim markazida talaba, hamkorlikda o`rganish modeli, o`rganishning tadqiqot modeli.

Ijtimoiy –siyosiy va madaniy taraqqiyotning barcha bosqichlarida jamiyat kuchli intelektual, qobiliyatli va yuksak ma`naviy salohiyatga ega bo`lgan insonlarga, ishchi-xodimlarga ehtiyoj sezgan hamda shaxslarni tarbiyalashga erishishning yagona ta`lim-tarbiyani rivojlantirishdan iborat ekanligiga ishonch hosil qilgan.

Xuquqiy demokratik davlat vaadolatli fuqarolik jamiyatni qurish yo`lidan izchil borayotgan mamlakatimiz ham, bunday jamiyatni qurish uchun, avvalo, ishni ta`lim tizimini isloh qilishdan boshlangani beziz emas. Buning tasdigi sifatida “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturining” qabul qilinishi bo`ldi.

Ma`lumki, ta`lim jarayonida talabalar ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar, egallangan bilimlarni amalda qo`llash ko`nikma va malakasiga ega bo`ladilar. Shu jarayonda bilim oluvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi, mustaqil o`qish, bilim orttirish bo`yicha faollik ta`minlanadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun qator ta`lim metodlari mavjud. Ular jumlasiga, muammoli bayon qilish, rolli o`yinlar, amaliy o`yin va mashqlar va hokazolar kiradi. Biroq ular hamma davrda ham ilg`or bo`la olmaydi. Bu ijtimoiy siyosiy taraqqiyot ko`rsatgichlari bilan belgilanadi. Ilmiy texnikaviy rivojlanish har bir davr uchun taraqqiyotning takomillashuviga yordam bera oladigan, aniqroq qilib aytadigan bo`lsak mazkur taraqqiyotning yangi cho`qqilarini egallahiga ko`mak bera oladigan, ta`limni harakatlantiradigan metodlar, yondoshishlar lozimligini taqozo qiladi.

XXI asr aql-zakovat, texnik taraqqiyot asri bo`ladi. Shunga asosan, ta`lim-tarbiya jarayoniga yangicha, texnologik yondoshish ehtiyojining tug`ilishi tabiiy holdir.

Bunday yondoshishning asl mohiyati, mazmuni, maqsadini anglash uchun bir-biridan keskin farq qiluvchi, ammo amaliyotga keng qo'llanilayotgan yondashuvlar ustida to`xtalamiz. Bular an`anaviy, ijodiy – tadqiqiy, texnologik, aksiomatik, muammoli-modulli yondashuvlardir. Bunday ta`lim turlaridan foydalanish, ularni amalda qo'llash o`z navbatida o`qituvchidan yuksak professionalizmni, ijodkorlikni talab etadi. Ammo, texnologik yondashuv o`qituvchida emas, o`qituvchidan ijodkorlikni, mustaqqil o`qish, mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Oqibat natijada fan-texnika taraqqiyotining o`ta rivojlanganligi davrida axborotlarning keskin ko`payishi va ularni mustaqil o`zlashtirish imkonini beradigan yondashuv – bu texnologik yondashuvdir.

Ta`limga bunday yondashuvning afzalligini, mohiyat mazmunini va asosiy xususiyatlarini taqqoslash, ularni qiyosiy tasniflash orqali bilib olamiz.

Shuni alohida qayd etib o`tish joizki, ishlab chiqarishda texnik operatsiyalar, hujjatlar talablarga aniq rioya qilinib, ishtirokchining salohiyatiga bog`liq bo`limgan holda ko`zlangan va kafolatlangan natijani beradigan texnologik jarayonlar (mahsulot ishlab chiqarishning yagona jarayonini hosil qiluvchi operatsiyalar yig`indisi) ishlab chiqilgan. Bunday texnologik jarayonning asosi sifatida ishchi bajarishi lozim bo`lgan texnik qoidalar, talablar, grafiklar mavjudki, ularga qat`iy rioya qilish natijasida ish kim tomonidan va qaerda bajarilganligidan qat`iy nazar, mahsulot sifati va natija qo`lga kiritiladi. Buni sanoatda texnologik jarayonning takrorlanadigan va qayta tiklanadigan texnik tuzilmasi deb ataladi. Demak, ta`limda texnologik yondashuvda ham takrorlanadigan, qayta tiklanadigan jarayonni tarkib toptirish, mazkur yondashuvning birinchi sharti hisoblanadi.

Ta`lim-tarbiya ishlarida qayta tiklanadigan, takrorlanadigan tuzilmani yaratish biroz murakkabroq, bunga o`quv – tarbiya ishtirokchilarining qobiliyati, o`quv ma`lumotlarini bayon qiluvchilarining texnologik - metodiyl saviyasining har-xillagini, ta`lim mazmuni, o`quv materiali turlarining xilma-xilligi, talaba-talabalarning faoliyatining, bir xilda namoyon bo`lmasligi va boshqa sabablar

to`sqinlik qiladi. Ammo, bu bajarilishi mumkin bo`lgan holdir. Zero, ta`lim samaradorligining kaliti, Farberman B.A. ta`kidlaganidek, “bilim yurti va talabaning qo`lida ekan, bilim shart-sharoiti, o`qituvchi faoliyatining texnologiyalashtirishni, texnologiyani o`zlashtirish, asosini pedagoglarni qayta tayyorlash orqali erishish mumkin”.

Ta`limda texnologik yondashishni pedagogik olim O.Roziqov didaktik maqsadni belgilash asosida ta`limni loyihalashda ko`rib shunday yozadi: “Ta`limga texnologik yondashish bu ma`lumot va mazmunini atroflicha tahlil qilish yo`li bilan o`quv-tarbiya jarayonining umumiyligi, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o`qituvchi va talaba nuqtalarining uchrashgan nuqtalarida (o`qitish maqsadi, o`qish maqsadi) ta`limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta`limni loyihalash va amalga oshirish yo`llari bilan mo`ljaldagi etalonga erishishdir”.

Ta`limda texnologik yondashuvni pedagogika fanlari doktori, professor M.Ochilov quyidagicha izohlaydi: “ta`lim ishiga texnologik yondashuv: o`qish-o`qitish jarayonini o`zaro uzviy bog`liq etaplari, fazalar, amallarga ajratish, bo`lishni; ta`limdan mo`ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; va loyihalashtirilgan ishlar amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi”.

Pedagogika nazariyasida M.V.Klarin, B.A.Farberman, M.Ochilovlar reproduktiv ta`lim darajasida qaraydilar. Ma`lumki, reproduktiv ta`limda talaba yodlab olgan va xotiraga saqlagan andozadagi harakatlarni o`zlashtirish va namoyishi nazarda tutilgan. Mazkur komponent hatto talabadan qoidalar kombinatsiyasiga tayanib sub`ektiv ravishda yangi vazifalar echimlarini ishlab chiqishni talab qiladigan namunaviy vaziyatda bo`lmagan topshiriqni yechish ko`nikmasiga, ya`ni produktiv darajada o`zlashtirishga erishishni ham nazarda tutadi. Reproduktiv daraja uchun pedagogik texnologiya doirasida ta`lim aniq, tushunarli qilib qayd qilingan va kutiladigan natijalarni barcha qismlarigacha aniq bayon qilingan, takrorlanadigan va tiklanadigan konveyer sifatida tashkil etiladi.

O`quv ma`lumoti aniq, tushunarli qilib qayd etilgan o`quv maqsadlari asosida ishlab chiqiladi, ayrim qism (modullarga ajratiladi, uni o`zlashtirishning) al'ternativ metodlari nazarda tutiladi, har bir modulni o`rganish test yordamida nazorat etilib, tuzatishlar kiritiladi. O`qish - o`qitish ishi etalon natijalarga erishishni ko`zda tutadi. Bunday ta`lim bolalarni qiziqtirishni, musoboqa va o`zaro yordamni inkor etmaydi. Ayni paytda, u butun ta`lim jarayonini borishiga reproduktiv xarakter baxsh etadi. Shu bois ham u minimum majburiy bilim, ko`nikma va malakalarni egallashda eng katta samara beradi. Ta`lim jarayonini tashkil etishga texnologik yondashishni qo`llash qo`yilgan o`quv maqsadlarga kafolatlangan darajada erishishga imkon beradi. Ana shunday samarani ta`minlashga imkon beradigan mexanizmlar texnologik yondoshish omildir.

Ko`pchilik davlatlar ta`lim jaryoniga texnologik yondashuvni joriy etishlari tufayli ta`lim sifatini oshirishda, talabalar o`zlashtirishini ko`tarishda sezilarli yutuqlarni qo`lga kiritganlar. Masalan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo`yicha eksperimentda qatnashgan 5000 talabandan 75% talabalar shunday natijalarga erishdilarki bunday natijaga an`anaviy metodda faqat eng yaxshi talabalargina erisha oladilar.

Qator davlatlarda o`tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, ta`lim berishning mazkur sistemasini qo`llash o`rtacha talabaga yuqori ko`rsatkichlarga erishishga imkon beradi.

Ta`limda tadqiqiy - ijodiy yondashuv talabalarda mustaqil o`qish-o`rganishni tarkib toptirish, muammolarni ochish qobiliyatini o`stirish, yangi bilim (tajriba)larni tadqiqiy nuqtai nazarda o`zlashtirish, ularni o`rganish yo`llarini izlab topish, malakalarini o`stirish asosida maqsad qilib qo`yiladi.

Tadqiqiy ijodiy ta`limda faoliyatga mustaqillik beriladi, talaba ijodiy, faol ish ko`radi. Ma`lumotlar mazmunidan zarur, kerakli, talab etilayotgan muammoni o`zi izlab topishga harakat qiladi. Bu harakatlar, ishlanishlar, albatta pedagog tomonidan boshqariladi, yo`naltiriladi va rag`batlantiriladi. Talabaning mustaqilligi, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi pedagog tomonidan qo`llab-quvvatlansa, bolaning qiziqishlari, fikrlari rag`batlantirib borilsa, tadqiqiy-ijodiy

ta`lim texnologiyasi o`z muddaosiga etadi. Bunday yondashuv hozirgi ilmiy-pedagogika nazariyasi va amaliyotida produktiv, ya`ni mahsuldor pedagogik texnologiya varianti deb aytildi.

Tadqiqiy-ijodiy ta`lim tajribalarning ko`rsatishicha o`qitish ishlarining teatrlashtirilgan rolli o`yinlar, muammoli ma`ruza, baxs-munozara kabi shakllari va aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, kichik guruhlarda ishlash, munozara kabi ta`lim metodlarini qo`llash yordamida o`tkazilsa maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiya tizimida tadqiqiy ijodiy yondashuv katta ahamiyat kashf etadi. U katta kuch, mablag` va texnika vositalarini talab etmaydi. Ammo, shu o`rinda shuni ham e`tirof etish joizki ta`limga yondashuvning har birining tadbiq etish sohasi mavjud. Shunga asosan, ta`lim-tarbiya jarayonini qayd etilgan yondashuvlar bo`yicha tashkil etishda ularning bir-birini to`ldiruvchi tomonlaridan optimal foydalanilsa maqsadga muvofiqdir. YUqorida ta`kidlanganidek, ayni paytda taraqqiy etgan mamlakatlarda o`qitishning turli darajalarini o`zida mujassamlashtirilgan pedagogik texnologiya mexanizmlari ishlab chiqilgan. SHulardan biri produktiv texnologik yondashuv bo`lsa, biri tadqiqiy ijodiy yondashuvdir. Bu yondashuvlarning afzallik tomonlarini aniqroq anglash maqsadida ularning qiyosiy tasnifini quyidagi jadvalda keltiramiz.

O`qitishga bo`lgan yondashuvlarning qiyosiy tasniflari

An`anaviy (izohli-ko`rsatmali)	Texnologik	Tadqiqiy-ijodiy
Axborotni o`qituvchidan talabaga uzatish.	Tizimli yondashuv yordamida o`quv jarayonini loyiha-lash.	Munosabatlarni o`rganish. O`quv tadqiqotni amalga oshirish.
Noaniq o`quv maqsadlari.	O`quv maqsadlarini maksimal darajada oydinlashtirish.	Predmetlararo bog`lanishni yo`lga qo`yish.
Tayyor bilimlarni bayon qilish.	O`qitishni	Farazlar qo`yish va ularni tekshirish.
Ta`lim jarayonining ustivor tashkiliy shakllari –		

suhbat, hikoya, savol-javob.	talabaning faoliyati orqali amalga oshirish.	Ma`lumotlar to`plash, modellash, ularni sinovdan o`tkazish.
Axborotni ixtiyoriy ravishda yodda saqlash, mustahkamlash va boyitish (turlash)ga doimiy ravishda urg`u berish.	Teskari aloqa orqali ta`lim jarayoniga tuzatish kiritish.	Tadqiqiy, ijodiy –tanqidiy fikrlash.
Bilish bosqichlari yagona tizimga aniq darajada bog`lanmagan, ayrim xulosalardan iborat.	Shakllantiruvchi va yakunlovchi baholash.	Dalillar keltirish.
Mashg`ulotlar (asosan) akademik xarakterga ega bo`lib, ular mutaxasis-larning bo`lajak faoliyati bilan etarli darajada bog`lanmagan.	Joriy nazorat ishi o`tkazish.	Qarorlar qabul qilish.
	Bilim va ko`nikmalarni to`liq o`zlashtirish.	Rolli o`yinlar.
	Rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlash.	YAngiliklarni qabul qilish va qo`llash.
	Ta`lim samaradorligini oshirishga erishish.	Axloqiylik, ma`naviyatlilik, ijtimoiy ma`suliylilik.
		Intelektuallilikni oshirishga qodir bo`lish kabi fazilatlarga erishish.

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun talablariga to`liq javob berish imkoniyatiga texnologik va tadqiqiy ijodiy yondashuvga javob bera oladi. Shuningdek an`anaviy tushuntirish ko`rsatmali yondashuv ham kerak. Shu bois ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ulardan optimal foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta`limda yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, tizimli, muammoli yondashuvlar ham mavjud. Bunday yondashuvlar to`g`risida M.Ochilov, N.N.Azizzxo`jaevalar risolalaridan ma`lumot olish mumkin.

Yangi pedagogik texnologiyalar ta`limning tizimli metodi ekanligi to`g`risida biz kengroq to`xtalgan edik. Ammo, shu o`rinda shuni ham qayd etib o`tish joizki, ta`lim texnologiyasi mazmuniga “ta`lim tarbiyaning maqsadi, mazmuni, didaktik jarayon, o`qituvchi, texnik vositalar, ta`lim tarbiya shakllari, metodlari kiradi.

Didaktik vazifa va ta`lim texnologiyasi esa, pedagogik tizim mazmuniga kiradi. Bu amaliyotda didaktik vazifani ta`lim texnologiyasi yordamida talaba, talaba o`zlashtirib oladi. Shunga asosan, navbatdagi fikrimiz ta`lim jarayoniga tizimli yondashuv xususida bo`ladi.

Ta`lim jarayoniga tizimli yondashish shu kunning dolzarb muammosi, yangi pedagogik texnologiyalarning muhim omillaridan biri. Zero, pedagogik texnologiyalarga berilgan ta`riflarda pedagogik texnologiyani “tizimli metod”, “amallar tizimi”, “pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltiruvchi”, “o`quv jarayonini tizim sifatida ko`rish” deb nomlanishi bejiz emas albatta.

Tizim-bu tartibga solingan, qismlardan tashkil topgan, yaxlit bir holga keltirilgan va yagona funksiyani bajarishga qaratilgan mexanizmlar yig`indisidir. Tizim ma`lum bir soha, narsa, hodisotning yaxlit bir tizilmasini anglatadi. Shunga ko`ra pedagogika fanida “xalq maorifi tizimi”, “xalq ta`limi tizimi”, “malaka oshirish tizimi”, “guruh dars tizimi”, “pedagogik tizim” kabi bir necha ko`rinishida namoyon bo`ladi. SHuningdek, kunlik tafakkur iste`molimizda axborotlar tizimi, ijtimoiy munosabatlar tizimi, xarajatlar tizimi, kibernetik tizim, hamkorlik tizimi va h.k. shaklida ham qo`llaniladi.

Tizim, yuqorida qayd qilganimizdek uni tashkil qiluvchi qismlar birligi bo`lib, uning tizimi mazmunini belgilashi va yaxlitligini ta`minlashi bilan birga maqsadini, yo`nalishini ham belgilaydi.

Keyingi davrlarda fanda tabiat, jamiyat hodisotlari, qonuniyatlarini, ilmiy texnikaviy taraqqiyotining mohiyat mazmunini o`rganishda tizimli yondashishga ko`proq e`tibor qaratilmoqda. Chunki, moddiy olamdagи narsa hodisalarining mohiyati, o`zaro bog`liqligini, mavjud muhitdagi o`rnini, har birining bajaradigan vazifasini aniqlashda faqat tizimli yondashuv aniq yo`llanma bera oladi.

“Tizimli yondashish” – deb yozadi M.Ochilov, ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo`nalish sifatida universal tavsifga ega, pedagogikada keng qo`llaniladi, ta`lim - tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim”.

Biz “tizimli yondashuv”ning nazariy metodologik asosi, mohiyat mazmuni to`g`risida bat afsil to`xtalmoqchi emasmiz, chunki, bu tadqiqot maqsadimizga kirmaydi. Shuning uchun ta`lim – tarbiya jarayoniga tizimli yondashuv bilan chegaralanamiz.

Ta`limda tizimli yondashuv muammosi pedagogik nashrlarda XX asrning 70-yillarida ilk bor paydo bo`ldi. Bu muammo T.A.Kurokin, L.I. Novinova, A.M. Lanchishnikova o`qituvchi shaxsini shakllantirish jarayonini o`rganishda tuzimli yondoshish N.R.Kuz’mina, R.A. Slastyonin, YU.K.Vashl’ev, N.Shodiev, K. Zaripov, N.Sayidaxmedovlar tomonidan tadqiq qilingan.


Ma`lumki, tizimli yondashuv ob`ektiv borliqni qabullashda tadqiqotchining tutgan mavqeini aniqlashtirilgan holda quyidagicha tavsiflanadi; tahlil qilinayotgan ob`ekt o`zaro ta`sir ostida bo`lgan va alohida yaxlit, bir butun tarzda ifodalangan unsurlar majmuasidan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Demak, bu ta`rifga asoslanib aytish mumkinki, tizimli yondashuvni amalga oshirish shartlaridan biri predmet, hodisa va jarayonlarni o`rganish ma`lum bog`lanish va tizilmalar tizimi doirasida olib borishi natijasida ularning mavjudligi real voqelikka aylanadi.

Tizimli yondashuvni amalga oshirishda masalani (ob`ektni) aniq ravishda maqsadga erishish nuqtai nazaridan uning barcha asosiy komponentlari hamda mavjud ichki va tashqi bog`lanishlarini qamragan holda kengaytirish va murakkablashtirish lozim. Ularning asosiyalarini tizimli tashkil etish yangi pedagogik texnologiyaning muhim sharti.

Tizimli yondashuvga falsafiy nuqtai nazaridan qaraydigan bo`lsak, u voqelikdagi narsa va hodisalarni tadqiq qilganda. Unga yakka holda emas va yaxlit holda, ichki va tashqi bog`lanishlarni inobotga olgan holda yondashishni anglatadi. Bunday yondashishda borlikdagi narsa hodisalarning moddiy, ma`naviy, texnik, nazariy-amaliy jihatlarining o`zaro aloqadorligi yaqqol ko`zga tashlanadi va masalani anglash, echish anga osonlashadi.

Ta`lim – tarbiya jarayonini ham mana shunday yaxlit tizim asosida ko`rish, uning samaradorligini oshirish, shaxsni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Darhaqiqat, ta`lim-tarbiya jarayonining o`zi ham yaxlit pedagogik tizim sifatida mavjuddir. Uni quyidagi jadvalda ko`rish mumkin.



Jadvaldan shu narsa ko`zga tashlanadiki yagona maqsad – shaxsni shakllantirishni amalga oshirish, ta`lim-tarbiyaning tashkil etuvchilari, ya`ni ularning barcha elementlari – ta`lim maqsadi, ta`lim mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, mustaqil o`quv topshiriqlari, mustaqil faoliyat, nazorat, o`z-o`zini nazorat orqali o`z muddaosiga etadi. Shunday ekan, ta`lim-tarbiyani alohida elementlarga bo`lib emas, balki yaxlit holda qarash va amalga oshirish ta`lim-tarbiya jarayoni oldiga qo`yilgan maqsadga erishishning yo`lini yaqinlashtiradi. Chunki, yuqorida qayd qilib o`tganimizdek voq`elikdagi barcha narsalar yaxlit (tizim) sifatida bir-biriga chambarchas bog`langan. Ulardan birortasining funktsiyasi buzilsa, yoki birortasi ishlamay qolsa maqsadga erishilmaydi. Masalan, mashina dvigatelining yonilg`i uzatgich tizimini olaylik, uning yonilg`i uzatuvchi elementlaridan birortasi ishlamay qolsa, yoki yomon ishlasa dvigatel yonilg`i bilan ta`minlanmaydi, natijada mashinaning o`t oldirishi qiyinlashadi yoki o`t olmaydi. Ta`lim – tarbiyada ham shunday. Ushbu jarayonning biror elementi yaxshi faoliyat ko`rsatmasa, o`zlashtirish qiyinlashadi va bilim samaradorligi pasayadi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyada ta`lim-tarbiya jarayoniga tizimli yondashish juda muhim bo`lib, katta ahamiyat kasb etadi.

Tajriba shuni ko`rsatmoqdaki ta`lim jarayonining muhim elementlaridan biri bo`lmish ta`lim mazmuni qancha murakkablashtirilib, uni ta`lim oluvchilarga etkazish yo`li aniqlashtirilsa kuchli intellektiga va yuksak ma`naviy salohiyatga ega bo`lgan SHAXSni shakllantirish osonlashadi. Bu ko`p jihatdan yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ta`lim-tarbiya amaliyotiga tadbiq etish bilan uzviy bog`liqdir.

Pedagogik texnologiyalar mazmunidan o`rin olgan ta`lim jarayoniga ilmiy yondashuvlardan biri-aksiomatik yondashuvdir. Fanda bayon etilishicha aksioma isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Demak, aksiomatik yondashuv deganda pedagogik texnologiyalarni loyihalash asosida natijani so`zsiz kafolatlay oladigan yondashuv tushiniladi. Bu g`oya rus olimi V.M.Monaxov tomonidan ishlab

chiqilgan. Uning fikricha, pedagogika fani azal-azaldan aksiomalardan foydalanib ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

“Ta`lim to`g`risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” ta`limni standartlash masalasi bosh vazifa qilib qo`yildi. Bu vazifaning ma`lum darajada murakkablashuvchi, pedagogik faoliyat egalarining malakalarini yuksak, texnologiyalashgan darajada ko`tarish shartlarini keltirib chiqardi. Chunki, ushbu hujjatlar qabul qilingunga qadar ta`lim tizimi aniq qolipga keltirimagan, ta`lim mazmuni me`yorlashtirilmagan (standartlashtirilmagan)ligi sababli ta`lim maqsadini ijtimoiy buyurtma sifatida hal etish uchun shart-sharoitlar, imkoniyatlar etarli emas edi.

Bugungi ta`lim ijtimoiy - iqtisodiy, ma`naviy - madaniy taraqqiyotning ustivor sohasiga aylanganligi, davlat ta`lim standartlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilayotganligi va nihoyat har bir talaba (talaba) ta`lim standarti darajasidagi ma`lumotlarga ega bo`lishi uchun mavjud an`anaviy o`quv texnologiyalari (metodikalari) o`rniga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish zaruriyati tug`ilmoqda o`quv jarayoni loyihasini texnologiya darajasiga ko`tarish va bu loyihaning joriy etilishi talabani yuqori malakali mutaxasisga aylantirish bilan birga talabaning mavqeini ham kuchaytiradi va ijodiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi. Endi o`qituvchi loyiha muallifi bo`lib qoldi.

N.Sayidaxmedovning ta`kidlashicha V.M.Monaxov ta`limga aksiomik yondashish tizimini uch guruhgaga ajratadi.

Bular.

1. Pedagogik texnologiyalarni bir butun ta`limiy kenglikka qo`shish aksiomalari.
2. O`quv jarayonini modellashtirish aksiomalari.
3. O`quv jarayoni loyihasini me`yorlash aksiomalari.

Endi har bir guruhdagi aksiomalarning mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Birinchisi (A1) - pedagogik texnologiyaning ta`lim maqomiga talab qo`yish aksiomasi; A2 – pedagogik texnologiyaning “o`qituvchi” tizimiga moslik

aksiomasi; A3 – pedagogik texnologiyaning predmet metodikasi tizimiga nisbatan universallik aksiomasi.

Ikkinci guruhgaga (A4) pedagogik texnologiya asosini tashkil etuvchi o`quv jarayoni modelini loyihalash aksiomasi kiritiladi. Bu axborotli model quyidagi parametrli topshiriqlar yordamida tavsiflanadi:

1 - parametr (maqsadga joizlik) o`quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsad va yo`nalishini mikro maqsadlar tizimi ko`rinishida ifoda etadi.

2 - parametr (tashxiC) mikro maqsadlarga erishish yoki erishmaslik dalili to`g`risida boshqaruv axborotlarini mujassamlashtiradi.

3 - parametr (miqdorli o`lchoB) talabalarning mustaqil faoliyati xususiyatlari, xarakteri va hajmi haqida tashhisning muvaffaqiyatli o`tishini kafolatlash uchun etarli bo`lgan mazmunli va sonli axborotlar beradi.

4 - parametr (mantiqiy tuzilma) - bu o`qituvchining metodlik fikrlarini o`quv jarayonining yaxlit va mantiqan ko`rsatmali modeliga aylantirish bosqichini e`tiborga oladi va o`qituvchi mahoratining yuksak darajasini belgilab beradi. Bu faoliyat shunchalik o`quv jarayonining mantiqiy tuzilmasi fotografiyasi emas, balki maxsus shakllangan ishchi maydon bo`lib, unda barcha elementlar texnologik qonuniyatlar asosida ifodalanadi va ma`lum muolajalar yordamida etarlicha muqobillashtiradi.

5 - parametr (tuzatish) pedagogik yaroqsizlik, ya`ni tashhisdan o`tmagan talabalar haqida va tuzatishning metodik yo`llari to`g`risidagi axborotlarni tasvirlaydi.

Shuningdek, ikkinchi guruhda (A5) o`quv jarayoni modelining tashkil etuvchi ko`rsatgichlari tizimi yaxlitligi va takrorlanuvchanligi aksiomasi ham kiritiladi.

O`quv jarayonini texnologiyalashtirish ob`ekti har qanday predmetning o`quv mavzusi bo`lishi kerak, uning hajmi esa qat`iyanligi bilan ajralib turadi: minimum -6-8 dars, maksimum -242-24 dars. Ana shu mavzu loyihasida bo`lajak o`quv jarayoni yuqorida nomlangan beshta parametr yordamida yaxlit beriladi va aynan shu o`quv mavzusi har qaysi predmet bo`yicha o`quv jarayonini

loyihalashga imkon beradigan bir xildagi muolajalar ko`rinishida texnologiyalashtirish va loyihalashning takrorlanuvchanligini ta`minlaydi.

Ikkinchi guruh tarkibiga kiradigan yana bir aksioma (A6) – bu o`quv jarayonining axborotli modelini texnologiyalashtirishdir. V.M.Monaxov tajribasida bir mavzu doirasida beshta parametrlarning o`ziga mujassamlashtirgan o`quv jarayoni loyihasining texnologik xaritalari yaratilgan. Texnologiya talabaning loyihalash muolajalari tizimi bilan qurollantirsa, texnologik xaritalar o`quv mavzusi bo`yicha o`quv jarayoni loyihasining pasport sifatida kerak bo`ladi.

Muallif uchinchi guruh aksiomalarini (o`quv jarayoni loyihasini me`yorlash) pedagogik texnologik mavjudligining asosiy mahsuloti sifatida tavsiflaydi. Talabaning kasbiy faoliyatini texnologiyalashtirish aksiomasi (A7) kasbiy faoliyatning quyidagi innovatsion komponentlariga tegishli:

- o`quv jarayoni loyihasining pedagogik g`oyalarini butun bir o`quv yili uchun o`qituvchi tomonidan o`z xususiy metodik tajribasiga, o`quv dasturi mazmuniga va davlat ta`lim standarti talablariga tayangan holda mikro maqsadlar ketma-ketligi ko`rinishida ifodalash kasbiy ko`nikmasi. Boshqacha qilib aytganda, bu standart talablarini mikro maqsadlar tiliga o`tkazishning texnologik muolajasidir, mikro maqsad esa talablarning bilish va rivojlanish zinapoyasidir. Bu komponent bevosita an`anaviy o`quv mavzularini qaytadan tuzish bilan bog`liqdir.

Bu jarayon pedagogik mahorat cho`qqisi hisoblanadi, sababi o`qituvchi bo`lajak o`quv jarayonini oldindan ko`ra biladi, o`z g`oyalarini texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlaydi. Ta`kidlash joizki, bu kasbiy ko`nikma etarlicha murakkab, ko`p bosqichli, o`z mohiyatiga ko`ra integrativ bo`lib o`qituvchining yaxshi rivojlangan refleks qobiliyatini talab etadi;

- Darsning axborotli xaritasini konstruktsiyalash kasbiy ko`nikmasi yoki bu xaritalar yig`indisi har bir o`quv mavzusi uchun bo`lajak o`quv jarayonining aniqlashtirilgan loyihasi hisoblanadi;
- Ikki pedagogik ob`ektni taqqoslash kasbiy ko`nikmasi: texnologik xaritalar ko`rinishidagi o`quv jarayoni loyihasi va ma`lum guruhdagi real o`quv jarayoni

natijalari bilan birgalikda darsning axborotli xaritalar tizimi. Taqqoslashni aniq ko`rsatgichlar va texnologik muolajalar bo`yicha o`tkazish kerak. Qiyoslash muolajalari asosida tashhislash natijasiga ko`ra mazkur guruhda o`quv-tarbiyaviy faoliyat rivojini qayd etuvchi maxsus monitoring yotadi.

O`quv jarayoni loyihasini me`yorlash aksiomasining (A8) mohiyati quyidagilardan iborat: o`quv jarayoni loyihasi texnologik xarita tarzda tayyor bo`lgach, bevosita zaruriy hisoblar amalgaga oshirilishi kerak: o`quv vaqt, didaktik axborotlar hajmi, uni o`zlashtirish tezligi, shu mavzusi chegarasida talabalarni rivojlantirishning metodik dasturiga ajratiladigan vaqt va boshqa.

Nihoyat, uchinchi guruhning so`nggi shunday ifodalanadi: yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiyaning maqbul ishlashi uchun ishchi maydonini shakllantirish aksiomasi (A9) har qanday pedagogik texnologiya bu aksioma talabalarni bir vaqtning o`zida talabalarining ham o`quv, ham umumiyligi yuklamasi bo`yicha qanoatlantirishi shart; darsning axborotli xaritasi ichida yosh jihatidan o`z guruhi doirasida talabalarni o`quv-bilish faoliyatlarining asosiy turlarini me`yoriy saqlash zarur. Bu bevosita psixologik-pedagogik va fiziogigienik me`yorlarini saqlashga ham tegishlidir.

Shunday qilib, V.M.Monaxov tomonidan taklif etilgan to`qqizta didaktik aksiomalar bilan tanish bo`ldik. Olimning ta`kidlashicha, bu aksiomalarni bajarish va ularga rioya qilish bevosita pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va ta`lim kengligiga asosli ravishda tadbiq etish imkonini tug`diradi.

O`zbekistonlik olimlar N.X.Avliyoqulov, N.R. Sayidaxmedovlarning ta`kidlashlaricha ham modulli, ham muammoli ta`lim texnologiyalari nihoyatda yosh (ular XX asrning 60-70 yillarida AQSH, Olmoniya, Angliya, Pol'sha, Rossiya va x.k. mamlakatlarda vujudga kelgan) bo`lib, hanuzgacha pedagogik matbuotda turlicha, hatto bir-biriga zid bo`lgan fikrlar bayonida yoritilib kelinmoqda.

Ta`lim modulli yondashish ilmiy-pedagogik nazariyaga ko`ra “modul” tushunchasi bilan bog`liq bo`lib, u ma`lum bir sohaning o`zaro chambarchas va

mantiqan bog`langan tugallangan birligini anglatadi hamda shu soha uchun fundamental qonuniyatlarni o`rganishga qaratilgan faoliyatdir. Modulli ta`limotning o`ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki –u odam bosh miyasining o`zlashtirish tizimiga juda yaxshi moslashganligidir (N.AvliyoquloB). SHuning uchun modulli o`qitishda inson bosh miyasi to`qimalarining modulli tuzilganligiga tayanmoq kerak. Mana shu yaxlitlik va tizimlilik kasb egalari uchun fan asoslarini chuqurroq va mukammalroq egallahash imkonini beradi.

Qator xorijiy mualliflar (V.Goldshmidt, M.Goldshmidt va boshqalar) modul deganda aniq o`rnatilgan erishishga yordamlashadigan yaxlit o`quv faoliyatini shakllantirishni tushinishadi. Modul mohiyati o`quv materilaning avtonom bo`laklarini ko`rish to`g`risidagi birmuncha farqliroq fikr D.J. Rassel tomonidan aytildi. P.A.Yutsyavichenenning ko`rsatishicha, “modulli o`qitish mohiyati shundan iboratki, o`rganuvchi qismni yoki to`liq mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan o`zida harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo`yilgan didaktik maqsadga erishish bo`yicha metodik ko`rsatmani qamrab olgan individual o`quv dasturi bilan ishlashi mumkin. Bunda pedagog vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi – koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo`ladi”.

Professor M.A.Choshanov ham keyingi fikrga qo`shilgan holda fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi metodologik mazmuniga ega bo`layotganligini alohida ta`kidlaydi.

Muammoli o`qitishning didaktik tizimida birmuncha to`liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta`lim hisoblanadi. U o`rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning echimiga yondashishni shakllantirishga, va nihoyat - ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Bu ta`sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini – muammoli vaziyatlar va ularning echimlarini tuzish bilan ta`minlanadi. Muammoli vaziyat o`qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasи to`g`risida A.M.Matyushkin, M.I. Maxmutov, I.YA. Lerner kabi yirik olimlar o`z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli - modulli o`qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarini izlab topish maqsadga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o`rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o`zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi: gnoseologik, metodik va o`quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyutsiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo`l qo`yiladi. Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, o`quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish talaba (talaba)larda borliqni tanqidiy mushoxadalash, tahlil qilish va o`z xatolarini to`g`rilash ko`nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o`quv predmeti va fanga bo`lgan munosabatlarini o`zgartiradi: o`rganilayotgan fan mazmuni o`rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig`indisi sifatida emas, balki g`oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo`nalishlar ko`rinishi tarzda, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o`quv holatlari bilan o`zaro bog`liq: o`rganish xatolari ko`p hollarda - o`qitish xatolari natijasidir. O`quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyinchalik kuchli ta`sir etuvchi vositalar sifatida foydalanadi. Agar, an`anaviy o`qitishda bilmaslikdan bilishga o`tish standartli vaziyatlarni qo`llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o`qitishda talabaning yaqinda rivojlanish doirasi bilimlarni yuzaki o`zlashtirish va noto`g`ri qo`llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar – xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday bilmaslikdan bilishga o`tish sohasi o`rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo`lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylanadi.

Muammoli –modulli o`qitish texnologiyasining etakchi sifat belgisi-bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamонавиу yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligini ko`p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy –iqtisodiy o`zgaruvchan sharoitga moslashsa olish va zudlik bilan ta`sir etish qobiliyatiga bog`liq bo`ladi.

Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo`lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta`minlanadi: muammoli-modul tuzilmasi safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog`onaligi, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko`p vazifali o`quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqা.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta`lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo`ladi. Bunday imkoniyatning o`zi taklif etilayotgan texnologiyada o`quv materialining blok va modulli printsip asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta`lim jarayonining quyidagi jihatи bilan ta`minlanadi: o`qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, talabalarning o`quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqা.

M.A.Choshanovning ta`kidlashicha kasb maktablarda o`qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o`tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o`quv materialining muammoli modullarini guruhash yo`li bilan kursni to`liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta`minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;
- bilish darajasiga bog`liq holda talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo`ylab individual siljish suratini ta`minlanishi;
- muammoli modullarning pedagogik dasturli vositalarini yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;
- talabalarning bilish faoliyatini boshqarishda o`qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg`uni ko`chirish;
- o`quv materialini bayon qilish tezligi va o`zlashtirish darajasiga putr etkazmagan holda o`qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish;

Shu bilan birgalikda obonentlar tomonidan muammoli-modulli o`qitishning qator kamchiliklari ko`rsatilgan, ta`lim jarayonining bo`laklarga bo`linganligi, ya`ni talabalarning mustaqil ishlari solmog`i birmuncha katta; o`quv

predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; talabalarni tayyorlash torligi: o`qitish kursining bog`liq bo`lmagan muammolar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmagan ziyon etkazadigan xususiy, aniq ko`nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg`ulotni o`tkazishga tayyorgarlikning ko`p mehnat talab qilishi.

Sanab o`tilgan kamchiliklarning ko`pligi modulli o`qitish texnologiyasini o`rnatish bosqichi birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani “toza” holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi, yoki yo`qmi, o`quv jarayonini tashkil etishning an`anaviy yondashuviga va mavjud metodik tizimga tayanishga to`g`ri keladi.

Ta`lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo`ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo`yib tuzish. Misol uchun, matematika kursini bunday metodlarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;
- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining printsipli mazmuni hisoblanib umum madaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o`qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:
- fundamental, uzviylik, uzlucksizlik va ta`limni insonparvarlashtirish;
- yechimli bilish faoliyati metodlarining mosini qo`llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o`ziga xosligini hisobga olib ajratish;
- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta`minlashga yo`naltirilgan o`zgaruvchan modullarning mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli-to`liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo`yicha talabalarning yakka tartibda olg`a siljishi uchun sharoitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo`llash qo`lami quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashga. Tizimli tartibot muammoni modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom-

ma`lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida, integratsiyalangan-integrativ kurs doirasida qo`llanishi lozim.

Shunday qilib, muammoli-modulli o`qitish texnologiyasining mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: talabalarning talab etilgan darajada bilimdonligiga erishish uchun o`quv materiali mazmunini yirik tuzilmalab, unga mos holda o`qitish metodlari, vositalari va shakllarini tanlab, amalga oshirilish, ular talabalarni to`liq, qisqargan, yoki chuqurlashgan o`qitish variantlarini mustaqil tanlash va o`tishga yo`naltiriladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Treninglar texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Ta`limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish mumkin?
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida samarali foydalanish yollarini ko`rsatib bering.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta`lim-tarbiya jarayonida qanday axamiyatga ega?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. XXI asr aql-zakovat, texnik taraqqiyot asri deydilar. Siz buni qanday izohlaysiz?
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalarini yoritib bering.
3. O`qitishni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondashuvlar deganda nimani tushunasiz? Yoritib bering.

4. Muammoli o`qitish, interfaol o`qitish va ta`limni individuallashtirish degan tushunchalarga izoh bering.

TESTLAR

1. Ko`rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda qanday metodik talablarga rioya qilinishi kerak?

- A) Ko`rgazmali qurollarning mashg`ulot o`quv materialiga mos bo`lishi;
- B) O`qituvchi ko`rgazma qurolni qo`llashda ularni talabalar tomonidan idrok etish jarayoniga rahbarlik qilishi;
- C) Ish usullari, plakatlar, sxemalar, jadvallarning tizimli qo`llanilishi;
- *D) Javoblarning hammasi to`g`ri;

2. Dars jarayonida yangi bilimlarni berishda asosiy o`rinni nima belgilaydi?

- A) Laboratoriya;
- *B) Yangi mavzu bayoni;
- C) Mustaqil ish;
- D) Takrorlash;

3.O`quv materialini tanlashda qaysi printsipga rioya qilinadi?

- A) Osondon boshlash lozim;
- B) Talabalarga faqat oson mavzularni o`tish kerak;
- *C) O`quv materialini soddadan-murakkabga tomon rivojlantirib borish;
- D) O`quv materialining mukammalligini ta`minlash;

4. O`qitish metodlarini tanlash nimalarga bog`liq?

- A) Mashg`ulot turi va tipiga;
- B) Mashg`ulot mavzusiga;
- *C) O`quv materiallarining mantiqiy yo`nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga;
- D) O`qituvchi bilimiga;

5. Masofadan o`qitish qanday amalga oshiriladi?

- A) O`quv adabiyotlari orqali;
- *B) Kommunikatsion texnologiyalar orqali;
- C) Komp'yuter texnikasi orqali;
- D) T`yutorlar yordamida;

6. Muammoli metodlar guruhiga kiruvchi metodlarni toping.

- A) Muammoli izlanish xarakteridagi suhbат;
- B) Muammoli hikoya;
- C) Muammoli amaliy ish;
- *D) Barcha javoblar to`g`ri.

7. Muammoli ta`lim metodining ta`rifi qaysi javobda keltirilgan?

- A) O`qituvchi o`quvchilarning bilimiga tayanib, yangi materialni bayon qiladi hamda bilimlarni ijodiy o`zlashtirishga qaratilgan ta`lim metodlarini qo`llaydi;
- B) Biror sohada yangi yutuqlarni tushuntiradi;
- C) O`quvchilarni biron ob`ekt bilan tanishtirish, so`ngra uni tarkibiy qismlarga bo`lib o`rganishdir;
- *D) Ilmiy bilish jarayonining ob`ektiv qarama-qarshiliklarini ochish va ularni hal qilishga qaratilgan, fikrlashga o`rgatish va bilimlarni ijodiy o`zlashtirishga qaratilgan ta`lim metodi.

8. «Interaktiv» so`zining lug`aviy ma`nosi.....

- A) Faollikka undash;
- B) Fikrlash qobiliyatini faollashtirish;
- C) O`quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish;
- *D) O`zaro harakat qilmoq.

9. Maxsus seminarlar qanday xususiyatlarni mujassamlantiradi?

- A) Talabalarni mustaqil ishning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;
- B) Fanlar mazmuniga oid nazariy qoidalarni mustahkamlash;
- C) Tanlangan o`quv kurslari mazmunini chuqur o`rganish;
- *D) Ma`ruza mavzulariga aloqador bo`lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi.

10. «Didaktik evristika» - bu...

- A) Evristik ta`lim nazariyasi
- B) Pedagogik evristikaning bir kurinishi
- C) Kreativ ta`limning nazariyasi va texnologiyasi
- *D) Barcha javoblar tugri

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Avliyakulov N.H. Zamonaviy o`qtish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakulov N.X. Prakticheskie osnovy modulnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.
3. Azizzxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoiova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.

6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T., Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002, - 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru
[www.ise.Iip. Net.](http://www.ise.Iip.Net)

2.2. O`QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VA JADALLASHTIRISHDA O`YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



O`quv maqsadi

*O`quv faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishda
o`yinli texnologiyalardan foydalanish haqida
nazariy bilimlar berish*

*Namuna ko`rsatgan holdagina inson
eng yuksak natijaga
erishadi.
S.Tsveyg*

Tayanch iboralar: o`qitish jarayoni, loyihalash, o`quv maqsadlari, o`quv turlari, o`quv mashg`uloti, o`rgatuvchi modullar, o`rgatuvchi faoliyati, o`qitish

jarayonini loyihalash, ta`lim natijasi, o`qitish usullari, o`qitish vositalari, dasturlashtirilgan ta`lim texnologiyasi, differentsial ta`lim texnologiyasi.

Ma`lumki, har bar o`qituvchi ikki muammoni: didaktik masala va ularni hal qilish texnologiyasini amalga oshirishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da nazarda tutiladi. Mazkur masala ta`lim tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiq qilish orqali hal etilishi mumkin. Pedagogik texnologiya tizimida o`quv mashg`ulotlarini loyihalashtirish muhim ahamiyat kashf etadi. O`quv mashg`ulotini loyihalashtirishda o`qituvchi, avvalo, o`qitish jarayonini, o`qitish jarayonini tahlil qilishi, talabalarни mustaqil fikrlash, mustaqil o`qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o`rgatishi, o`zlashtirilgan bilimlarni ko`nikmalarga aylantirish uchun o`quv mavzulari bo`yicha metodik tizimni yaratadi, talabalar egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va ma`lumotlar mazmuni yordamida talaba tasavvur qilishi lozimlilarning o`quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o`quv mashg`ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg`ulot)ni maqsadga mos tanlaydi va uni echishga yo`llaydi.

Buning uchun o`qituvchi, avvalo, o`qitish jarayonini, uning tuzilishi aniq tasavvur qilishi lozim. Ma`lumki, har qanday jarayon, ma`lum natijalarga erishish uchun oldinga qarab intilishni, harakatlar yig`indisidan iborat. O`qitish jarayoni talabani bilmaslikdan bilishgacha, ya`ni oddiy narsa va hodisalar mohiyat mazmunini bilishdan, murakkab narsa va hodisalar mazmunini bilishga bo`lgan harakat yo`lini anglatadi. Bu jarayonda talabaning bilish qiziqishlari, qobiliyatlar, amaliy ko`nikma va malakalari shakllanadi, dunyoqarashlari tarkib topadi, axloqiy estetik fazilatlari tarbiyalanadi. YA`ni talaba shaxs bo`lib shakllana boradi. SHunga asosan o`qitish jarayoni ta`lim o`rgatuvchi o`qituvchi va ta`lim oluvchi talaba faoliyat hamkorligining yig`indisini tashkil etadi. Bu jarayon mahsulli bo`lishi, ilmiy texnik taraqqiyot talablariga javob berishi uchun uni loyihalash lozimdir.

Ma`lumki, biz “Pedagogika” kursining “Ta`lim nazariyasi” bo`limini o`rgangan vaqtimizda ta`lim jarayoni, uning mohiyati bilan yaqindan tanishib o`tgan edik.

Shunga ko`ra ta`lim jarayonining tuzilishi to`g`risida ma`lumotlarga ega ekanligimizni hisobga olib, bu jarayon to`g`risida keng to`xtalib o`tishni maqsadga muvofiq emas deb bilamiz va uning ayrim tarkibiy qismlarini eslatib o`tamiz.

Jarayon sifatida ta`lim uch element birikmasidan iborat: o`qitish, o`qish va ta`limning mazmuni.

O`qitish yoxud o`rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya`ni talabalarning o`quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma`naviy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

O`qish, yoki o`rganish, o`quv faoliyati, bilim, ko`nikma, malakalarini o`zlashtirishning murakkab jarayoni bo`lib, talabaning aql-zakovati, irodaviy va jismoniy kuch-g`ayrati, intilishlari asosida u rivojlantiriladi. O`qitish jarayonining bu ikki elementi bir maqsad: ta`limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalanib, o`quv tarbiya ishlarini takomillashtirish, ijtimoiy buyurtmani hal etishga qaratilgan. SHunga ko`ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatları, fazilatlari, ma`naviy axloqiy sifatlari, bilish qobiliyatları rivojlanadi, bo`lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik rivojlanadi va o`quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.

Mazkur jarayonning samarali bo`lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo`lishi va ko`zlangan maqsadga erishish uchun, o`qitish jarayonini loyihalash, ya`ni ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish talab qilinadi. Zero, “Pedagogik texnologiya metodining o`ziga xos xususiyati shundaki, unda ta`limning rejallashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o`quv bilish jarayoni loyihalashtiriladi.

Xo`sh loyiha nima? O`quv loyihasi, o`qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?


Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g`oya, ma`lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo`llarini belgilab beruvchi g`oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O`quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta`lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir.

O`qitishni loyihalash esa ta`limning umumiyligi maqsadi, mazmuni o`quv maqsadlari o`qish, o`qitish, o`zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o`qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta`limning umumiyligi maqsadlari asosida, o`quv maqsadlarini, buning uchun o`qish va o`qitishni, o`zlashtirishni rejalashtirgan holda, o`qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. SHunday qilib, pedagogik texnologiyada o`quv mazmuni asosida o`zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o`quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o`quv mashg`ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo`lsak, unda o`quv jarayoni ma`lum modullar, birliklardan iborat bo`ladi, ular umumiyligi holda ushbu modullar, birliklarning qo`shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimmi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir. Buni M.V.Klarin tomonidan ishlab chiqilgan “O`quv jarayonining qurilishi” nomli sxemada ko`rish mumkin.

“O`quv jarayonining qurilishi”



Jadvaldan shu narsa ko`zga tashlanadiki, o`quv jarayoni ta`lim maqsadlari umumiylar tarzda qo`yilmoqda va u ta lim mazmunini belgilab bermoqda. Umumiylar maqsad va mazmun, o`quv maqsadlarini aniqlashtirish orqali ifodalanib, o`qish, o`qitish ishlari yo`lga qo`yilayapti va nihoyat bilim olayotganlarning o`zlashtirish darajasi dastlabki sinovdan o`tkazilayapti hamda yo`l qo`yilgan xatolarni tuzatish o`quv maqsadi o`qish-o`qitish tizimidan oydinlashtirilib talaba, o`qituvchi diqqatiga havola etilayapti va o`quv sohasi bo`yicha bajariladigan ishlar tizimiga tuzatishlar kiritilayapti. eng muhim xususiyat, o`qish-o`qitish jarayoniga tuzatish kirituvchi teskari aloqa yo`lga qo`yilayapti. Bunda an`anaviy ta`limda ko`zda tutilmagan pedagogik texnologiyaning o`ziga xos xususiyati-o`quv jarayonining kafolatgan natijaga erishish maqsadi amalga oshayapti.

Ma`lumki, o`quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog`liq o`qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. Talabaning o`qish faoliyati. (O`F)
3. O`qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (BF)

SHunday qilib, o`quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin. $O`J=M+UF+UB$: Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo`lga qo`yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o`quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalga qo`llanilganda ta`limning tabiatga uyg`unlik qoidasiga asoslansa, ya`ni o`qituvchining tabiiy xususiyatlari-qiziqishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo`ladi. O`quv mashg`ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

Pedagog olim Malla Ochilovning ta`kidlashicha pedagogik texnologiya metodining muvaffaqiyati, ta`limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o`quv-biluv jarayonini loyihalashtirishdir. Maqsadni ko`zlash, joriy natijalarini tekshirib borish, o`quv ma`lumotining ayrim bo`laklarga ajratish - o`qish jarayonini tashkil etishning bu belgilari - qayta ishlab chiqiladigan ta`lim

tsikliga xos xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, takrorlanadigan ta`lim tsikli amalga oshadi va u quyidagi qismlarni o`zida mujassamlashtiradi:

- ta`lim maqsadlarini umumiy belgilash;
- umumiy maqsadni oydinlashtirib, o`quv maqsadlariga aylantirish;
- o`quv amallarini majmuiga keltirish;
- ta`lim natijasini baholash;

O`quv jarayoni bunday takrorlanadigan shaklga ega bo`lgani uchun modul xarakterini kasb etadi, alohida bloklarga ajratiladi, ular turli mazmunga, lekin umumiy tuzilishga ega bo`ladi. Pedagogika fanlari doktori professor O.Roziqov ta`lim texnologiyasining amaliy asosi-ta`lim loyihasini tayyorlash va loyihami amalga oshirishdan iborat bo`ladi deb ta`kidlaydi. Muallifning fikricha o`quv mashg`ulotlarini loyihalashda o`qituvchi ta`lim maqsadi, ta`lim mazmuni, dastur, darslik, ijodiy faoliyatga yo`naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o`qituvchitalabaning oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. Bunda o`quv dasturi, darsliklardan o`rin olgan har bir mavzuning talaba tomonidan to`liq o`zlashtirilishiga, bilim darajasining malakalarini mavjud bo`lgan talablar bilan taqqoslashga e`tibor qaratilishi kerak. O`quv jarayonini loyihalashda talabalarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzlucksiz nazorat qilishni e`tibordan chiqarmaslik kerak.

O`quv mashg`ulotining har qanday bosqichini loyihalanishiga texnologik jihatdan yondashilganda quyidagilarga erishiladi:

- ta`lim bosqichining umumiy maqsaddan kelib chiqib, oydinlashtirilgan maqsadni belgilash;
- oydinlashtirilgan maqsadga erishish uchun o`qitish shakllari, metodlari, vositalarini tanlash;
- tashxislangan o`zlashtirish natijalariga asoslanish;

Bunda o`quv jarayonini loyihalashtirishning o`ziga xos tomoni shundaki, ta`lim natiasi reproduktiv ravishda o`zlashtiriladigan bilim, ko`nikma va malakalar bilan chegaralanib qolmasdan, o`quv jarayoniga ijodiy, tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashish ham yo`lga qo`yiladi.

Shunday qilib, ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish, ya`ni ta`lim maqsadlarini oydinlashtirish, maqsadga ko`ra ta`lim natijalarini kafolatlash, ta`lim jarayonida talabalar faoliyatini mustaqillashtirish, faol va ijodiy ishlarni yo`lga qo`yish, o`quv jarayonini loyihalashtirish bu pedagogik texnologiyaga xos xususiyatdir.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, pedagogik texnologiyaga asos solgunga qadar, ta`lim tizimida o`quv jarayonini loyihalashni aniq va samarali qonun-qoidalari ishlab chiqilmagan. Faqat ta`lim va`zxonlikdan iborat bo`lib qolgan. Pedagogik texnologiya, o`qituvchiga o`qitish jarayonini loyihalashni amalga toshirish uchun keng faoliyat maydonini yaratib, bu kamchilikka barham berdi. Natijada ta`lim tizimida o`qish-o`qitish jarayonlarini loyihalash bo`yicha aniq va etarli qonun qoidalari olimlar tomonidan yaratilmoqda. Bu, ayni paytda pedagogikaga ijodiy kamolot yo`lini ohib berish deganidir.

Pedagogik texnologiyalarning o`ziga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, rejalahtirilgan o`quv maqsadlariga erishish uchun natija kafolatlanib, loyihalanadi va amalga oshiriladi. Bunda texnologik yonlashuv maydonga kelib, o`qituvchi talabaga bayon qiluvchi, ta`riflovchi, ma`lumotlarni xotirada saqlovchi loyihalashtirilgan natijaga erishishni ta`minlaydigan texnologik sxemani beradiki, oqibatda qayta tiklanadigan ta`lim tsikli vujudga keladi.

Bu ko`pgina pedagogik olimlarning fikriga ko`ra, o`qituvchining davriy ravishda davom etadigan harakat algoritmi bo`lib, ta`lim mazmunining yangi bo`limlariga takror-takror qo`llashi natijasida o`quv jarayoni o`z maqsadiga erishadi.

Bunday algoritmning aniqligi va muvaffaqiyatliligi o`quv maqsadlarini to`liq standartlashtirilgan tilga tarjima qilinishi orqali ta`minlanadi. Bunday standartlashtirish o`lchovi quyidagicha bo`lishi mumkin:

a) yuqori, biroq absolyut emas; b) absolyut

Birinchi holda, maqsadlarning murakkabligi, ularni to`liq kuzatuvchi harakatlar tiliga tarjima qilish imkonini bermaydi va tsikl butunlay qayta tiklanadigan hisoblanmaydi.

Ikkinci holda biz o`ziga xos konveyer jarayon hisoblangan reproduktiv tipdagi ta`lim bilan ish ko`ramiz.


Pedagogik texnologiyalar asosida ta`lim jarayonini tashkil qilishda loyihalash bosqichida eng yuqori malaka talab etiladi. Shu bois eng malakali metodistlar guruhi pedagogik texnologiyaning qoidalari va printsiplari asosida metodik materiallarni ishlab chiqadilar. Ana shunday materiallar mavjud bo`lganda pedagoglarning asosiy faoliyati tashkilotchilik va maslahat berish bilan bog`liq bo`ladi.

O`quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik xususiyati o`quv jarayonining yakuniy natijaga qarab borayotganligini kuzatish mumkin bo`ladi.

Umumiy holda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi: deb faraz qilish mumkin.

- identifikatsiyalanadigan (oydinlashtiriladigan) o`quv maqsadlarni ishlab chiqish;
- o`quv maqsadlarining taksonomiyasi (keng qamrovli guruhlanishi)ni ishlab chiqish;
- o`quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadlarga erishish metodi (qator qoida va pritsiplar)ni ishlab chiqish;
- o`quv maqsadlariga erishishni baholash.

Buni tashkil etuvchilarning har biri pedagogik operatsiyalarning optimallashgan tizimididan iboratdir.



Tuzatish (korrektsiya)	Natijalarga ko`ra
(faqat xususiy o`quv	Tuzatishlar (korrektsiya)
maqsadlar uchun)	

Shunday qilib, ta`lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning:


- a) ta`lim maqsadlari va natijalarini belgilashni;
- b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi (dars konspekti) ni ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo`llashni nazarda tutadi.

Pedagog odatda o`qitish davomida talabalar o`quv ma`lumotlarini qanchalik o`zlashtirganliklari, aniq bilimlarga ega bo`lganliklaridan xabardor bo`lsadagina, talaba (talaba)ni yangi bilimlar bilan qurollantira oladi. SHunga ko`ra o`qituvchi o`z oldiga talaba (talaba) o`quv axborotlari, ma`lumotlarining mazmunini tushunishi, o`zlashtirib olishi va amalda qo`llay olishni o`rgatishni o`z oldiga masqad qilib qo`yadi. Bu odatda o`quv maqsadi deb yuritiladi. Zero, u ta`lim jarayoni oxirida kutilayotgan natija tavsifidir. Ta`lim jarayoni ikki jonli mavjudotning ishtirokida kechganligi sababli o`qituvchi o`rgatish maqsadini, talaba maqsadini amalga oshiradi. SHunga asosan “O`quv maqsadlari bu – aniq ta`lim jarayonining yakunida ta`lim o`rganuvchilar tomonidan o`zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo`lgan tajriba, hatti-harakat bilan bog`liq bo`lgan amaliy vazifalarni bajara olishga yo`naltirilgan fazilatlar yig`indisi va ta`lim o`rgatuvchi tomonidan unga erishish uchun belgilangan faoliyat mezonidir”. Boshqacha qilib aytadigan bo`lsak, o`quv maqsadi oldindan ko`zlangan manzil hosilasidir. Zero, qanday ovqat pishirishni bilmasdan turib, ovqatga masalliq tayyorlashning ma`nosи yo`q. SHunday qilib, maqsad, faoliyat - mehnat natijasi ekan, uni loyihalash bugungi ta`limning dolzarb muammolaridan biridir.


Ta`lim maqsadining aniq loyihalanishi, o`qish davomida talabalar bilimlarni qanchalik o`zlashtirganliklaridan xabardorlik, talabaning harakatlari (faoliyat)ga asoslanib o`qitish, pedagogik texnologiyaning muhim jihatlaridir.

Jamiyat ta`lim sohasidagi buyurtmasi (maqsad) umumiy tarzda davlat boshlig'ining asarlari, nutqlarida davlat hujjatlarida xalq ta`limining me`yoriy va direktiv hujjatlari ifodalanadi. Agar bosh maqsad jamiyat – davlat buyurtmasidan – ta`lim tizimining maqsad vazifalariga, undan o`quv yurtining, o`quv predmetining, undan so`ng o`quv predmetining bo`limlari, mavzulari so`ngida ta`lim oluvchilarning o`quv maqsadi, vazifasiga qarab borilsa, unda quyidagi o`quv maqsadlar tizimi hosil bo`ladi.

O`quv maqsadlari tizimi



O`quv bo`lim (modul)larining maqsadlari



Jadvaldan shu narsa ko`zga namoyon bo`lmoqdaki, o`quv maqsadi, umumiylar maqsad shaxs barkamolligini ta`minlashdan kelib chiqar ekan. Bu ijtimoiy buyurtma sifatida davlat tomonidan qo`yiladi. Bu kadrlar tayyorlash milliy modelida ham o`z ifodasini topgan. Davlat buyurtmasidan kelib chiqib, ta`lim tizimi mazkur bo`g`inga kiruvchi ta`lim muassasalari oldida barkamol avlodni shakllantirishni maqsad qilib qo`yadi, bu o`z navbatida o`quv predmetlari ularning bo`limlari va ta`lim oluvchilarni mazkur maqsadni amalga oshirishga yo`naltiradi.

An`anaviy ta`lim tizimida, o`quv maqsadi mакtab, shu jumladan o`qituvchi, jamiyatning o`quv yurti oldidagi umumiylar buyurtmasi sifatida bayon etiladi. Hatto o`quv dasturlari, darslik, qo`llanmalarda ham o`quv maqsadlari umumiylar tavsiflangan bo`lib, uning yagona tarkibi yo`q. SHu bois pedagogik texnologiyaga asoslangan o`quv maqsadlarini ma`lum ketma-ketlikda ko`rish mumkin: jamiyatning umumiylar buyurtmasi ta`lim tizimida talabalar o`quv yurti vazifalari, o`quv predmeti majmuasi topshiriqlari, o`quv bo`limlari va nihoyat ta`lim oluvchilar o`quv maqsadlari shajerasi ko`zga tashlanadi.

M.V.Klarin o`zining “O`qitish jarayonida pedagogik texnologiya” nomli risolasida o`quv maqsadlarini turli mamlakatlarning o`qituvchilari faoliyati va ish uslublariga xos bo`lgan quyidagi tiniq metodlarni tavsiya etadi:

1. Maqsadlarni o`rganiladigan ta`lim mazmuni orqali belgilash.

O`qituvchi odatda, darsning maqsadini “Bobur lirkasini o`rganish” yoki “Birinchi bobning mazmunini o`zlashtirish” kabilar orqali boshlaydi. Bunda ta`lim maqsadi o`rganilayotgan predmetning, bo`limning mazmunini ko`rsatadi. Maqsad bunday ifodalanganda ta`lim maqsadi ta`lim oluvchilar tomonidan maqsadga erishilganlikni aniqlaydi, qiyinchilik tug`diradi. Keltirilgan misollardagi “maqsadlar” mavhum bo`lib ulardan maqsadga erishilganini o`lchab, aniqlab bo`lmaydi.

2. Ta`lim maqsadini o`qituvchi faoliyati orqali aniqlash.

“Z.M.Boburning badiiy pedagogik merosini o`rganish”, “10 yil ichida qo`sish amaliga doir misollar ishlatish”. Maqsadni bunday qo`yishda e`tibor muallimning faoliyatiga qaratiladi. Bunda ham pedagog faoliyatining real natijasini aniqlashda qiyinchilik tug`iladi.

3. Ta`lim maqsadlarini talabaning intellektual, emotsiyal, shaxsiy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash.

Masalan, “Kuzatilgan jonli tabiat hodisalarini tahlil etish malakasini hosil qilish”, ko`paytirish va bo`lishga doir amallarni mustaqil bajarish qobiliyatini o`sirish”, “Ekologik hodisalarga qiziqishni shakllantirish” kabilar. Ta`lim maqsadini bunday umumiy tarzda belgilash o`quv yurti, o`quv fani yoki bir guruh o`quv predmetlari darajasida bo`lishi mumkin. Lekin ayrim mashg`ulot, darsning maqsadini bunday keng ifodalash foydasiz. Bunda darsda, mashg`ulotda qanday natijaga erishilishini bilib bo`lmaydi.

4. Ta`lim maqsadini talabaning o`quv bilish faoliyati orqali belgilash.

“Mashg`ulotning maqsadi – yuz ichida qo`sish va ayirishga doir masalalar echish”. “Qiziqishni shakllantirish”, “Davlat ramzları to`g`risida tushunchani rivojlantirish”, “Adabiyot terminlarini o`rganish jarayonida nutqni rivojlantirish”. Bir qarashda ta`lim maqsadini bunday qo`yish mashg`ulotni rejalashtirish va o`tkazishda noaniqliklar kiritilganday bo`lib ko`rinadi. Bu erda ham fikrimizcha eng muhim narsa – kuzatiladigan natija, uning oqibati nazardan chetda qolmaydi. Maqsad umumiy belgilanib, har bir dars, mavzu maqsadi aniqlanmagan, oydinlashtirilmagan.

Pedagogik texnologiya tarafdarlari haqli ravishda ta`kidlaganlari-dek, ta`lim maqsadlarini predmed mazmuni, pedagog yoki talaba faoliyati jarayoni orqali aniqlash, ta`limning ko`zda tutilgan natijalari haqida to`la tasavvur bermaydi. Ular haqida mulohazani faqat tashqi ko`rinishi – talabaning tashqi ifodalangan faoliyati bo`yicha yuritish mumkin. Ta`lim natijasini aniqlashtirish maqsadini o`z oldiga qo`yan pedagog uning tashqi kuzatiladigan belgilari (nutq, harakat)ni maksimal ravishda to`liq ifodalashga intiladi. Ta`lim natijasini ifodalashni uning tashqi belgilarini ro`yxatga olish orqali amalga oshirishga urinish uni juda

soddalashtirib yuborish demakdir. Biroq ilmiy maqsadlarda ham, amaliy maqsadlarda ham murakkab hodisalarining soddalashtirilgan modellari zarur bo`ladi. Pedagogik texnologiya taklif qilayotgan o`quv maqsadlarini qo`yish metodi o`ta instrumentalligi bilan farq qiladi. Bu shundan iboratki, ta`lim maqsadlari ta`lim natijalari orqali ifodalab talabaning turli tuman faoliyatida namoyon bo`ladi. O`quv maqsadlari shunday faoliyatda ifodalanadiki, ularni o`qituvchi pedagog yoki boshqa biror ekspert aniq tanib olishi yoki o`lchashi uchun imkoniyat bo`ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, pedagogik texnologiyada ta`lim maqsadlari pedagog yoki boshqa biror ekspert tomonidan aniq tanib olinadigan yoki o`lchanadigan talabalarning faoliyatları bilan ifodalanuvchi ta`lim natijalari orqali qo`yiladi.

Kundalik amaliyotda pedagog va talaba uchun maqsadlarni alohida-alohida ifodalash qabul qilingan. Bu mantiqqa to`g`ri keladi, chunki ta`lim – bu pedagogni o`qitish bo`yicha va talabani o`qitish bo`yicha hamkorlikdagi faoliyatidir. Bunda “maqsad” o`qituvchi faoliyatiga taalluqli (o`rgatmoq, tushuntirmoq, namoyish qilmoq, hikoya qilmoq), ta`lim oluvchi talabalar harakati orqali ifodalangan rejalashtirilgan ta`lim natijalarini “vazifa”si deb aytildi.

Vazifani to`liq diagnostik qilish, ta`limni esa qayta tiklanadigan jarayonga aylantirish uchun har bir maqsadga erishish me`yorlarini o`rtaga qo`ymoq zarur, ya`ni o`quv maqsadlari shunday ifodalanishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq mulohaza yuritish mumkin bo`lsin. SHuni ta`kidlash lozimki, pedagogik adabiyotda vazifani (talabalar o`qishdan ko`zlangan natija deb tushunilganda) ba`zan oydinlashtirilgan o`quv maqsadlar deb ataydilar. “Vazifa” so`z bir necha ma`nolarga ega. Bundan buyon talabalar ta`lim natijalarini katta aniqlikda bayon qilish uchun teng xuquqli tushunchalar “vazifa” yoki “oydinlashtirilgan o`quv maqsad” bilan belgilaymiz.

To`liq identifikatsiyalangan o`quv maqsadlarini absolyut bir ma`noda bayon qilish g`oyasi o`zining eng so`nggi ifodasida talabalar o`quv faoliyatini an`anaviy noaniqlik, mujmallik tarzida emas, balki kuzatiladigan, o`lchanadigan hatti harakat terminlarida bayon qiladi.

Amerikalik olim, dasturli ta`limning asoschisi B.Skinnerning ta`kidlashicha ta`limga boshqacha yondashilganda, o`qituvchi o`qitish metodikasini ishlab chiqilmaganligi tufayli u ta`lim maqsadini qayta ta`riflashga majbur bo`ladi va ularni shunchalik noaniq ifodalaydiki, natijada ularning natijalarini eksperimentda tekshirib ko`rish mumkin bo`lmaydi.

O`qitish mazmuni odatda tematik yo`nalishga ega bo`lganligi bilan xarakterlanadi va unda aniq, qiymati o`quv maqsadlarini ajratish ma`lum qiyinchilik tug`diradi. Vazifalarni ta`riflashni engillashtirish uchun ularni bayon qilishda B.Farbermanning fikricha ta`lim oluvchilarning harakatini ifodalovchi fe`llar qo`llaniladi. Masalan:

- aniq faktni biladi;
- qoidani biladi;
- so`z bilan bayon qilingan materialni matematik ifodaga aylantira oladi;
- sxemani tushuntiradi; (grafik, diagramma va h.k.)
- mavjud ma`lumotlardan xulosa chiqaradi;
- tushunchani yangi vaziyatda ishlata oladi;
- qoidani (qonun, nazariy holat)ni qo`llaydi;
- hammaga tanish qoidani yangi vaziyatda to`g`ri ishlatilishini namoyish qiladi;
- noaniq taxminlarni ajratadi;
- mulohaza, fikrlash mantiqidagi xato va kamchiliklarni topadi;

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, fe`llar umumiylar xarakterga ham aniqroq xarakterga ham ega bo`lishi mumkin. Masalan:

O`rganmoq	belgilamoq
Aniqlamoq (bilib olmoq)	ajratmoq
Tanishmoq	guruuhlamoq
Tushunmoq	tuzatmoq

“Vazifa” (identifikatsiyalangan o`quv maqsadlari) uchun o`qish jarayonida talaba bajara oladigan aniq operatsiyalarni va ularni bayon qilishni yoki

o`lchashni aniq ifodalovchi fe`llarga ustunlik berilishi lozim. Ular o`ng tomondagi ustunda keltirilgan:

Jumladan, maqsadlarni 2 ta ta`rifidan:

1. Talaba qoidalarni o`zlashtiradi va
2. Talaba qoidalalar bilan tanishadi (yoki yangi) vaziyatda qo`llaydigan-ikkinchi ta`rifni aniqroq tanlashi zarur.

“Oydinlashtirilgan o`quv maqsad(vazifa)larni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshirilib, u quyidagi sxema bo`yicha: o`quv masalani o`rganishning umumiyl maqsadi – xususiy o`quv maqsadi – inden-tifikatsiyalangan o`quv maqsad (vazifa)ga asta-sekin o`tish bilan yakunlanadi.

Mazkur ifodalardan umumlashgan ta`lim maqsadlarni o`quv yurti, o`quv predmeti yoki predmetlar turkumi darajasidagi maqsadlarni bilib olamiz. Ayni paytda bizga alohida mashg`ulot (darC) yoki darslar turkumi darajasidagi maqsadlarni aniqlash ham juda muhimdir.

Biroq vazifa (identifikatsiyalanadigan o`quv maqsad)larni aniq ifodalashda qiyinchiliklar bo`lishi tabiiydir. Ba`zi hollarda ta`lim natijasi alohida-alohida tarkibiy qismlarga bo`linadi va element bo`yicha ishlov beriladi. SHu bois identifikatsiyalanadigan o`quv maqsadlar va ularni test topshiriqlariga o`tkazish sxemasi to`lig`icha ishlaydi.

Boshqa hollarda bir butun uni tashkil etuvchi qismlarni yig`indisiga teng bo`lmaydi yoki bu qismlarni bir ma`noda bayon qilish qiyin. Bu holda ham o`quv maqsadlarni identifikatsiyalash mumkin, biroq u qiyin kechadi.

Shuni ta`kidlash lozimki, pedagog oldida hamisha tanlash turadi: reproduktiv ramkalar bilan chegaralaydigan “qattiq” identifikatsiyalana-digan maqsaddan foydalanish zarurmi yoki ta`limni qidiruv metodida foydalanishga imkon beradigan ta`limning noaniqroq maqsadlarini ifodalash maqsadga muvofiqmi. M.V.Klarin ta`kidlaganidek, biz ijodiy xarakterdagи maqsadlarga murojaat qilishimiz bilanoq, ularning belgi (aniq o`quv natija)larini bir ma`noda, to`liq ob`ektiv bayon qilish imkoniyati bir muncha pasayadi.

O`qituvchining bahosi ekspert tarzida bo`lib u ko`p jihatdan intuitiv bo`lib qoladi va uning madaniy darajasiga, ijodiy tafakkur qilish imkoniyatiga bog`liq bo`ladi. SHu boisdan ham “o`quv maqsadlarining “qattiq”xarakteri bir muncha yumshatilishi zarur va ijodiy xarakter tipidagi maqsadlarni bayon qilishda ma`lum hissa noaniqlikni bo`lishiga ko`nikishimiz kerak”. (Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse-M.Znanie.1989).

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda B.Blumning taksonomiyasiga muvofiq umumiyoq ta`lim maqsadlaridan foylaniladi. “Taksonomiya” tushunchasi ob`ektlarning o`zaro tabiiy ko`rinishi asosida ierarxik (ko`p bosqichli) printsipi bo`yicha joylashgan ob`ektlar kategoriyasi bayonini o`z ichiga oluvchi ob`ektlar tasnifi va tizimlanishini ifodalaydi. Taksonomiya – ob`ektlarni – ularni tabiiy bog`lanishlari asosida tasniflash va tizimlashtirishni bildiradi. B.Blumning o`quv maqsadlari taksonomiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

B.Brumming bilish sohasida o`quv maqsadlar taksonomiyasi

№	O`quv maqsadlarining asosiy kategoriyalari	Tur	Kenja tur xarakteristikaları
1	Bilim. Mazkur kategoriya o`rganilgan materialni xotirada saqlash va xuddi o`ziday qilib qayta aytib berishni ifodalaydi. Gap turli xil mazmun aniq faktlardan tortib to yaxlit nazariyagacha ustida keta-yapti. Bu kategoriyani esga, xotiraga keltirishdan	Faktni bilish, faktlarni tanlash metodlarni bilish. Umumiy tushuncha, struktura, nazariyalarni bilish	Termonologiyani bilish, aniq faktlarni bilish, belgilangan belgilarni bilish. Rivojlanish tendentsiyalarini bilish. Guruhlashni bilish, tekshirish va baholash mezonlarini bilish. Aniq muammo bo`yicha mazkur sohada qo`llanilayotgan tadqiqot metodlarini bilish. Hodisalarini tushuntirish va sharhlab berish va ularni oldindan ko`rish, bashorat qilish uchun zarur qonun va printsiplarini bilish,

	iborat.		nazariya va struk-turalarini bilish.
2	<p>Tushunish.</p> <p>O`rganilganni ahamiyatini tushunish qobiliyatini ko`rsatgichi sifatida materialni ifodalashni bir shakldan boshqa tilga o`tkazish xizmat qilish mumkin. Tushunishni ko`rsatgichi sifatida talaba tomonidan materialni tushuntirib berish, uni qisqa bayon qila olish yoki voqeani kelgusida qanday kechishi haqida taklif kiritishi xizmat qilishi mumkin. Talabanning mazkur o`quv natijalari materialni oddiy eslashdan yuqori turadi.</p>		<p>Mazmunni bir tildan boshqa tilga transfer qilish. Interpretatsiyalash. (izohlash, talqin qilish) Ekstrapoletsiya (mazmunni o`xshatish asosida o`tkazish)</p>
3	<p>Metod, qoida, umumiyl tushunchalarni qo`llash.</p> <p>Bu erda qoida, metod, tushuncha, printsip, qoida-larni qo`llash kiradi. Tegishli ta`lim natijala-ri materialni</p>		Metod, qoida, umumiyl tushunchalarni qo`llash.

	tushunishga nisbatan yuqoriroq daraja-da uni egallahshi talab qiladi.		
4	Tahlil. YA`ni butunni elementlarga bo`lishni amalgamoshirish ko`nikmasi, ushbu elementlar gradatsiyasi va ular orasidagi munosabatlarni o`rnatish, butunni tashkil etish printsiplarini anglash. Bu erda o`quv natijalari tushunish va qo`llashga nisbatan yuqori intellek-tual darajaligi bilan xarakterlanadi, chunki o`quv materiali mazmunini ham uning ichki tuzilishini ham anglash talab etiladi.		Elementlar tahlili. elementlar orasidagi munosa-batlar tahlili.
5	Sintez. YA`ni yangi strukturani olish maqsadida berilgan elemetlaridan butun, yaxlitni yaratish. Tegishli natijalar yangi sxema va strukturalarni yaratishga urg`u		Insho yozish. Faoliyat rejasini ishlab chiqish. Ayrim mate-riallar asosida butunning, yaxlitning obrazini ko`rini-shini yaratish.

	beruvchi ijodiy xarakterdagi faoliyatni taqozo etadi.		
6	Baholash. Qabul qilingan maqsadlarni hisobga olib material va metodlarni baholash.		Ichki mezonlar (strukturaviy, mantiqiy) asosda baholash. Tashqi mezonlar asosida baholash (belgilangan maqsadga mos ravishda).

Mazkur o`quv maqsadlar taksonomiyasi dunyoda eng ko`p tarqalganlardan biri hisoblanadi. U test topshiriqlarini ishlab chiqaruvchilarga o`quv materiali elementini mazkur taksonomiyadagi o`quv maqsadlari kategoriyasini biri bilan bog`lanishini aniqlashga imkon beradi. Bu esa test topshiriqlari mazmunini izlash sohasini sezilarli darajada toraytiradi va turli variantlarni ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratadi.

B.Blum taksonomiyasini qo`llash (identifikatsiyalangan o`quv maqsadlarini ifodalashda qiyinchilik tug`ilganda) umumiyligi o`quv maqsadlarni shakllantirishga imkon beradi.

B.Blum taksonomiyasidan foydalanib pedagog faqatgina maqsadni ajratib va aniqlashtirib qolmasdan, balki ularni tartibga keltiradi. Maqsadlarni ierarxik klassifikatsiyasi pedagog amaliyotchi uchun quyidagi sabablarga ko`ra muhimdir:

- kuchni bosh masalaga to`plash;
- aniq o`quv maqsadlar pedagogga talabalarning umumiyligi ishida ularga orientirlarni tushuntirishga; ularni muhokama qilishga, tushunish uchun oydin qilishga imkon beradi.

Test topshiriqlarni ishlab chiqishda B.Blum taksonomiyasidan ketma-ketlikda foydalanishning turli variantlari mavjud. Ulardan birini yuqorida eslagan edik. Identifikatsiyalananadigan o`quv maqsadlarini ifoda qilishda qiyinchilik tug`ilsa B.Blum taksonomiyasi bo`yicha o`quv maqsadlar kategoriyasiga o`tish zarur.

Ammo boshqa variant ham bo`lishi mumkin-dastlab B.Blum taksonomiyasini identifikatsiyalangan o`quv maqsadlarini ishlab chiqishni osonlashtirish uchun qo`llash zarur. Bu holda “bilim”, “tushunish”, “qo`llash”, “tahlil”, “sintez” va h.k. kategoriyalarda umumiyoq o`quv maqsad aniqlanadi, keyin esa ta`limning kuzatiladigan natijasiga eng ko`p mos keladigan fe`llar tanlab olinadi. YAngi pedagogik ta`lim bugungi kunda barcha o`quv yurtlari bitirib chiqarayotgan yoshlar qanday ilmiy bilim, ko`nikma malakalariga ega bo`lishlari bunday o`zлari va jamiyat uchun qanday foyda keltirishlari to`g`risida o`ylashlari, qayg`urishlari tabiiydir. Zero, yangi XXI asrning ilmiy texnikaviy taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarishning ko`p sonli tarmoqlari uchun, balki ma`naviy madaniy, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarida ham muhokamali, ilmiy axborot, ma`lumotlarga ega bo`lgan, fanni ishlab chiqarish bilan, hayot bilan bog`lab olib borishga qodir shaxslar kerakligini taqozo qilmoqda.

Buni chuqur his etgan mamlakatimiz rahbariyati “Ta`lim to`g`risida” gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ni qabul qilib unda Milliy istiqlol salohiyatini mustahkamlash va beqiyos rivojlantirishni ta`minlay oladigan uzluksiz ta`limni tashkil etadilar va uning jahon talablari doirasida bo`lishi hamda u yuksak ma`naviyat zaminida ko`rilihiga ahamiyat berdilar. SHunday qilib mamlakatda yangilashga sifat jihatidan jahon andozalariga mos keladigan uzluksiz ta`lim tizimi yaratildiki, u mustaqil demokratik O`zbekistonimizni jahon hamjihatligida ijtimoiy - iqtisodiy, ma`naviy - madaniy mavqeini mustahkamlashga asos soladi. Ijtimoiy - iqtisodiy mustahkamlanib, ma`naviy-madaniy yuksalishga asos qo`yiladi bu esa ta`lim turlarini qadrlashni taqozo etadi. Endi fikrimiz shu to`g`rida mamlakatda ta`lim tizimini yangilanganligi, ta`lim mazmunini yangilanishga olib keldi, yangi darsliklar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari yaratish amaliyoti oxiriga etkazilayotgan bir vaqtda o`qitish jarayonida ta`lim turlarini umumiyl o`rta, o`rta-maxsus, oliy ta`lim muktablarida o`qitish turlarini har xillashtirish maqsadga muvofiqdir.

SHu o`rinda, shuni alohida e`tirof etib o`tish joizki, pedagogik jarayon bu ta`lim maqsadlari sari o`qituvchi va talabanining hamkorlikdagi harakatidir.

SHunday ekan ta`lim ya`ni o`qitish jarayonida ta`lim turlarini har xillash mazmunini o`qituvchi ham, talaba ham bilishi zarur. Zero, talabalarining o`quv tarbiya jarayonida sust (passiB) yoki faol (aktiB) ishtirok etishi, ta`limning xotira yoki tafakkurga mo`ljallanganligi, ta`lim metodlari, vositalari natijalariga ko`ra izohli-ko`rgazmali, muammoli, topshiriqli, differentsial, programmalaشتirilgan, algoritmlashtirilgan, kabi turlarga ajratilgan. (O.Rozikov, S.Og`aev va boshqalar “Didaktika” -T. “Fan”, 1997, 164 –bet).

SHunday qilib o`qitish, o`rgatish, o`qish, o`rganish, tushunish, anglash, xulosa qilish jarayonini tashkil etilishida o`quvma`lumotlarining tuzilishida, ta`lim metodlari va vositalarining qo`llanilishidgi o`ziga xos xususiyatlar hamda ular ta`sirida qo`lga kiritilgan natijalar, o`qituvchi-talaba faoliyatining tuzilmasiga qarab ko`rgazmali-izohli, muammoli, dasturlashtirilgan, differentsial, individual, komp'yuterli ta`lim turlarini ajratib ko`rsatish mumkin.

Ko`rgazmali-izohli o`qitish texnologiyasi.

Ma`lumki o`quv ma`lumotlari o`qituvchi-talaba hamkorligida qo`lga kiritiladi Har ikkala ishtirokchining ta`sirida faoliyat vositasi va bilimlarni o`zlashtirish jarayoni idrok qilish, tushunish, anglash, umumlashtirish, mustahkamlash, amalda qo`llash kabi operatsiyalarda amalga oshadi. Ko`rgazmali-izohli ta`lim turida talabalar bayon qilgan ma`lumotlar, narsa va hodisalarini idrok qiladilar, tushunadilar, mustahkamlaydilar va amalda qo`llaydilar. Bu hozirgi kun maktablarida eng ko`p qo`llaniladigan ta`lim turlaridan biridir.


Ko`rgazmali- izohli ta`lim texnologiyasi-bu ko`rgazmalardan foydalanishga asoslangan o`qitishdir.


Uni hazirgi davr nuqtai nazaridan izohlaydigan bo`lsak, ko`rgazmali-namoyishlar yordamida “o`qituvchi-talaba” munosabati emas “talaba-o`qituvchi” munosabatida yangi axborotlar ko`rgazmaga qarab talaba tomonidan izohlanmog`i darkor. Professor O. Roziqovning ta`kidlashicha ko`rgazmali-tushuntiruvchi ta`lim bolalar xotirasiga mo`ljallab tashkil etiladi (O.Rozikov, S. Ogaev va boshqa.Didaktik,-T., 1997. 171-bet)

Ko`rgazmali –tushuntiruvchi ta`limning maqsadi –mavjud ilmiy bilimlarni o`zlashtirish, talabalarni fan asoslari bilan qurollantirib, kerakli ko`nikma va malakalarni hosil qilishdir. SHunga asosan ko`rgazmali –tushuntiruvchi ta`limda o`qituvchi fandagi tayyor ilmiy xulosalarni kurgazmali tushuntirish metodidan foydalanib bayon qiladi, o`zi tahlil qiladi, yangi tushunchalar, teoremlar, qonunlar va hokazolar mohiyatini o`zi tushuntiradi va ta`riflaydi. Talabalar o`qituvchi tushuntirgancharni tinglaydilar, idrok etadilar, anglab oladilar, misollar yordamida mustahkamlab, amalda qo`llash yo`llarini o`rganadilar.

Tajriba, eksperiment, kuzatish yo`li bilan yangi faktlarni shrganish ham o`qituvchi tomonidan amlga oshirilib umumlashtiriladi. YAngi ma`lumot, axborotla murakkab bo`lsa, o`qituvchi shunga batafsil tushuntiradi. O`zlashtirib olingan ma`lumot, axborot va materiallar ijodiy faoliyatni talab o`ilmaydigan operatsiyalaryordamida amalga oshadi. Bunday ta`limda talabalarda diqqat, esda saqlash , qayta xotirlash rivojlanadi.ammo mustaqil fikrlash shakllanmaydi. SHunday qilib, ko`rgazmali ta`lim-bu o`qituvchi yordamida va tushuntirishlari izohli umumlashtirishlari, tahlillari asosida fandagi tayyor xulosalarni talabalar tomonidan idrok qilish, esda saqlash, qayta xotiralashga qaratilgan o`qish-bilish faoliyatidir.

Aytib o`tilgan, ta`riflangan ta`lim turini “Ta`lim to`g`risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talab qilgan yangi pedagogik texnologiyani o`qitish jarayonida tadbiq etishga qaratilgan qiyosiy blok sxemasini keltiramiz.





Muammoli ta`lim texnologiyasi

Pedagogik manbalarda ta`kidlashicha muammoli ta`limga XX asrning 20-30 – yillarida asos solindi. Dastlab Amerikalik filosof, psixolog va pedagoglar ta`limning ijtimoiy, konstruktiv, ilmiy-tadqiqiy xususiyati va asoslaridan kelib chiqib, muammoli o`qitish to`g`risida fikr yuritdilar. Keyinchalik 50-yillarda Pol'shada (Vintsenti Okon'), 60-yillarda Sobiq SSSRda (M.I.Maxmutov, I.YA.Lerner) muammoli ta`limning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqdilar.

Bugungi kunda, qaysikim talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko`rsatishlariga e`tibor kuchaygan, o`qitish jarayonida talaba ta`lim sub`ektiga aylangan bir davrda muammoli o`qitishning ahamiyati kuchaydi. Zero, muammoli ta`limning maqsadi ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni ochishga qaratilgan talabaning mustaqil faoliyati, ijodiy qobiliyatini o`stirish orqali o`qitish jarayoni natijalarini maqsadli o`zlashtirishdir. Muammoli ta`limni tashkil qilish orqali talabaning tadqiqot o`quv - biluv faoliyatini yo`lga qo`yish va shu asosda o`quv predmetidagi ma`lumotlarni, xulosalarni mustaqil o`rganish chiqarish operatsiyalari amalga oshiriladi. Muammoli o`qitishda o`qituvchi faoliyatining mazmuni shundan iborat bo`ladiki, u eng murakkab tushunchalarni, faktlarni tushuntira borib zarur

daqiqalarda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va muammoni hal qilishga talabaning o`zini yo`llaydi. Oqibat – natijada talabalar faoliyati shunday tashkil qilinadiki, bunda ular faktlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar, umumlashmalar hosil qiladilar. Tushuncha, qoida, teoremalar, qonuniyatlarni ifodalanishini aytib berishdan, yangi vaziyatlarni rejalshtirish, konstruktsiyalash, ixtiro qilish yoki insho yozish, matn tuzish, she`r yozish, rasm chizish kabi ishlarini mustaqil qo`llash malakasi hosil bo`ladi, diqqat, iroda, ijodiy tasavvur, faraz qilish, tahlil qilish rivojlanadi. SHunday qilib, muammoli o`qitish ijrochilikdan, ijodiylikka yo`naltirilgan ta`limda.


Professor O.Rozikovning yozishicha amaliyotda muammoli ta`limning bir necha variantlari qo`llanilishi mumkin: jumladan mashg`ulotlarda muammolarni qo`yish va bajarishga qaratilgan muammoli ta`lim: mashg`ulotlarning boshlanishida muammolarni qo`yish (qo`yilgan muammoni yo`nalishiga hal etishadi, yo`qituvchi o`zi bajaradi) va uning echimiga asoslanib bilimlarni bayon etishga yo`naltirilgan muammoli ta`lim; o`quv materialining bir qismini izohli – ko`rgazmali, o`qitish orqali qolgan qismini problemali ta`lim shaklida o`rganish”. (Qarang: O.Roziqov, S.YU.Otaev va boshqalar. Didaktika.-Toshkent, “Fan”, 1997 y. 174-bet).

Muammoli o`qitish, ta`limning eng samarali turlaridan biridir, unda ilmiy bilimlar mantiqi o`zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. O`qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, talabani uni echishga yo`naltiradi, echimini izlashni tashkil etadi. Buning uchun undan mahorat, pedagogik bilim talab etiladi.

Muammoli ta`lim o`quv mashg`ulotlarining turi bo`lib, unda o`qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar yaratilib, uni echish uchun talabalar faol mustaqil faoliyati tashkil etiladi. Buni 2-jadvalda ko`rish mumkin.

Jadval 2

Muammoli ta`limning umumiyl tuzilishi.



Ko`rib o`tganimizdek muammoli ta`lim texnologiyasini to`la amalga oshirish ta`lim-tarbiya muassasalari oldida turgan muammolarni echishga amaliy yordam ko`rsatadi, hamda:

- talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatadi va ijodiy qobiliyatlarini o`stiradi;
- ilmiy bilimlarni mustaqil qo`lga kiritish va amalda qo`llash metodlarini o`zlashtirish imkonini yaratadi;
- egallagan bilimlar asosida ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllanishiga imkon tug`iladi;
- bilimlarni ijodiy o`zlashtirish, tahlil qilish, amalda qo`llash ko`nikmalari hosil qilinadi;
- ijodiy faoliyat tajribasi tarkib toptiriladi.

Dasturlashtirilgan ta`lim texnologiyasi.

Ta`limning ushbu turiga XX asrning 50-yillarida asos solindi. U AQSH va Buyuk Britaniya ta`lim muassasalari faoliyatda keng qo`llanildi. O`qitishning dasturlashtirilgan ta`lim turi amerikalik psixolog B.Skiner tomonidan ilmiy nazariy asoslangan dasturlashtirilgan ta`lim turida o`quv ma`lumotlari uncha katta bo`lmagan, ammo bir - biri bilan mantiqiy bog`langan o`quv dasturining ma`lum blokining dozalariga bo`linadi va o`zlashtiriladi. Mazkur ta`lim turida o`quv materiallari o`qitishning ketma-ketlik, izchillik, tizimli printsipiga asoslanib dasturdagi axborot, tushuncha, ma`lumotlar osondan qiyingacha, aniqdan noaniqqa, oddiydan murakkabga qoidasiga rioya qilingan holda tuziladi. Dastur asosida tuzilgan dozalarga bo`linib o`rganilgan o`quv ma`lumotlari nazorat qilinib, tekshiriladi. Ma`lum dozadagi o`quv materiali o`zlashtirilganligiga ishonch hosil qilingach, yangi doza ma`lumotlari talabalar diqqatiga havola qilinadi. “Dasturlashtirilgan o`qitish, - deb yozadi, professor N.X.Avliyoqulov, - bu dasturlashtirilgan o`quv materialining o`qituvchi, vosita yordamida boshqariladigan o`zlashtirishdir”. (Qarang. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari.) Demak dasturlashtirilgan ta`limda talabalar o`quv materialini

o`qituvchidan o`quv vositalari (EXM, dasturlashtirilgan darslik, komp'yuter, kinotrenajyor va boshqalar)dan o`zlashtiradilar. Dasturlashtirilgan ta`lim ham talabaning mantiqiy fikr yuritishiga, xulosalar chiqarishiga ko`maklashuvchi ta`lim bo`lib, o`quv ma`lumotini zudlik bilan nazorat qilish yo`l qo`yilgan nuqsonlarni oldini olishga yordamlashadi. Buni biz akademik YU.K.Babanskiy ishlab chiqqan dasturlashtirilgan ta`lim turining xususiyatini aniqlashga yordam beruvchi o`qituvchi-talaba faoliyatini tashkil etishini quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin.

2- jalval

O`qituvchi (darslik, komp'yuter)	Talaba
-o`quv materialining dastlabki miqdorini ma`lum qiladi;	-materialning dastlabki miqdorini idrok qiladi;
-o`quv materialining dastlabki miqdorini tushuntiradi;	-mazkur miqdor mohiyatini faxmlaydi va tushunadi;
-nazorat qiluvchi savollar qo`yadi (o`rganilgan miqdorlar bo`yicha;	-savollarga javob beradi;
-javoblar to`g`ri bo`lsa, yangi miqdorlar ma`lum qilinadi;	-yangi ma`lum qilingan miqdorlarni idrok qiladi

Mazkur mavzuga doir ma`lumotlar o`zlashtirilgandan so`ng, o`qituvchi va talabaning faoliyati quyidagicha tuziladi:

O`qituvchi (darslik, komp'yuter)	Talaba
-mustahkamlashga doir topshiriq beradi;	- mustahkamlashga doir topshiriq bajaradi;
-o`zlashtirilgan ma`lumotni amalga qo`llash bo`yicha topshiriq beradi;	-o`zlashtirilgan ma`lumotni qo`llashga doir topshiriqni bajaradi;

O`quv ma`lumotlarini zudlik bilan nazorat qilish, kamchiliklarini tuzatishga imkon yaratadi va o`zlashtirilgan o`quv ma`lumotlarning mustahkamlanishi, tafakkurni rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Differentsial ta`lim texnologiyasi.

Ma`lumki, ta`limning asosiy maqsadi talabani rivojlantirishdir. Talabani ta`lim jarayonida maqsadli rivojlantirish uchun har bir talabaning fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bu pedagogik – psixologik adabiyotlarda individual xususiyatlar deb yuritiladi. Talabaning individual farqlari rivojlanganlik darjasи, o`qishga tayyorgarligi (qobiliyat, iqtidor)ni inobatga olib o`quv jarayonini tashkil etish ta`limni individuallashtirish, deb yuritiladi.

Didaktika fanida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olib tashkil etilgan ta`limni differentsial ta`lim deb atash qabul qilingan. Ta`limda talabaga differentsiallashgan holatda yondoshish g`oyasi 70-yillarda rus pedagogi E.YA. Golant tomonidan ishlab chiqildi. Differentsial ta`limda talabaning qobiliyati, bilim olish darjasи, imkoniyatlari hisobga olinishi qayd qilinadi. Differentsial ta`limda talabalarning individual xususiyatlari, ta`lim xususiyatlari hisobga olinib o`quv topshiriqlari tuziladi.


Pedagogika fanlari doktori, professor O.R.Roziqovning ta`kidlashicha differentsial ta`lim o`z mohiyatiga ko`ra ichki va tashqi differentsiyaga bo`linadi. Ichki differentsiyada bir guruh ichida talabalarni (yuqori, o`rta, past darajadagi) bilimi bo`yicha guruhlarga ajratib, o`quv topshiriqlarini tanlash va ishslash tempini (tez, o`rta, sekin) tashkil qilish orqali amalga oshirilsa, tashqi differentsiyada talabalar qiziqishlari, psixologik xususiyatlariga qarab alohida guruhlar yoki maktablar tashkil qilish kiradi. Bunda har bir guruh yoki maktab (tabiiy fanlar, gumanitar fanlar, ishlab-chiqarish fanlar)i bo`yicha alohida – alohida o`quv rejalar, dasturlari, darsliklari tuziladi va ish olib boriladi. Tuziladigan o`quv rejasi, dasturi, darsliklarda albatta shu guruh, maktab talabalarining qiziqishi, qobiliyati, iste`dodi hisobga olinadi.

SHunday qilib talabalarni individual psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o`qitish darjasи, metodlari asosida guruhshtirilgan ta`lim turi differentsial ta`lim deb ataladi.

Differentsial ta`lim turining ko`rinishi 3-jadvalda ko`rsatilgan

Maqsadi:

Yo`riqnomasi:



O`qitish jarayonini differentsiyallash har bir talabaning imkoniyati, qobiliyati, qiziqishini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta`lim hisoblanib, “o`qish hamma uchun qiziq, hamma uchun quvonarli” qoidasiga asoslanadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O`qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari.
2. O`quv maqsadlari, turlari va ularni loyihalash deganda nima tushiniladi?
3. O`quv maqsadlarini oydinlashtirish deganda nima tushiniladi?
4. Ta`lim jarayoniga yangicha yondashuv - davr talabi deganda nimani tushunasiz?
5. Ta`lim jarayoniga an`anaviy (izohli-ko`rsatmali) yondashuv deganda nima tushiniladi?
6. Ta`lim jarayoniga tadqiqiy-ijodiy yondashuv deganda nima tushiniladi?.
7. Ta`limga tizimli yondashuv va uning pedagogik –psixologik ahamiyati deganda nima tushiniladi?
8. Ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni loyihalash metodi deganda nima tushiniladi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Aksiomatik yondashuvga izoh bering.
2. Modulli-muammoli yondashuvga izoh bering.
3. B.Brum taksonomiyasi bo`yicha toifalashni izohlang.
4. O`qitish jarayonining umumlashgan pedagogik texnologiyalariga izoh bering.

TESTLAR

- 1. Ta`lim jarayonining umumlashgan pedagogik texnologiyalar aniq ko`rsatilgan javobni toping.**
A) muammoli va dasturlashtirilgan o`qitish
B) mujassamlashtirilgan va ijodiy – tadqiqiy ta`lim
C) tabaqlashtirilgan, dasturlashtirilgan va rivojlantiruvchi ta`lim

*D) dasturlashtirilgan, mujassamlashtirilgan, muammoli, modulli, rivojlantiruvchi va faol o`qitish

2. O`qitishning shaxsga yo`naltirilgan texnologiyasiga taalluqli bo`lib, muammoli vaziyatlarni namoyish etuvchi, talabani mustaqil fikrlashga, masalani mustaqil echishga undovchi ta`lim bu... o`qitishdir.

- A) dasturlashtirilgan
- B) muammoli
- C) modulli*
- *D)rivojlantiruvchi

3. O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi mezonlari qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?

- A) Pedagogik natijaviylik, metodlar va o`qitish shakllarini aniq belgilay olish, vositalarni qo`llash
- *B) pedagogik natijaviylik, maqsadni tashxis asosida belgilash, faoliyatning ilmiylik darajasi ilmiy-metodik, texnik bilimdonlik, ekstentiv sharoitda ish yurita olish
- C) Pedagogik natijaviylik, maqsadni oydinlashtira olish, mashg`ulot loyihalash qobiliyati
- D) pedagogik natijaviylik, ekstentiv faoliyat, ta`lim metodlari va shakllarini aniq tanlay olish

4. O`quv maqsadlariga erishilganlikni o`tkazilish vaqtiga ko`ra turlari aniq ko`rsatilgan javobni ko`rsating.

- A) Mezonga asosan baholash, me`yorga asosan baholash
- B) Og`zaki baholash, yozma baholash, test orqali baholash
- *C) Boshlang`ich (joriy), ya`ni shakllantiruvchi baholash, oraliq (rivojlantiruvchi) baholash, yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash
- D) Og`zaki baholash, joriy baholash, mezonga asosan baholash

5. Darsga tayyorlanish jarayonida ta`lim mazmunini belgilovchi qanday hujjalarga tayanadi?

- A) o`quv rejasiga
- B) o`quv dasturiga
- *C) DTS asosidagi o`quv dasturi, darslik va o`quv qo`llanmalariga
- D) o`quv qo`llanmasiga

6. O`quv-tarbiya jarayonida texnika, imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida darsning standart va optimal loyihasini tuzib, uning natijasini oldinda kafolatlaydigan dars qanday dars deb ataladi?

- A) aralash tipdagi dars
- B) yangi bilimlar berish darsi
- *C) yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan dars
- D) lektsiya-munozara darsi.

7. “Pedagogik texnologiya”ning muhim belgilari ko`rsatilgan javobni aniqlang.

- *A) Ta`lim jarayonini oldindan loyihalash, loyihani o`quvchilar bilan qayta ishlab chiqish, maqsadni real, aniq, diagnostik tahlil asosida belgilash.
- B) O`qitish jarayonida o`quvchi faoliyatini tasvirlaydigan loyihani tizimli yondoshuv asosida qurib, texnik vositalar va inson salohiyatini inobatga olish.
- C) Mavzu mazmunini o`quv vazifalari shaklida oydinlashtirib, bilim o`zlashtirish jarayonini uzluksiz kuzatib, yo`l qo`yilgan xatoni aniqlab tuzatib borish
- D) Barcha javoblar to`g`ri

8. “Texnologiya” tushunchasining ta`rifi aniq keltirilgan javobni ko`rsating

- A) Texnologiya – ishlab chiqarish jarayoni
- B) Texnologiya – tayyor mahsulot olish usuli
- C) Texnologiya – buyumni tayyorlash metodlari
- *D) Texnologiya – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo`llaniladigan usul va metodlar majmui.

9. Evristik suhbat maqsadi:

- *A) Mohirlik bilan qo`yilgan savollar yordamida yangi bilimlarni jadal o`zlashtirilishini ta`minlash;
- B) Talaba-o`quvchilarni tirishqoqligini ta`minlash;
- C) O`quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashlari tufayli yangi bilimlarni o`zlashtirilishini ta`minlash;
- D) O`quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashlarini shakllantirish.

10. Germenevtik suhbatning maqsadi:

- *A) O`rganilayotgan matnning asl ma`no va mazmunini o`quvchi-talabalar bilan hamkorlikda talqin qilish;
- B) Bahs-munozara san`atiga o`rgatish, guruhlarda ishlash ko`nikmasini hosil qilish;
- C) O`quv materiallarini takrorlash, mustahkamlash, tahlil qilish;
- D) Bilimlarni jadal va samarali egallahshlarini ta`minlash.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Avliyakulov N.H. Zamonaviy o`qtish texnologiyalari. O`quv qo`llanma. -T: 2001. – 68 b.
2. Avliyakulov N.X. Prakticheskie osnovy modulnoy sistemy obucheniya i pedagogicheskoy texnologii. Uchebnoe posobie, - Buxara: 2001. - 99 s.

3. Azizzxo`javeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi- : O'zbekiston, 1999.-29 b.
5. Ismoilova Z.K.- "Pedagogikadan amaliy mashg`ulotlar"- Toshkent, Fan nashriyoti, 2001yil.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. - T.,Moliya, 2003.
7. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T., O'zMU qoshidagi OPI, 2003.
8. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b.
9. Farberman B. A., Musina R.G., Jumaboeva F.A. "Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari". - Toshkent, 2002,- 192 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru
www.ise.Iip.Net.

MODULNING UMUMIY MAQSADI: pedagogik mahoratning tarkibiytuzilishi, asosiy tarmoqlari, fanlar tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan bog'liqligiga oid nazariy bilim berish, fanga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- ta'limiylar maqsad: *talabalarga pedagogik mahorat va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;*
- tarbiyaviy maqsad: *talabalarda pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;*
- rivojlantiruvchi maqsad: *talabalarining pedagogik yetuklik darajasini, dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.*

3.1. PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV, UNING BO`LAJAK O`QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI



O'quv maqsadi

Pedagogik mahorat tushunchasiga zamonaviy yondashuv, uning bo`lajak o`qituvchi kasbiy faoliyatida tutgan o`rni va ahamiyati haqida nazariy bilimlar berish

*Suhbatda vazminlik va o`rinli gapirish,
gapga chechanlikdan yuqori turadi
F. Bekon*

Tayanch iboralar: tarkibiy qism, pedagogik texnika, nutq texnikasi, mimika, pantomimika, o'z hissiyotini boshqarish, aktyorlik va rejissyorlik malakalar, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik nazokat, pedagogik madaniyat,

o`qituvchilik faoliyati, texnologiya, texnik nazorat, texnologiyalanuvchanlik, pedagogik ijod, kasbiy-me`yoriy ko`rsatgich, pedagogik texnologiya, texnologiyalanuvchanlik mezonlari.

Pedagogik mahorat, avvalo, falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlarga ega bo`lish. O`quv predmeti bo`yicha keng va chuqur ma`lumotlarga ega bo`lish va ularni takomillashtirib borish orqali qo`lga kiritiladi. Milliy Mustaqillik, “Ta`lim to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta`lim - tarbiya jarayonining tashkilotchisi va ijrochisi, o`qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtirish, ta`lim - tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ta`kidlar ekan, avvalo, o`qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishni pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi deb qaralishi lozimligini alohida qayd qiladi.

“Pedagogik mahorat” pedagogik - psixologik fanlar tizimida ma`lum mavqega ega. Zero, “Pedagogik mahorat” - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshqarish to`g`risidagi fandir. Shunday ekan, o`qituvchi - tarbiyachi pedagogik mahorat egasi bo`lishi uchun pedagogik - psixologik tayyorgarlikka, ta`lim - tarbiya, ma`lumot tushunchalarining mohiyat - mazmunini teran tushunishga, shaxs psixologiyasi, ya`ni shaxsning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv sistemasi, temperament, layoqat, (qobiliyat), xarakterlar), bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur), emotsiyal irodaviy xususiyatlar (xissiyot, emotsiya), irodalarni ijtimoiy shartlangan xususiyatlar (ehtiyoj, qiziqish)ni, orttirilgan xususiyatlar: bilim, ko`nikma, malaka odatlarini o`rganib borishga harakat qilmog`i lozim. Pedagogik mahoratning kursi bo`lsa, ularni o`z o`rni, o`z xususiyatidan kelib chiqib, qo`llash yo`llarini o`rgatadi. Shuning asosida, ta`lim – tarbiya jarayonini to`g`ri tashkil qilish, o`zlashtirish imkoniyatlaridan aniq foydalanish shart-sharoitlarini yaratadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik mahorat talabalarda, mutaxassislik kasbini tez va oson egallashga yo`l ochib beradi. Zero, pedagog mahorati bu maqsadning aniqligi, sub`ekt va ob`ekt uzviyligini ta`minlovchi hosiladir. Ammo, uning shakllanishi va takomillashuvi murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o`qituvchi – tarbiyachining

pedagogik – psixologik nazariyasini chuqur egallagan bo`lishni, pedagogik informatsiyalarni qunt bilan muntazam o`qib borish lozimligini, mavjud nazariy amaliy pedagogik yutuqlarni o`z faoliyatida qo`llab borishni taqazo etadi.

Kasbiy mahorat sirlarini o`rganishga harakat qiluvchi har bir o`qituvchi, avvalo, egallashi lozim bo`lgan pedagogik bilim, ko`nikma, malakalarga va axborotlarga ega bo`lishga intilishi, bajarayotgan ishning barcha qirralarini aniq tasavvur qilishga harakat qilishi va natijalarini baholashi, yo`l qo`yilgan xato kamchiliklarining mohiyatini tushunib yetishga harakat qilishi lozim. Bu holatlar, albatta faoliyat orqali amalga oshiriladi. Demak, pedagogik mahoratni egallahsha o`qituvchining pedagogik faoliyati asosiy rol uynaydi.

Xo`sh, pedagogik mahoratning o`zi nima? Unga qanday erishish mumkin?

Pedagogik mahorat – bu o`qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrioxligi, insonparvarligi, mexribonligi va x.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va x.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, o`z faninini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, talaba-yoshlarni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo`llarini izlab topib, amaliy faoliyatida qo`llashida namoyon bo`ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo`lish uchun o`qituvchi o`z o`quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o`zlashtirishi hamda insoniylik va fidoyiliginи o`zida tarkib toptirishga intilishi lozim. Shuni alohida qayd qilib o`tmoq zarurki, o`qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbu kasbning qiyin va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik, ongli jonzot bilan muloqotda bo`ladi. Ongli va tirik jonzot esa, ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo`ladi. Shuning uchun, o`qituvchi bilan doimo muloqotda bo`lish, unga ta`sir ko`rsatish, undan psixologiya, tarbiya nazariyasini mukammal bilishni taqozo qiladi. Bu o`qituvchidan pedagogik - psixologik tayyorgarlikka ega bo`lish lozimligini ta`kidlaydi.

Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat mazmunida tarkib topadi, faoliyat kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikdan iborat bo`lib, kelajak avlodni mehnatga,

hayotga tayyorlash uchun davlat, xalq oldida javob beradigan kishilar kasbidan iboratdir. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo`lishi kerak. Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon - e`tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoji va faolligi, odob - axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma`naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat`iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h. k. lar kiradi.

Pedagogning kasbiy xususiyatlariga: o`z kasbini, bolalarmi sevishi; ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatligi, ma`naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay olishi, kasbiy ma`lumotini muntazam oshirishga intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

Shunga asosan, kasbiy professiogramma shartli ravishda quyidagilarni o`z mazmuniga oladi;

- pedagogning shaxsiy fazilatlar bo`yicha tayyorgarligi;
- pedagogning ruhiy-pedagogik tayyorgarligi;
- pedagogning ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy tayyorgarligi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat - o`qituvchi shaxsiy va kasbiy sifatlarining oynasi bo`lib, uning pedagogik-psixologik bilimlarining yig`indisidir. Yuksak pedagog mahorat egasi bo`lish uchun:

- ixtisoslik bo`yicha o`quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning o`quv fanlari kesimidagi bog`liqligini ta`minlash malakasiga ega bo`lishi;

- o`quv - tarbiya jarayonini aniq tashkil qilish uchun asoslik pedagogik-psixologik, metodik ma`lumotga ega bo`lishi;

- talabani, jamoani “ko`ra bilish”, bolalar qiziqishi, intilishlari, ularda uchraydigan qiyinchiliklarni tushuntirish va o`z vaqtida anglay olishi, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter, xususiyati, qobiliyati, irodasini tushina bilish hamda ularga muvaffaqiyatli ta`sir ko`rsatishning shakl, metod, vositalaridan xabardor bo`lish;

- o`z shaxsiy sifatlari (tovushi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va x.k.)ni takomillashtirish malakasiga ega bo`lishi lozim.

Mustaqil Respublikamizning o`qituvchisi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qayd etilishicha yuksak ma`naviy-axloqiy fazilat, xulq madaniyati va Milliy istiqlol mafkurasiga ega bo`lgan kasb egasi bo`lishi lozimligi ko`rsatilgan. Zero, o`qituvchi – tarbiyachi yuksak ma`naviyat axloqiy odobga, xulq madaniyatiga ega bo`lsagina, talabalarga insonlarga nisbatan mehribon saxovatli bo`la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun aql – zakovatli, saxiy, qat`iy, irodali, ko`ngli ochiq bo`lishi, o`ziga va bolalarga nisbatan talabchan, ayni bir paytda talabalarga mehribon va xayrirox, o`z shaxsiga tanqidiy nuqtai - nazardan yondasha oladigan bo`lishi kerak. SHu o`rinda shuni e`tirof etib o`tish joizki, pedagogik mahorat-o`qituvchi tarbiyachi kasbiy va shaxsiy sifatlari to`g`risidagi fandir. Darhaqiqat, o`qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy yo`nalishlarini asoslab bergan Yu.P.Azarov, T.I.Gonobolin, A.K.Kuzmina, O.A.Abdulina, A.B.Mudrik, N.V.Kuxarev, V.A.Slastyonin, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, A.V.Petrovskiy, V.A.Zamaxshariy, Burxoniddin Zarnudjiy, Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, A.Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov. V.A. Krutetskiy, J.Yo`ldoshev, E.G`oziev, U.Mahkamov va boshqalar o`qituvchi o`z fanining bilimdoni bo`lishi bilan birga, insonparvar, demokrat bo`lishi, milliy tarbiya targ`ibotchisi hamda komil inson sifatida o`zida shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptirgan bo`lishlari lozimligini o`qtirib o`tadilar.

Pedagogik ixtisoslikning maskur xususiyatlari M.Q`uronov, B.Muratov, M. Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib u o`qituvchi professiogrammasida o`z ifodasini topgan. Mazkur o`qituvchi professiogrammasi asosan, shaxsiy va kasbiy sifatlari insoniy fazilatlar, bilimlar, konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, amaliy ko`nikma va malakalardan iboratligi qayd qilinadi.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik; milliy odoblilik; farosat; nozik didlik; o`z kasbiga sadoqat va vijdoniylik; tashabbuskorlik; bolajonlik; talabchanlik;adolatparvarlik; pedagogik odob; tadbirkorlik, qat`iylik; har qanday vaziyatda o`zini idora qila olish; millatlararo muloqot madaniyati;

kuzatuvchanlik; samimiylilik; topqirlik; keljakka ishonch; xushmuomalalilik va x.k.lar kabi fazilatlarga ega bo`lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik; O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`lining mohiyati, besh tamoyilli rivojlanishining ma`naviy-axloqiy negizlarini bilish; milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash; chuqur ilmiy nazariy salohiyati; pedagogik ijod; o`z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarining mukammal bo`lish; O`zbekiston Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik; o`zbek xalqining an`analari; qadriyatlar; urf-odatlarini yaxshi anglash; siyosat, tarix, madaniyat, ma`naviyat, adabiyot va san`at, axloqshunoslik, huquqshunoslik, o`lkashunoslik, texnikaga oid ma`lumotlardan xabardorlik; etnopedagogika, etnopsixologiyaga shu bilimlarga ega bo`lish va x.k. (Qarang; Quronov M., Muranov B. Milliy dastur o`qituvchi professiogrammasida - “Xalq ta`limi”, 1998, 1 – son, 42-45 betlar; Pedagogika. Munavvarov A.K. taxriri ostida – T.: “O`qituvchi”, 1996, 52 – 61 betlar.)

Bo`lajak pedagoglarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi yuqoridagi shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega qilish lozim. Bu hol kasbiy mahorat egasi bo`lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

Bunda o`qituvchi o`z pedagogik faoliyatida qo`llaydigan ta`lim - tarbiyaning ilg`or zamonaviy shakl, metod, metodlarini qo`llay olishi, pedagogik mehnatning ta`sirchanligini takomillashtiruvchi yo`llaridan xabardorlik katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo`llar:

- birinchi, o`quv-pedagogik faoliyat bo`lib, u o`z o`quv predmetining mazmunini chuqur, mukammal va har tomonlama bilishini, pedagogik – psixologik, umumiylilik tayyorgarlikni nazarda tutadi;
- ikkinchi, shaxsiy faoliyat yo`li bo`lib, u o`ziga, o`z ishiga, o`rtoqlariga, hamkasblariga, talabalariga, ota-onaga ijobiy munosabatda bo`lish; o`z-o`ziga baho berish, o`z mavqeini ko`rsatish, mustaqil bilimini oshirish, o`zini o`zi kamolotga etkazish, yangilikka intilish, emotsiyal (jo`shqin) munosabatda bo`lish qobiliyatlariga ega bo`lishdan iboratligini ko`rsatadi;

- uchinchi, ijtimoiy - pedagogik faoliyat yo`li bo`lib, u pedagogdan guruhdan tashqari ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarni tashkil qilish bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarning shakllanishini, talabalarni turli xil ijtimoiy – foydali ishlarga jalg qila olishini talaba – yoshlarni turli faoliyatga qiziqtira olish, havas uyg`ota olish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutadi;

- to`rtinchi, u axborot bilan ta`minlanganlik yo`li bo`lib, bu yo`l o`qituvchining voqelik, pedagogik-psixologik olam yangiliklari to`g`risidagi axborotlar qurollanib, uni dunyosida qayta ishlab hamkasblariga, atrofdagi kishilarga, mahalla – kuyga etkaza olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Mazkur yo`llar pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirish yo`llaridir. Mana shuning uchun ularning, mohiyat mazmunini chuqur anglash lozim. Tajribalar, kuzatishlar va ilmiy-nazariy ta`limotning dalolat berishicha kasbiy mahoratni shakllantirish va takomillashtirishning yuqorida qayd etib o`tilgan yo`llari talaba-talabaning kelajakda mohir pedagog, o`z kasbining mahoratli egasi bo`lishi uchun ko`p imkoniyatlar yaratib, o`quv-tarbiya samaradorligini oshirish uchun dastur bo`lib xizmat qiladi. Shuningdek, o`qituvchi – tarbiyachi kasbiy mahoratini takomillashtirishning shart-sharoitlarini optimal belgilash lozimligini ham e`tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Zero, inson tomonidan to`plangan va hozirgi davr uchun ilg`or bo`lgan har qanday g`oya, vosita ham vaqt o`tishi bilan eskirib qolishi real haqiqatdir. SHunga asosan o`qituvchi o`zida ijodkorlikni tarbiyalagan bo`lishi har qanday voqeа, yangi metod, vositalarni ijod ustaxonasida qayta ishlash malakasiga ham ega bo`lmog`i darkor.

Bolalarni erkin fikrlashga tashabbuskorlikka, ijod qilishga o`rgatish ham pedagogik mahorat xususiyatlaridandir. Shu bois pedagogik mahorat pillapoyalari sari odimlayotgan yosh o`qituvchi – murabbiy pedagogik mahoratning nazariy – metodologik asoslarini egallashi, pedagogik mahoratning maqsad – vazifalari, mohiyat - mazmuni, uni shakllantirishi va takomillashtirish yo`llarini chuqur bilib olishi lozim.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni ruyobga chiqarishning ikkinchi bosqichi (2001-2005)da “ta`lim muassasalarinig moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o`quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash dolzARB vazifa qilib belgilangan (Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997, 41 bet)

Pedagogik mahorat pillapoyalari sari intilayotgan o`qituvchi, professor A.K.Markova ta`kidlaganidek, pedagogik muloqotning muhim tarkibiy qismlari bo`lgan, uning vazifalarini vositalarini, metodlarini bilishi va ularga tayanib ish tutmog`i lozim. Pedagogik muloqotning vazifalari: talabaga yangi ma`lumot berish yoki ma`lumotlarni takrorlash uchun fikr almashish, o`qituvchi va talabalarning o`zaro bir-birlarini bilishlari va tushunishlari, bir-birlarining hulqlarini tuzatishlari va boshqarishlar, har bir muloqot ishtirokchisi shaxsining imkoniyatlarini ochishga ko`maklashishi undan foydalanish sharoitini yaratish va shu asosda o`z oldilariga turgan vazifalarni hal etishga erishishlari; muloqot ishtirokchilarining mustaqil fikr yuritish huquqiga ega bo`lish va nihoyat muloqot ishtirokchilarining bir-birlaridan qanoat hosil qilishlari hamda o`qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligidir. Pedagogik muloqot metodlari o`z mohiyat mazmuniga ko`ra avtoritar, demokratik, liberal vositalari esa tashkil etuvchi, baho beruvchi,intizomga undovchi bo`lishi darkor. Bularning har birini mohiyat mazmuni bilan o`qituvchi chuqur tanishgan bo`lsa, ularni faoliyatga to`g`ri qo`llay oladi.

O`qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish, uning uzluksiz malakasini oshirishning kursgacha, kurs jarayonida va kursdan keyingi faoliyatini tashkil etish bosqichlarida amalga oshiriladi. O`qituvchining malaka oshirish kurslarigacha bo`lgan davrdagi kasbiy tayyorgarligining asosiy vazifikasi o`qituvchi - tarbiyachining nazariy, metodiyl va amaliy tayyorgarligi, qiziqishi, ehtiyoji va qiyinchiliklarni aniqlashdan boshlanadi. O`qituvchi ehtiyojini, qiyinchiliklari darajasini diagnostik asosda tashkil etish talabga muvofiqli. Diagnostik tahlil mazmunida pedagogik mehnat natijalarini har tomonlama va

chuqur o`rganilib tahlil qilish masalasi yotadi. Bu jarayonda ta`lim muassasasi rahbari, avvalo, o`qituvchi qiyonaladigan, ehtiyoj sezadigan muammolarni o`rganib, malaka oshirish kurslarigacha bo`lgan davrida o`qituvchiga amaliy yordam ko`rsatish reja-tadbirlarini ishlab chiqishi kerak. Faraz qilaylik o`qituvchi o`quv predmetining metodologik, ilmiy- nazariy asoslari, tarbiyaning zamonaviy maqsadi vazifalarini anglash va amalga oshirishda qiynaladi yoki ehtiyoj sezadi deylik, bunda maktab rahbari o`z maktabidagi uslubiy kengash, pedagogik kengash, metodbiy birlashmalar yoki maxsus seminarlar tashkil etib, ularda “Ilmiy bilimlarning tuzilishi”, «Hozirgi davr ta`limi va tarbiyasining dolzarb muammolari”, “Ta`limda modellashtirish”, “ Zamonaviy dars”, ”Darsning uch didaktik maqsadini amalga oshirish yo`llari” va boshqa shularga o`xshash mavzularda o`qishlar tashkil qilishi mumkin.

Asosan, o`qituvchi faoliyatida talabalar o`quv biluv faoliyatlarini materiallarini o`zlashtirishga aniq yo`llash, topshiriqlarni konkret qo`ya bilish va nazorat qilish, jamoa va ayrim shaxslar bilan turli munosabatda bo`la olish, savollar qo`ya bilish, o`z kayfiyatini, hatti-harakatini, mimikasini, ovozini idora qila olish xususiyatlari kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bunday o`qituvchilar pedagogik texnikasini yaxshi egallagan. Uning malakalarini o`zlarida aniq shakllantirgan va bu malakalarni turli vaziyatlarda qo`llay olish qobiliyatlariga ega bo`lganlar.

O`quv materiallarini idrok qilishda o`qituvchining nutqi muhim rol` o`ynaydi. Odamlarning fikricha 1-2 foiz o`quv materiallarini idrok qilish va o`zlashtirishida o`qituvchi nutqiga va uning so`zlarini to`g`ri talaffuz qilishga bog`liq. Bolalar o`qituvchining gapini, nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan kuzatadilar. Mabodo o`qituvchi so`zlarni noto`g`ri talaffuz etsa, talabalar uning ustidan kulib, mashara qilib yuradilar, lekin past tonda gapiradigan o`qituvchining darsi esa talabalar uchun zerikarli bo`ladi, nihoyatda baland gapirish oddiy suhbat chog`da qichqirib so`zlashish talabalarni bezdiradi va charchatadi. Talabalarning bunday o`qituvchi ta`limidan ko`ngillari sovuydi. Shuning uchun o`qituvchi savodli gapirishi o`z nutqini chiroyli va tushunarli

ta`sirchan qilib bayon qilishi o`z fikr va his-tuyg`ularini so`zda aniq ifodalash malakalarida ega bo`lishi lozim. Chiroqli, savodli ta`sirchan gapiruvchi o`qituvchilarning fikrlari talabalar ongiga tez yetib boradi.O`quv materiallarini o`zlashtirib olishga katta imkoniyat yaratadi. Talabalar bunday o`qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, diktorlar Qodir Maxsumov, Mirzohid Rahimov, O`ktam Jobirov levitantlarning xalq qalbidan o`rin olganliklari ham bejiz emas. Shuning uchun o`qituvchilar o`z nutqlari ustida tinmay ishlashlari so`zlarining chiroqli, ma`noli, ta`sirchan bo`lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlarini kuchli tembr, harakatchanligi, diktsiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

O`quv materiallari aniq, to`g`ri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar ishlari dalolat bermoqdaki, ruslar bir minutda 120, inglizlar 120dan 150 gacha, frantsuzlar 110 ta so`zni talaffuz qilisharkanlar. O`rtacha hammaga tushunarli bo`lishi uchun o`qituvchi 5-6 guruhlarda 60 ta so`zni 9-11 guruhlarda 75-80 ta so`zni talaffuz etsa talabga muvofiq bo`ladi. O`qituvchi nutqni lo`nda aniq, puxta, chiroqli bayon etsa u tinglovchilarga shuncha tushunarli bo`ladi va ular uzoq saqlanadi.

O`qituvchining o`z hatti-harakatini idora qilishi tizimida o`z hissiy holatini boshqara olish muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi ta`sir ko`rsatish vaqtida o`z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo`lishi, umidbaxshlik, xayrixoxlik kayfiyatda bo`la olish qobiliyatlariga ega bo`lishi zarur. A.Makarenko aytganidek: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo`lishni bilishi lozim, u o`zini shunday tutish kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o`qitsin.

Bunday malakaga ega bo`lgan pedagog o`z-o`zini nazorat qila oladi, ko`p yillik faoliyati davomida sog`lom asab sistemasini o`zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo`riqishdan o`zini saqlay oladi. O`z hatti harakatini hissiy holatini nazorat qilishda pedagog o`zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

-xayrixohlik va optimizmni tarbiyalash,

-o`z xulqini nazorat qilish (muskul zo`riqishini, harakat, nutq tempi, nafas olishni tartibga solish)

-faoliyatini dam oldirish (lirk, musiqaviy, humoristik, jismoniy pauzalarni yaratish)

-o`z - o`ziga salbiy ta`sir ko`rsatishdan saqlanish (samovnushenie)

O`qitish samaradorligini oshirish va ijobiy, tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish uchun o`qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo`lishi zarur. Ma`lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni xarakterlayotganda aktyorlik, talabalarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Ular aytilganlardan tashqari o`qituvchiga yoshlar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchi talabalarning aql idrokigagina emas, balki ularning his tuyg`ulariga ham ta`sir ko`rsatish, ularga bilimga nisbatan hissiy qadriyatli munosabatda bo`lish tajribasini to`liq berishiga yordamlashishadi. SHunday qilib, o`qituvchi yuqorida qayd etib o`tilgan pedagogik texnika ko`nikmalarini o`zida tarbiyalasa, u yoshlarni o`qitish, tarbiyalash ularni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida muvaffaqiyatga erishadi.

Har qanday kishidan mahoratli o`qituvchi haqiqiy murabbiy mehribon muallim chiqmasligi ko`pchilikka ayon. Pedagoglik murabbiylik kasbining o`ziga xos psixologik xususiyatlardan tashqari bu kasb yana o`ziga xos ma`naviy mafkurani egallashini talab qiladi. Boshqa soha mutaxassislaridan farq qilib, bu mutaxassislikda o`ta oliyanoblikni to`g`ri so`zlikni do`stona munosabat va odamlarga yoshlarga muhabbatni talab qiladigan kasbdir. Albatta bu va boshqa ko`pgina haqiqiy o`qituvchining shaxsiy xususiyatlari tug`ma bo`lmaydi, lekin bo`lajak o`qituvchi shu fazilatlarga sezgir o`qituvchilikka havas qo`yib faoliyat boshlagan kundan boshlab chaqqonlik bilan o`zlashtira olishi uchun ma`lum layoqat va imkoniyatlarni afsuski pedagogika instituti bermaydi, agarda bolada shu xususiyatlar potentsiya shaklida pinxoniy quvvatlar shaklida avvaldan bo`lsa, pedagogik muhitda bu kurtak asosida o`ziga xos pedagogik qobiliyat va mahoratlar shakllanishi mumkin.

Bo`lajak o`qituvchi uchun metodik madaniyat juda muhimdir. Mazkur ta`limiy jarayonni egallashi uchun yosh o`qituvchi muayyan tushuncha bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirib borishi kerak. “O`qituvchining metodik mahorati”, “chet tili (fizika, kimyo va boshqa fanlar) o`quv predmeti sifatida. “Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi”, “Ta`limning texnika vositalaridan foydalanish metodikasi” kabi o`quv qo`llanmalaridan keng foydalanishga to`g`ri keladi. Pedagogik muammoga doir izlanishlar bilan tanishib chiqilayotgan metodika tarixi, “Professional ijodkorlik asoslari”, “Dars texnologiyasi” singari adabiyotlar o`qituvchiga katta yordam beradi.

Bo`lajak o`qituvchining tadqiqot madaniyatini egallashlari uchun ilmiy-metodik tomondan jiddiy izlanadilar. Maxsus tashkil etiladigan “Ilmiy tadqiqot ishlari” kursi ularni ko`p narsaga o`rgatadi. SHu ta`limiy jarayon mobaynida ular “o`qituvchi-tadqiqodchi”, o`z ustida ilmiy mustaqil ishlash asoslari, ilmiy bilish metodlari, ilmiy taddiqod tartibi, ilmiy fikrlash talab va mantiqi, “Pedagogik tadqiqotlarining o`ziga xos xususiyatlari”, “Ilg`or tajribalarni umumlashtirish asoslari”, “Ilmiy munozara” mavzularida ma`ruzalarni tinglaydilar.

Ko`rinib turibdiki, o`qituvchining professional madaniyati ko`p qirrali ma`rifiy jarayon bo`lib, bir-biri bilan rivoj topadi. U pedagogik mahorat, ma`naviy-axloqiy kamolotning muhim sharti yanglig` o`qituvchi madaniyati qirralarini rivojlantirishga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Bunday faoliyat yordamida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Madaniyat olamiga moyillik, o`qituvchi ma`naviy qiyofasini o`stirishga yordam beradi.
2. O`qituvchining o`z fani bo`yicha dars va guruhdan tashqari mashg`ulotlarda rivoj topgan pedagogik mahoratini yanada o`stiradi.
3. Madaniylik estetik faoliyatining predmeti sifatida yosh o`qituvchining ijodiy qobiliyati va romantik tuyg`usini rivojlantirishga yordam beradi.
4. Go`zal hissiyot, nafosat tuyg`usi, ongli estetik ta`sir o`qituvchining ma`naviy-madaniy boyligiga aylanadi.

Pedagogik professional madaniyat o`qituvchi shaxsida ma`naviy-estetik tuyg`uni, did va idrokni tarkib toptirishni rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

6. Fanlar mazmunini to`g`ri, to`liq va qiziqarli bo`lishi, uzviylikni ta`minlash.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1.O`qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi, mazmuni ijtimoiy-tarixiy rivoji va mazkur kasbning jamiyatda tutgan o`rni haqida nima deya olasiz?
2. O`qituvchi faoliyatining asosiy yo`nalishlari nimadan iborat?
3. Bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlashga qo`yiladigan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
4. Pedagogik mahoratni egallash vositalari nimalar kiradi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. O`qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi deganda nimani tushunamiz? O`ylab, misollar keltiring.
2. O`qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o`rni haqida nimalar bilasiz? O`ylab, javob bering.
3. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" tushunchalariga ilmiy nazariy va metodik jihatdan ta`rif bering. Ta`rif berishda o`z shahsiy fikringizni bildiring.

TESTLAR

1. Pedagogning qaysi jarayonini sahnadagi aktyorlar faoliyatiga o`xshatish mumkin?

- *A) Hatti-harakat, mashg`ulot olib borish jarayonini;
- B) estetik his-tuyg`u;
- C) Muloqoti, bilimi;
- D) Hamma javob to`g`ri.

2. Talabalarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish shakllarini toping.

- A) Ijtimoiy foydali mehnat;
- B) Sport, sog`lomlashtirish ishlari;
- C) Turli yo`nalishlarda to`garaklar tashkil etish;
- *D) Barcha javoblar to`g`ri;

3. Shaxsning barkamolligini ta`minlovchi manbalarni toping?

- *A) Xalqimizning ma`naviyat, axloq-odob va ma`rifat bilan bog`liq qadriyatlar;
- B) Xalqimizning huquqiy va ma`naviy qadriyatlar;
- C) Xalqimizning ijtimoiy, huquqiy, diniy qadriyatlar;
- D) Xalqimizning ma`naviy va umuminsoniy qadriyatlar, ta`limning globallashuv jarayonlari.

4. “Pedagogik mahorat” tushunchasi qaysi javobda to`g`ri berilgan?

- A) Muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatlariga ega bo`lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi;
- B) O`quv mashg`ulotini tashkil etish shakli bo`lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi;
- *C) Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari tahlili;
- D) Axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi erkin ravishda uzatishiga erishishni ko`zlagan ruxiy ta`sir etish usuli;

5. O`qituvchining kommunikativ qobiliyati qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Talabaga bevosita emotsiyal irodaviy ta`sir ko`rsatish qobiliyati. Imo-ishora vositasida o`z fikrini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati;
- *B) Talabaga to`g`ri muomala qila olish, ularga yaqin bo`lish, ular bilan pedagogik samarali hamkorlik o`rnata bilish qobiliyati;
- C) O`quv jarayonini to`g`ri tashkil etish;
- D) Muomala madaniyatiga ega bo`lish, talabalarni tushunish, ular bilan hamkorlik qilish;

6. Tarbiyachi pozitsiyasiga nimalar kiradi?

- A) Buyruqli, hamkorlik, beparvolik;
- B) Tashkilotchi, buyruqli;
- C) Muomala, ijodkorlik;
- *D) Jamoaning shaxsga ta`sirini ta`minlay bilish;

7. Pedagogik ta`sir ko`rsatishning asosiy usullari?

- *A) Talab; rag`batlantirish va jazolash; jamoatchilik fikri;
- B) Diqqat; xotira; fikrlashni va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- C) O`qituvchining muayyan xislatlari; xarakter xususiyatlarini bilish;

- ishontirish;
D) Texnik fikrlash; mimika va pantomimika.

8. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.

- A) Turli rollarda bo`lish faoliyati, fikr almashishi, birga qayg`urish, xayol surish;
- B) Doimo o`zgarmaydigan ijobiy munosabat, barqaror bo`lмаган, barqaror salbiy munosabat;
- C) Hamfikrlik, kelishuvchanlik, tashabbusni ma`qullash;
- *D) O`qituvchining o`z nutqini boshqara olish qobiliyati bilan bog`liq ko`nikmalar, savodli va ifodali gapirishi, bilimi va fikrini tushunarli etkaza olishi.

9. Nutq texnikasiga nimalar kiradi?

- A) Nafas olish va nutq sur`ati;
- B) Nutqning mantiqiyligi;
- C) Tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish, nafasni rostlash, qo`l va tana harakatlari bilan uyg`unlashtirish, harakatlardagi emotsionallikni ta`minlash;
- *D) Nafas olish, ovozni yo`lga qo`yish, uning tovlanishi, talaffuzi, nutq sur`ati;

10. SHaxsning ma`naviy shakllanishiga ta`sir ko`rsatuvchi asosiy omillar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Tabiat, ijtimoiy muhit, etnik xususiyatlar;
- B) Tabiat, ijtimoiy muhit, irsiy xususiyatlar;
- *C) Ijtimoiy muhit, etnik xususiyatlar, jinsiy xususiyatlar;
- D) Ijtimoiy muhit, irsiy xususiyatlar, tabiat;

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

- 5.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга
қурамиз. – Тошкент : “О’zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
- 6.2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta
ustuvor yo’nalishi bo’yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va
inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish
bo’yicha Ilmiy-uslubiy risola. Тошкент, “Ma’naviyat”, 2017, - 416 b.
- 7.Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Тошкент,
2008. 229 b.
- 8.Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Тошкент,
2003
- 9.XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru

3.2. BO`LAJAK O`QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLAR TIZIMI VA KOMMUNIKATIV QOBILIYAT.



O`quv maqsadi

*Bo`lajak o`qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik qobiliyatlar tizimi va kommunikativ qobiliyat.
haqida nazariy bilimlar berish*

Bahslashganingda so`zing mayin,
daliling qat`iy
bo`lishiga intil.
J. Vil`kis

Tayanch iboralar: shaxsning individual-psixologik xususiyati, kasbiy sifatlar tizimi, o`qituvchining o`z pedagogik faoliyati, kasbiy mahoratini takomillashtirish, o`quv materiallarini idrok qilish.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo`lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub`ektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig`indisiga aytildi, zarur bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalarni egallah dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi.

Qobiliyatni inson tug`ma, tabiat in`omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to`plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko`rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o`qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olima Ol`ga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o`qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta`kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko`rsatib o`tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikatiB) qobiliyati: *O`qituvchi talabalar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, guruhda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.*

2. Voqealarni oldindan ko`ra olish qobiliyati: *Ushbu qobiliyat turi har bir o`qituvchining sergakligida, talabalarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko`ra olishida namoyon bo`ladi. SHunda o`qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo`lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o`qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she`r va qo`shiqlarni sevib tinglaydi.*

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *O`qituvchining o`z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo`naltiradi, vaqt ni harakat sur`ati bilan his qiladi, o`zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.*

5. Mantiqiy qobiliyat: *Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylilikni ikkinchi darajalisdan ajrata oladi;*

6. SHaxsning ichki qobiliyati: *O`z-o`zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat`iyatli, har qanday vaziyatda o`z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.*

Qobiliyat o`qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o`qituvchilar o`z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko`proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiyligi, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta`minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo`lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma`lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiylar va maxsus bilimlarni o`zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallahib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko`nikma va malakalardir.

Ko`nikmalar – o`qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o`qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig`indisi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko`nikma va malakalari ko`p qirrali va mukammallahsgan bo`ladi. Ko`nikma va malakalar etarli bo`lmagan qobiliyatni birmuncha to`ldirishi yoki qobiliyatning kamchiliginini tuzatishi mumkin. Ko`nikmalarni umumlashtirib **mohirlik** ham deb ataydilar. Mohirlilik ham qobiliyatning o`zginasidir. Demak, qobiliyat ko`nikma va malakalarning paydo bo`lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o`qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darjasini faqatgina o`qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug`ma qobiliyatlar zehn deyiladi. *Iqtidor, iste`dod, daholik* – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma`lum faoliyatidagina mavjud bo`lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug`ullanishiga aytildi. U o`qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo`ladi.

Kasbiy faoliyatning ta`lim mazmunini belgilovchi sifatlari o`qituvchining ijodkorligida namoyon bo`ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldar ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo`lgan o`qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo`ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro`y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o`zlashtirish va targ`ib qilishni anglatadi, ya`ni uning asosida g`oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligin) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o`qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o`z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o`qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insonning *iste`dodi* deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig`indisi, *iste`dodining yuksak cho`qqisi* – uning intellektini belgilaydi. “*Intellekt – bu aqlan ish ko`rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati*” (*Veksler*), ya`ni intellekt insonning atrof muhitga to`liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Pedagogik qobiliyatlar o`z funktsiyasiga ko`ra **umumiyl va maxsus** turlarga bo`linadi. Umumiyl qobiliyatlar mavjud bo`lganda o`qituvchi o`z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug`ullanadi. Umumiyl qobiliyatga ega bo`lgan o`qituvchilar ta`lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.

O`qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuz'mina shunday yozadi: “*Ta`lim – tarbiyada ro`y beradigan ko`pgina kamchiliklar o`qituvchi o`z*

pedagogik qobiliyatining amaliy yo`nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste`dodning o`qituvchida yo`qligi natijasida ro`y beradi”.

Maxsus qobiliyatga ega bo`lgan o`qituvchilar faqat o`zlari egallagan kasbiy yo`nalishlari bo`yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug`ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta`minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi (6 ilova).

Barcha mutaxassisliklarda bo`lgani kabi o`qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat – uning shaxsiy iste`dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda sub`ektiv shart - sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo`lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o`z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo`lib, u kishiga turli-tuman talablar qo`yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o`z qobiliyatini ko`rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo`lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o`zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko`rsatkichlarga erishishni ta`minlay oladigan xususiyatlar ansambl yoki sintezini tushunish lozim.

O`qituvchi qobiliyatini o`rganishda xususiyatlar «ansambl» iborasini biz shuning uchun ham ishlatalizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo`lishini emas, balki ularning uzviy bog`langan bo`lishini, muayyan tizimda o`zaro ta`sir qilishini ko`zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o`ringa chiqib, etakchi xususiyatga ega bo`lsa, ayni vaqtida boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o`ynaydi.

Kishining kobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumдорligini ta`minlashga, binobarin, ijtimoy boylikning son va sifat jihatidan tez o`sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. SHuning

uchun ham bo`lajak o`qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o`z o`rnida foydalanishini o`rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat`iy talab qilinadi.

Qobiliyat bilim, ko`nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo`ladi.

O`qituvchining talabalar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo`lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog`liq. O`qituvchilarning faoliyati yosh avlodni ma`naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo`ladi. Buning muvaffaqiyati o`qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga bog`liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o`qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo`lishi kerak.

Pedagogik-psixologiyada o`qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo`q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko`payib va o`zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o`zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o`tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari** ajratib ko`rsatilgan:

2. O`z kasbiga muxabbat, talabalarni seva olishi.
3. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
4. Pedagogik taktga (odob va go`zallikka) ega bo`lish.
5. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
6. O`z mehnatiga ijodiy yondashish.
7. Javobgarlikni his etish.
8. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O`qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o`ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- etakchi xususiyatlar;

•yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo`lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko`p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o`qituvchining o`zaro fikr almashuvi bilan bog`liq xususiyatlari asosiy rol o`ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o`qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o`qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo`ladigan o`zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo`lish, muloqotga kirishishida pok ko`ngillilik. O`qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo`lishi, muomala madaniyatini muntazam o`zida shakllantirib borishi lozim.

Pertseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya`ni kuzatuvchanlik muhim rol o`ynaydi. O`qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O`qituvchi talabaning psixologiyasini, psixik holatini o`ziga singdirib idrok etadi, guruh jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo`lgan muxabbatdan kelib chiqadigan talabalarning his-tuyg`usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta`lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o`qituvchi o`z bilimi talaba ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga etkaza olishi, ta`lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: talabalar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta`lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o`zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U guruh talabalarining o`qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to`garaklarga jalb qila olishida, guruh jamoasining har bir talabaga faol vaziyatni ta`minlab berishida namoyon bo`ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o`qituvchining o`quv–tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko`ra olishi.

Bilish qobiliyat: o`qituvchining o`z fanini va boshqa fanlarni chuqr bilishida, o`zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyat: o`qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqeа va hodisalarни chuqr idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo`lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko`ra bilish ko`nikmasidir. Bu – individual narsaning o`ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang`ich materialni ko`ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o`z-o`zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo`nalishda bo`lganligi sababli, har biri o`z tafakkuri va dunyoqarashiga ega. O`qituvchining kuzatuvchanligi talabalar jamoasini ta`lim

Qobiliyatning **etakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o`qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo`lmadan, balki aynan barcha fan o`qituvchilariga ham tegishli.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e`tibor, sobitqadamlik;
- o`qituvchining nutqi: notiqlik san`ati, so`z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo`lish.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlaiga bog`liq bo`ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- *obektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;*

- *kommunikativlik* — *insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, xushmuomalalik;*
- *perseptiv qobiliyatlar* — *kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik tuyg`u;*
- *shaxs dinamikasi* — *irodaga ta `sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;*
- *hissiy barqarorlik* - *o`zini boshqara olish;*
- *kreativlik* — *ijodiy ish qobiliyati.*

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko`nikmalarni egallah faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O`qitish, o`iganish va o`igatish bo`yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- *talabani tushunishini ko`rish va sezish hamda bunday tushunishning darajasini va xarakterini o`rnatish qobiliyati;*
- *o`quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o`qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;*
- *materialni etarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarligini ta`minlash qobiliyati;*
- *talabalarning individualligini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;*
- *o`qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;*
- *talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;*
- *o`zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;*
- *o`zining tajribasini boshqalar bilan baham ko`rish qobiliyati;*
- *mustaqil ta`lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.*

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- *boshqa insonning ichki holatini to`gri baholash, unga hamillardlik bildirish, hamnafas bo`la olish qobiliyati (empatiya qobiliyati);*
- *taqlid qilish uchun namuna bo`lish qobiliyati;*
- *tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;*
- *muloqotning lozim topilgan uslubini hamda o`z o`rnini topish, kelisha olish qobiliyati;*

- *hurmat qozonish, ya`ni talabalar o`rtasida obro`ga ega bo`lish qobiliyati.*

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo`lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

O`qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog`laydilar.

Kommunikativ qobiliyat — bu pedagogik o`zaro aloqalar doirasidagi o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

1. *Kishining boshqa kishini bilishi.* Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berish, kishining tashqi ko`rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berish; savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o`qiy» olish kabilalar qamrab olinadi.

2. *Kishining o`z-o`zini bilishi.* U o`z bilimlarini, qobiliyatlarini o`z xarakteri va o`z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo`lsa, shunday baho berishni ko`zda tutadi.

3. *Muloqot vaziyatini to`g`ri baholay olish.* Bu vaziyatni kuzatish, uning ko`proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to`g`ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Ta`lim muassasasi o`qituvchisining kasbiy faoliyati turli yo`nalishlarda bo`ladi. Ulardan eng muhimlari tubandagilar:

O`quv pedagogik faoliyat. Bu faoliyat jamiyat talablaiiga mos ravishda ta`lim muassasasida o`quv jarayonini tashkil etishga yo`naltiriladi. Ta`lim muassasasidagi o`quv jarayoni uchun o`quv va ilmiy-tadqiqot ishlarining uзвиy bog`liqligi, talabalar faolligi va mustaqil ishlari ijodiy potensial bo`lgan shaxs ahamiyatini oshirish xarakteiidir.

Ta`lim muassasasidagi pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo`shib olib boriladi.

Nazariy faoliyat yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog`lanadi.

Amaliy faoliyat muayyan vaziyatlarni yangilashga va pedagogik vazifalar tizimini hal qilishga yo`nalgan bo`ladi.

O`qituvchi konkret fanni boshqa o`quv fanlari bilan o`zaro bog`lagan , holda uning o`qitilish maqsad va vazifalarini belgilaydi. Talabaning o`quv- bilish faoliyatini jonlantirishni ta`minlaydigan o`qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlarini o`ylab topadi.

O`qituvchi o`quv-pedagogik faoliyatining o`ziga xosligi uning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishidir.

Ta`lim muassasasi o`qituvchisining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda, N.V.Kuzmina va Z.F. Esarova tadqiqotlariga tayanadilar. Ular quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- konstruktivlik;
- tashkilotchilik;
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

Konstruktivlik komponenti ilmiy-tadqiqot, o`quv-tarbiya ishlarida loyihalash yoki o`z konstruksiyalash malakalarida ko`rinadi.

Loyihalash malakasi — bu ilmiy izlanishni yoki o`quv-tarbiya jarayonini modellashtirishning intellektual malakalaridir. O`qituvchining loyihalash malakasi Z.F.Esarova tomonidan tadqiq etilgan.

Ta`lim muassasasi o`qituvchisi faoliyatini tavsiflash va baholash uchun quyidagi sathlardan foydalaniлади:

- *reproduktiv. Bunda o`qituvchi faqat o`zining axborotlarini loyihalashtiradi, lekin auditoriyadagi talabalarning saviyalarini hisobga olmaydi;*
- *moslashuvchan. Bu sathda o`qituvchi o`quv axborotlarini auditoriyadagi talabalarning saviyalariga mos qilib modellashtiradi;*
- *lokal-modellashtirish. Bu sathda o`qituvchi axborotlarni bayon qilibgina qolmaydi, balki ayrim masalalar bo`yicha bilim, malaka va ko`nikmalar tizimini modellashtira olishi lozim;*

• *tizimli-modellashtirilgan bilim. Bu sathda konkret fanni o`zlashtirish*

Ta`lim muassasasi o`qituvchisining kasbiy faoliyati turli yo`nalishlarda bo`ladi. Ulardan eng muhimlari tubandagilar:

O`quv pedagogik faoliyat. Bu faoliyat jamiyat talablaiiga mos ravishda ta`lim muassasasida o`quv jarayonini tashkil etishga yo`naltiriladi. Ta`lim muassasasidagi o`quv jarayoni uchun o`quv va ilmiy-tadqiqot ishlarining uzviy bog`liqligi, talabalar faolligi va mustaqil ishlari ijodiy potentsial bo`lgan shaxs ahamiyatini oshirish xarakteridir.

Ta`lim muassasasidagi pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy faoliyat qo`shib olib boriladi.

Nazariy faoliyat yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog`lanadi.

Amaliy faoliyat muayyan vaziyatlarni yangilashga va pedagogik vazifalar tizimini hal qilishga yo`nalgan bo`ladi.

O`qituvchi konkret fanni boshqa o`quv fanlari bilan o`zaro bog`lagan , holda uning o`qitilish maqsad va vazifalarini belgilaydi. Talabaning o`quv- j bilish faoliyatini jonlantirishni ta`minlaydigan o`qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlarini o`ylab topadi.

O`qituvchi o`quv-pedagogik faoliyatining o`ziga xosligi uning ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirot etishidir.

V.A.Slastenin pedagogik vazifa deganda, bilish, voqelikni yangilash (o`zgartirish) maqsadi bo`lgan o`ylangan pedagogik vaziyatni tushunadi.

O`qituvchining maqsadga yo`nalgan faoliyatida pedagogik vazifaning: **strategik, taktik va operativ** kabi uch katta guruhi farqlanadi.

Strategik vazifa. Bu o`ziga xos ulkan vazifa. Strategik vazifalar ta`limning umumiy maqsadlaridan kelib chiqadi. U jamiyat rivojlanishining obektiv ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu vazifalar pedagogik faoliyatning dastlabki maqsadi va yakuniy natijalarini aniqlab beradi.

Joriy pedagogik jarayonda strategik vazifalar taktik vazifalarga aylanadi.

Taktik vazifalar ta`limning yakuniy natijalarini ta`minlashga yo`nalganligini saqlab qolgan holda strategik vazifalarning u yoki bu bos-qichida hal qilinadigan vazifalardir.

Operativ vazifalar pedagog amaliy faoliyatida joriy va birinchi navbatda hal qiladigan vazifalardir. Ta`lim muassasasi o`qituvchisining kasbiy faoliyat tahlili shuni ko`rsatadiki, bu kasb o`ta murakkab hamda o`ta ijodiy kasbdir.

SHunday qilib, o`qituvchining pedagogik mahorati pedagogik vazifalarni yuksak darajada echish, o`qituvchining shaxsiy xislatlari sintezi, uning rang-barang ilmiy sohadagi va pedagogik faoliyatidagi bilim hamda malaka va ko`nikmalari bilan belgilanadi.

Kommunikativ qobiliyat o`qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo`ladigan o`zaro muloqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo`lish, muloqotga kirishishida pok ko`ngillilik. O`qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo`lishi, muomala madaniyatini muntazam o`zida shakllantirib bor. O`qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. Talabalar bilan ta`lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o`rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o`ziga ishontira olish va jalb qilish – o`qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo`lib, bunda bevosita o`qituvchi bilan bog`liq bo`lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma`lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo`lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada talabalar bilan aloqa o`rnatishning shakl va uslublariga qat`iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o`qituvchi va talaba munosabatida majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi, talabalarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iborat. O`qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o`rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o`rnatishning samaradorligiga bog`liq. Ushbu jarayon bevosita o`qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog`liq xususiyatlariga, talaba

ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san`atiga va pedagogik ta`sir ko`rsatishning turli usullarini bir biri bilan o`zaro aloqadorlikda qo`llay bilishiga taalluqli bo`lib, ular uzlusiz shakllanadi.

O`qituvchining fikr almashuvi bilan bog`liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari talaba ongiga qaratilgan faoliyat bo`lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O`zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog`liq bo`lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo`nalishlari mavjud:

- talabalarni ishontirish;
- talabalar ongiga ta`sir etish;
- o`zgalarga taqlid qilish.

2.Talabalarni ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo`lib, o`qituvchi fikr mulohazalarini ta`sirchan nutq orqali talabaning bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta`sir etadi va uni qisman o`zgartiradi. Ishontirish o`qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo`lgan murakkab faoliyatida asosiy ta`sir ko`rsatish vositasi bo`lib, ta`lim-tarbiya jarayonida ishlataladigan usullardan biri hisoblanadi. Talaba ongiga ta`sir ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan ishontirish usuli o`qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o`qituvchi bilan talabalar orasida o`rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobililik mavjud bo`lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo`ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o`qituvchining histuyg`usi, nutqi va ishontira olish san`ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta`sir ko`rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o`quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo`llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli guruh jamoasi bilan hamda alohida talaba bilan individual suhbatlar o`tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo`llaniladi. Ishontirish usuli yordamida talabalarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa talaba ongini begona mafkuraviy g`oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida talabaga

ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba`zi psixik ta`sirlar tufayli sodir bo`ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o`stiradi, o`ziga va kelajagiga ishonch uyg`otadi, o`z-o`zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

3.Talabalar ongiga ta`sir o`zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo`lib, o`qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O`qituvchilarning o`zaro suhbati va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta`sir etishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, u talabalarining psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta`sir ko`rsatadi. Ta`sir talabalar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, talabalarining ijodiy faoliyatida, hatti-harakatlarida, intilishlarida yo`l-yo`riqlar ko`rsatish tarzida amalga oshiriladi.

Ongga ta`sir – shunday bir psixik jarayonki, talabalar o`qituvchining yoki biror shaxsning ta`siri ostida, o`z ongingin etarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o`qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo`lmasa, talabalar ongiga ta`sir qila olmaydi, natijada ta`lim-tarbiya jarayoni ijobjiy natijalar bermaydi, o`qituvchi talabalarining hurmat e`tiboriga sazovor bo`la olmaydi. O`qituvchi o`z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta`sirlaridan, guruh jamoasi norasmiy etakchilarining turli yashirin buzg`unchi g`oyalaridan himoya qilishga mas`ul shaxsdir. Talaba ongiga ta`sir o`tkazishda o`qituvchi etakchilikni o`z qo`liga kiritishi uchun:

- talabalarining salbiy hatti-harakatlari tufayli sodir bo`ladigan emotSIONAL his-tuyg`ularga berilmasligi;
- har bir talabaning psixologik va ruhiy holatini puxta o`rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta`sir o`tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir talabaga alohida shaxs sifatida hurmat e`tibor bilan munosabatda bo`lishi;
- guruh jamoasining norasmiy etakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning hatti-harakatidan doimo ogoh bo`lishi;

— pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzlusiz o`zida takomillashtirib borishi;

— o`ylanmay aytilgan har bir so`z, noo`rin fikr mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo`lmasligini o`qituvchi doimo his etishi lozim.

SHuni alohida ta`kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli talabalar ongi tarbiyaga salbiy ta`sir o`tkazuvchi g`oya va mafkuralar bilan band bo`lishi tabiiy hol. O`qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta`sir qilishning keng imkoniyatlarini o`z o`rnida qo`llay olsalar, talabalar ongini turli keraksiz g`oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. SHuni unutmaslik kerakki, talabalar o`zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta`sirga moyilligi tufayli har qanday ta`sirga nihoyatda beriluvchan bo`ladilar.

4.Taqlid qilish shaxsnинг psixologik xususiyati bo`lib, o`zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. Talaba o`zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariga ongsiz ravishda taqlid qiladi. Talabalar o`zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo`li bilan ulardan o`zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, talabalar o`z hatti-harakati va muomalasi jarayonida o`zi ko`rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati talaba badiiy asarlarda o`qigan, kinofil`mlarda ko`rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o`z faoliyatida takrorlaydi.

Beixtiyor taqlid qilish talaba shaxsi shakllanishining ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. Talaba taqlid qilish yo`li bilan nutqni, buyumlarni, turli harakatlarni o`rganadi, xulq-atvori shakllanadi, ruhiyatidagi ushbu jarayon astasekin va ko`r-ko`rona davom etadi.

O`qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o`zaro fikr almashish yo`li bilan ta`sir ko`rsatishning ko`rib chiqilgan asosiy turlari – talabani ishontirish, talaba ongiga ta`sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtida

o`ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongga ta`sirning o`zaro bog`liqligi shundan iboratki, biz ta`sir ko`rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko`pincha notiqlik san`atini namoyish etamiz. O`qituvchining so`z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va talaba ongiga ta`sir etishning muhim manbalaridir.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogning kasbiy xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Pedagogik ixtisoslikning maskur xususiyatlari kimlar tomonidan to`liq izohlangan?
3. O`qituvchining professional madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. O`qituvchi faoliyatida texnologik va texnik nazorat deganda nimani tushunasiz?
5. Qobiliyat so`zining ma`nosini tushuntirib bering.
6. Pedagogik qobiliyatlar o`z funktsiyasiga ko`ra necha turga bo`linadi? Izohlab bering.
7. Shaxsiy iste`dod xususiyatlarini belgilab bering.
8. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlariga izoh bering.
9. O`qituvchi pedagogik faoliyatining asosiy komponentlariga nimalar kiradi?
10. Talabalarni ishontirish yo`llariga izoh bering.

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Pedagogik faoliyat mazmunini izohlab bering.
2. Kasbiy sifatlar tizimini izohlab bering.
3. O`quv materiallarini idrok qilishda o`qituvchining nutqi muhim rol' o`ynaydi deydilar. Buni qanday izohlaysiz?
4. O`qitish samaradorligini oshirish va ijobiylar, tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish deganda nimani tushinasiz?
5. Kasbiy - metodik faoliyat o`qituvchi faoliyati texnologiyalanuvchanligining mezonlariga kiradi deydilar. O`ylab, to`g`riliagini izohlab bering.

TESTLAR

1. Bosh, gavda, qo`l, oyoq harakatlari nimani anglatadi?

- A) Mimikani.
- B) Nutq texnikasini
- *C) Pantomimikani
- D) O`qituvchining aktyorlik malakasini

2. Xayrihohlik, optimizm. Faoliyatni dam oldirish, xulqini nazorat qilish, o`z-o`zga salbiy ta`sir ko`rsatishdan saqlanish, musiqaviy, jismoniy vaziyatlar yaratish nimani anglatadi?

- A) Jismoniy harakatlar usulini.
- *B) O`z hissiyotini nazorat qilishni.
- C) His-tuyg'ularini tarkib toptirishni
- D) O`quvchilarga hissiy ta`sir ko`rsatishni.

3. O`z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyoti, o`quvchilar hatti-harakatidan rozilik yoki noroziligin yuz muskullari harakati orqali bildirish nimani anglatadi?

- A) Pantomimikani.
- *B) Mimikani.
- C) Aktyorlik, rejissyorlikni
- D) Nutq madaniyatini

4. Qosh, ko`z, yuz ko`rinishi nimani anglatadi?

- *A) Mimik ifodaning asosiy detali
- B) Xafachilik va xursandchilikni
- C) Pantomimik ifodani
- D) Nutq ifodasini

5. Chiroqli, ifodali, savodli, ta`sirchan gapirish nimani anglatadi?

- A) Pedagogik texnikani
- B) O`qituvchining aktyorlik mahoratini
- C) Ovoz tembrini
- *D) Nutq texnikasini.

6. Iqtidorli talabalar qanday didaktik vositalar orqali aniqlanadi?

- *A) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali qobiliyat darajasi aniqlanadi;
- B) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali o`zlashtirish sifati ko`rsatkichi aniqlanadi;
- C) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali insoniy fazilatlari aniqlanadi;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

7. Muloqot nima?

- A) SHaxsning muhim extiyoji;
- B) Kishi turmush tarzining faoliyatidan kam bo`lмаган bir tomoni;
- *C) Kishining boshqa odamlar bilan o`zaro munosabatda bo`lish shakli;
- D) Ikki yoki undan ortiq kishilarning axborot almashishdagi o`zaro ta`siridir;

8. Tarbiya metodlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- *A) Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, odatlantiruvchi va mashqlantiruvchi, rag`batlantiruvchi va jazolovchi;
- B) Hikoya, ma`ruza, suhbat;
- C) Pedagogik talab, mashqlantirish, rag`batlantiruvchi;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

9. Adaptatsiya nima?

- *A) Sezgi a`zolarining qo`zg`ovchilarga moslashishidir;
- B) Qo`zg`ovchi ta`siri ostida sezgilarning o`zgarishi;
- C) Kuchli qo`zg`ovchilar ta`siri ostida sezgilarning zaiflashishi;
- D) yangi sharoitlarga ko`nikishni ta`minlovchi bilim, ko`nikma va malakalar.

10. O`qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab toifalarga ajratib bering?

- A) Tashabbuskor o`qituvchi va tashabbussiz o`qituvchilar;
- B) Ishga e`tibor bilan qarovchi o`qituvchilar, aktiv, passiv, kommunikativ, jonkuyar, fidoiy;
- C) Xushmuomala va tashabbuskor o`qituvchilar;
- *D) Tashabbuskor, ijodkor o`qituvchilar, tashabbussiz, o`z fikriga ega bo`lмаган o`qituvchilar, hamma ishga befarq qarovchi o`qituvchilar

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

- 5.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга
қурамиз. – Тошкент : “О’zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
- 6.2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta
ustuvor yo’nalishi bo’yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va
inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish
bo’yicha Ilmiy-uslubiy risola. Тошкент, “Ma’naviyat”, 2017, - 416 b.
- 7.Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Тошкент,
2008. 229 b.
- 8.Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Тошкент,
2003
- 9.XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru

IV MODUL. O`QITUVCHI VA TALABA O`RTASIDAGI MUNOSABATLAR

MODULNING UMUMIY MAQSADI: o`qituvchi va talaba o`rtasidagi konflikt, turli nizo va ziddiyatlarning kelib chiqishi, ularni bartaraf etish, refleksiya, reflektiv jarayon, ijodiy tafakkur xususiyatlariga oid nazariy bilimlar berish, fanga oid dastlabki ko`nikmalarini shakllantirish.

MODULNING O'QUV MAQSADLARI:

- ta'limiylar maqsad: *talabalarga pedagogik mahorati va uning nazariy asoslariga oid bilimlar berish, fanga oid tushunchalarni o'zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini oshirish;*
- tarbiyaviy maqsad: *talabalarda fanning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar berish orqali sohaga qiziqishlarini orttirish, kasbiy mahoratni shakllantirish;*
- rivojlantiruvchi maqsad: *talabalarning kasbiy yetuklik darajasini, kasbiy dunyoqarashini va pedagogik-psixologik qobiliyatini rivojlantirish.*

4.1. O`QITUVCHI VA TALABA O`RTASIDAGI MULOQOT.

PEDAGOGIK NIZOLAR VA ZIDDIYATLARNING KELIB CHIQISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH.



O'quv maqsadi

O`qituvchi va talaba o`rtasidagi muloqot va pedagogik nizolar hamda ziddiyatlarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish haqida nazariy bilimlar berish

*Birdan-bir haqiqiy ne`mat odamlarning bir-biri bilan muloqotidir.
A. Sent -Ekzyuperi*

Tayanch iboralar: pedagogik nizo, nizoli vaziyatlar, konfliktlar yechimi, o`z hayotini muhofaza qilish, pedagogik konfliktlar, o`quv jarayonida nizo, shakllanishining zaruriy talablari

O`zbek tilining izohli lug`atida pedagogik nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: “Pedagogik nizo – bu o`qituvchi va talaba, ustoz va shogird, domla va talaba o`zaro kelishmovchiliklari yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug`ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq“. Adovat, ixtilof, nifoq, tufayli o`zaro janjallar sodir bo`ladi. Odamlar janjal haqida o`ylaganlarida dushmanlik, qo`rqitish, bosqinchilik, tortishuv kabi nohushliklarni nazarda tutishadi. O`quv jarayonida nizo—bu o`qituvchi va talaba o`rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat. Ta`lim jarayonidagi nizolar kishilar kayfiyatiga salbiy ta`sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini pasaytiradi, guruhdagi "ruhiy iqlim"ni yomonlashtiradi, talabalar qo`nimsizligini ko`paytiradi. SHuning uchun bu masalalarga doimo e`tibor berish, ta`lim olayotgan guruhlarni boshqarishni, talabalar turg`unligini ta`minlovchi shartlardan biridir. Ta`lim jarayonida nizoli vaziyatlar oldini olishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Pedagogik nizo qanday xarakterga ega bo`lmasin va u qay darajada katta bo`lmasin, barcha hollarda bu nizoning sabablari hamda uni vujudga keltirgan holatlar diqqat bilan tahlil qilinishi lozim. O`qituvchi har bir aniq vaziyatning tagigaadolat va ob`ektivlik bilan yetishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak. Ta`lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko`ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan: • ta`limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni; rag`batlantirishning takomillashtirilmagani; yomon ta`lim sharoitlarini; ta`lim to`g`risidagi qonunlarni buzishni; o`qituvchi saviyasining pastligi; o`zaro munosabatlar madaniyatining qoniqarsizligi va hokazolarni ko`rsatish mumkin.

Inson ijtimoiy mavjudot sanaladi. Ijtimoiy munosabatlarsiz inson shakllana olmaydi. CHunki inson jamiyat tarkibida ulg`ayadi va ma`lum ijtimoiy munosabatlarni bajarish, ularga rioya qilish, ulardan foydalanishni o`rganadi. SHu bois ijtimoiy munosabatlar inson hayotida juda katta o`rin tutadi. Mana

shunday o`ta muhim va inson hayotiga o`z ta`siri o`tkazadigan, insonning kundalik turmushiga chambarchas bog`lanib, uning uzviy tarkibiy qismiga aylangan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlaridan biri bu – konfliktlar sanaladi. Binobarin, konflikt insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining o`ziga xos oqibatlari majmuidan iborat bo`lgan natijaviy hodisa va voqelikdir. Turli konfliktlar va ularning xususiyatlarini konfliktologiya sohasi o`rganadi.

Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi yangi rivojlanib kelayotigan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy sohalaridan biri hisoblanadi. SHu bois, konfliktologiyaning nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o`ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko`pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko`rinib turibdiki, konfliktologiyaning o`z ichki yo`nalishlari ko`p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o`rganish jamiyatdagи inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to`qnashuvlarning oldini olishga ko`mak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar umuman kamchilikni tashkil etib, bizning voqeligmizda, ayniqsa pedagogikada bu soha yangi sohalardan sanaladi.

Inson bolalik davridanoq turli ijtimoiy munosabatlarga kirishishga o`rganadi. Bunday munosabatlar davrida ba`zan mana shu insonning manfaatlari g`olib keladi, ba`zan boshqa insonlarning manfaatlari g`olib bo`ladi. Manfaatlarlar to`qnashgan vaqtida ikki manfaatdor tomon o`rtasida konfliktlar vujudga keladi. CHunki inson hayoti xuddi shu insonning boshqa insonlar bilan bo`lgan turli va rang-barang ijtimoiy munosabatlari silsilasidan iborat bo`ladi. Insonlar o`rtasida turli munosabatlar bor bo`lar ekan, insonlar o`rtasida turli kuch va qudratga ega bo`lgan konfliktlar ham bo`ladi. Bunday konflikt munosabatlar esa har doim ham silliq, bir tekis, tinch, urushlarsiz, to`qnashuvlarsiz, azob va qiyinchiliklarsiz, psixologik ta`yiq va yoki tushkunliklarsiz bo`lmaydi. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo`lgan o`ziga xos jarayon bo`lib, hech bir inson o`zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb aytا

olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o`z hayoti davomida konfliktlar bilan to`qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo`lib, konflikt bilan to`g`ri munosabat o`rnatish inson tarbiyasi, inson shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Biz, hech bir inson hayotida konflikt vaziyatlar bo`lmagan, deya ta`kidlay olmaymiz. Xuddi shunday, hech bir inson konflikt vaziyatlarga hech qachon to`qnash kelmasdan yashay oladi ham deya olmaymiz. SHunday ekan, konflikt har bir inson hayotiga xos bo`lgan xususiyatdir. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Turg`un va osuda hayot tarzining mana shunday buzilishi holatlarini biz konfliktlar deb ataymiz. Konfliktlar inson hayotining tabiiy qo`rinishi bo`lar ekan, insonlarni bolalik davridanoq konflikt, uning mazmuni, nizo va ziddiyatlarni engib o`tishning turli yo`l, usul va vositalari, shuningdek konfliktlarsiz yashash qoidalarini bolalik davridanoq yoshlarga o`rgatish darkor. Konfliktlardan o`zini himoya qilish vositalaridan biri bu yoshlarni tolerantlikka o`rgatishdir.

SHunga ko`ra, insonni mustaqil ijtimoiy hayotda o`z manfaatlarini muhofaza qilib, o`zgalar manfaatlariga putur etkazmaslikka o`rgatish, ya`ni uni o`z hayotida konfliktlar bilan mutanosib va to`g`ri munosabat o`rnatishga o`rgatish juda katta pedagogik ahamiyat kasb etadigan vazifalardan sanaladi. Konflikt xususiyatlari va mohiyatlari, konfliktlarni echib o`tish borasidagi bilim, malaka va ko`nikmalarni har bir inson egallagan bo`lishi darkor.

So`nggi vaqlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo`lgan turli ilmiy-texnik, ma`naviy, iqtisodiy ta`sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to`qnash kelishi mumkin bo`lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va texnik jihatdan o`ta rivojlanib borayotgan global davr uchun konflikt borasidagi bilim, malaka va ko`nikmalar insonni turli tahdidli hodisalardan asraguvchi, uni muhofaza qiluvchi omil bo`lib xizmat qiladi.

Konfliktlar va ularidan o`z hayotini muhofaza qilishning muhim va

pedagogik nuqtai nazardan ahamiyatli yo`nalishlaridan biri bu – umumta`lim maktablari faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo`lgan konfliktlar hamda ularning mazmuni, kelib chiqish sabablari va oldini olish usul, vosita va yo`llarini o`rganishdir.

Pedagogik jarayon – konfliktlarsiz kechmaydi. Pedagogik konfliktlar juda katta ijtimoiy voqelikni qamrab oladi. Uning tarkibida juda ko`p tomonlar o`z manfaatlari bilan ishtirok etadi. Pedagogik konflikt o`z doirasida juda keng ishtirokchilarni qamrab olishi mumkin bo`lib, aslida ijtimoiy inqirozlarni vujudga keltirish mumkin bo`lgan sababga aylanishi mumkin. SHu bois, pedagoigk konflikt mazmunini to`g`ri va mutanosib belgilash, konflikt vaziyatdan chiqib ketish, uni biror har bir tomon manfaatlarini hisobga olgan echimga keltirish, konfliktlarsix yashash qonun-qoidalarini keng targ`ib va tashviq qilish o`ta dolzarb pedagogik vazifalardan sanaladi.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik konflikt juda keng ijtimoiy makonni o`z domiga qmarab oladi va uning echimi ijtimoiy dolzarb hodisa hisoblanadi. CHunki pedagogik konflikt ko`pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqeа va hodisalarni qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o`rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi, maktab ravnaqi va imiji zarar ko`rishi mumkin.

Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har joyda, har qanday vaziyatda to`qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, mакtabda, ko`chada, talabalar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a`zolari o`rtasida sodir bo`lishi mumkin. Konfliktlar, odatda, ko`p vaqt odamlar birga bo`ladigan hollarda, ya`ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan psixologik va ruhiy muloqotda bo`ladigan holarda, ular ma`lum muddat o`zaro birga, ya`ni bir makonda mavjud bo`lishga majbur bo`lgan paytlarida ko`proq sodir bo`ladi.

Ta`lim muassasalarida konfliktlar, ularda ishtirok etayotgan tomonlar xususiyatlariga ko`ra, kuyidagi turlarga bo`linadi:

- O`qituvchi va talaba o`rtasida;

- Guruh rahbari va boshqa predmet o`qituvchilari o`rtasida;
- Guruh rahbari va ota-onalar o`rtasida;
- Ikki talaba, yoki talabalar o`rtasida;
- Ikki guruh vakillari o`rtasida;
- Turli yosh va guruqlar vakillari o`rtasida;
- O`qituvchi va ota-onal o`rtasida;
- O`qituvchi, guruh rahbari va rahbariyat o`rtasida;
- Ota-onal va o`z farzandi bo`lgan talaba o`rtasida;
- Ota-onal va o`z farzandi bo`lmagan boshqa talaba o`rtasida;
- Muassasa ma`muriyati va yuqori rahbariyat o`rtasida;
- Muassasama`muriyati va OAV o`rtasida;
- Guruhdagi talaba qizlar va o`g`il bolalar o`rtasida.

Ta`lim muassasalarida konfliktlar, ularda ishtirok etayotgan tomonlar manfaatlari, ya`ni konflikt mazmuniga ko`ra rang-barang ko`rinishlarga ega bo`ladi. Masalan, o`qituvchi va talaba o`rtasidaga konflikt – qo`yilgan bahodan norozilik, buyirilgan vazifani bajarmaslik, o`qituvchi salohiyatidan norozilik, darsga kech qolish, dars anjomlarisiz darsga kelish, darsga va yangi mavzuning tushuntirilishiga e`tiborsizlik, o`qituvchining talabaga nisbatan o`zini katta olishi, o`qituvchini mensimaslik, dars jarayonini maqsadli buzish, o`qituvchini haqorat qilish, talabani haqorat qilish, talabani ta`lim maqsadlaridan boshqa ishlar va vazifalarni bajarishga majbur qilish, darsdan xaydab yuborish, kechirim so`rashga madbur qilish, dag`dag`a qilish, pedagogik shantaj, o`ch olish, asoslanmagan tarzda past baholash, talabani yakkalab qo`yish, guruhda guruhbozlikni avj oldirish, o`qituvchiga qarshi butun guruh talabalarini gjigijlatish, o`qituvchidan o`z “alamini” olish, ota-onaga asossiz arz qilish, o`qituvchi ustidan arz qilish, o`qituvchini ishdan haydatib yuborishga urinish, talabalar oilalaridan mablag` yig`ish, ularni asossiz ravishda turli vazifalarni bajarishga jalb etish, o`qituvchi va talabalarga laqab qo`yish v.b.

Ko`rinib turibdiki, pedagogik konfliktlar maktab ta`limi jarayonida turli xil ko`rinishlarga ega bo`lishi mumkin. Bu esa, pedagogik konfliktlarning

serqirra, murakkab hamda rang-barang bo`lishini ko`rsatadi. Hech bir inson o`zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilingan deb hisoblay olmaydi. CHunki konfliktlar ba`zan qo`qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o`zgartirib yuborishi mumkin. SHunga ko`ra, har bir o`qituvchi konfliktlar nazariyasi, xususan pedagoigk konfliktlar va ularni echimga olib kelish bilim, malaka va ko`nimalarini egallagan bo`lishlari taqozo etiladi.

O`zbek tilining izohli lug`atida pedagogik nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: “Pedagogik nizo – bu o`qituvchi va talaba, ustoz va shogird, domla va talaba o`zaro kelishmovchiliklari yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug`ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq “. Adovat, ixtilof, nifoq, tufayli o`zaro janjallar sodir bo`ladi. Odamlar janjal haqida o`ylaganlarida dushmanlik, qo`rqtish, bosqinchilik, tortishuv kabi nohushliklarni nazarda tutishadi. O`quv jarayonida nizo—bu o`qituvchi va talaba o`rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir echimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat. Ta`lim jarayonidagi nizolar kishilar kayfiyatiga salbiy ta`sir qiladi va ularning bilim olish qobiliyatini pasaytiradi, guruhdagi "ruhiy iqlim"ni yomonlashtiradi, talabalar qo`nimsizligini ko`paytiradi. SHuning uchun bu masalalarga doimo e`tibor berish, ta`lim olayotgan guruhlarni boshqarishni, talabalar turg`unligini ta`minlovchi shartlardan biridir. Ta`lim jarayonida nizoli vaziyatlar oldini olishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Pedagogik nizo qanday xarakterga ega bo`lmasin va u qay darajada katta bo`lmasin, barcha hollarda bu nizoning sabablari hamda uni vujudga keltirgan holatlar diqqat bilan tahlil qilinishi lozim. O`qituvchi har bir aniq vaziyatning tagigaadolat va ob`ektivlik bilan etishi, tegishli xulosalar chiqarishi kerak. Ta`lim jarayonida nizoli vaziyatlar turli sabablarga ko`ra vujudga kelishi mumkin. Ulardan: ta`limni tashkil qilishdagi kamchiliklarni; rag`batlantirishning takomillashtirilmagani; yomon ta`lim sharoitlarini; ta`lim to`g`risidagi qonunlarni buzishni; o`qituvchi saviyasining pastligi; o`zaro munosabatlar madaniyatining qoniqarsizligi va hokazolarni ko`rsatish mumkin.

Inson ijtimoiy mavjudot sanaladi. Ijtimoiy munosabatlarsiz inson shakllana olmaydi. Chunki inson jamiyat tarkibida ulg`ayadi va ma`lum ijtimoiy munosabatlarni bajarish, ularga rioya qilish, ulardan foydalanishni o`rganadi. Shu bois ijtimoiy munosabatlar inson hayotida juda katta o`rin tutadi. Mana shunday o`ta muhim va inson hayotiga o`z ta`siri o`tkazadigan, insonning kundalik turmushiga chambarchas bog`lanib, uning uzbekiy tarkibiy qismiga aylangan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlaridan biri bu – konfliktlar sanaladi. Binobarin, konflikt insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining o`ziga xos oqibatlari majmuidan iborat bo`lgan natijaviy hodisa va voqelikdir. Turli konfliktlar va ularning xususiyatlarini konfliktologiya sohasi o`rganadi.

Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiyaning nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o`ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko`pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko`rinib turibdiki, konfliktologiyaning o`z ichki yo`nalishlari ko`p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o`rganish jamiyatdagи inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to`qnashuvlarning oldini olishga ko`mak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar umuman kamchilikni tashkil etib, bizning voqeligmizda, ayniqsa pedagogikada bu soha yangi sohalardan sanaladi.

Inson bolalik davridanoq turli ijtimoiy munosabatlarga kirishishga o`rganadi. Bunday munosabatlar davrida ba`zan mana shu insonning manfaatlari g`olib keladi, ba`zan boshqa insonlarning manfaatlari g`olib bo`ladi. Manfaatlarlar to`qnashgan vaqtida ikki manfaatdor tomon o`rtasida konfliktlar vujudga keladi. Chunki, inson hayoti xuddi shu insonning boshqa insonlar bilan bo`lgan turli va rang-barang ijtimoiy munosabatlari silsilasidan iborat bo`ladi. Insonlar o`rtasida turli munosabatlar bor bo`lar ekan, insonlar o`rtasida turli kuch va qudratga ega bo`lgan konfliktlar ham bo`ladi. Bunday konflikt munosabatlar esa, har doim ham silliq, bir tekis, tinch, urushlarsiz, to`qnashuvlarsiz, azob va

qiyinchiliklarsiz, psixologik ta`yiq va yoki tushkunliklarsiz bo`lmaydi. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo`lgan o`ziga xos jarayon bo`lib, hech bir inson o`zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o`z hayoti davomida konfliktlar bilan to`qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo`lib, konflikt bilan to`g`ri munosabat o`rnatish inson tarbiyasi, inson shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Biz, hech bir inson hayotida konflikt vaziyatlar bo`lmagan, deya ta`kidlay olmaymiz. Xuddi shunday, hech bir inson konflikt vaziyatlarga hech qachon to`qnash kelmasdan yashay oladi ham deya olmaymiz. SHunday ekan, konflikt har bir inson hayotiga xos bo`lgan xususiyatdir. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Turg`un va osuda hayot tarzining mana shunday buzilishi holatlarini biz konfliktlar deb ataymiz. Konfliktlar inson hayotining tabiiy qo`rinishi bo`lar ekan, insonlarni bolalik davridanoq konflikt, uning mazmuni, nizo va ziddiyatlarni engib o`tishning turli yo`l, usul va vositalari, shuningdek konfliktlarsiz yashash qoidalarini bolalik davridanoq yoshlarga o`rgatish darkor. Konfliktlardan o`zini himoya qilish vositalaridan biri bu yoshlarni tolerantlikka o`rgatishdir.

Shunga ko`ra, insonni mustaqil ijtimoiy hayotda o`z manfaatlarini muhofaza qilib, o`zgalar manfaatlariga putur etkazmaslikka o`rgatish, ya`ni uni o`z hayotida konfliktlar bilan mutanosib va to`g`ri munosabat o`rnatishga o`rgatish juda katta pedagogik ahamiyat kasb etadigan vazifalardan sanaladi. Konflikt xususiyatlari va mohiyatlari, konfliktlarni echib o`tish borasidagi bilim, malaka va ko`nikmalarni har bir inson egallagan bo`lishi darkor.

So`nggi vaqlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo`lgan turli ilmiy-texnik, ma`naviy, iqtisodiy ta`sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to`qnash kelishi mumkin bo`lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va texnik jihatdan o`ta rivojlanib borayotgan global davr uchun konflikt borasidagi bilim, malaka va ko`nikmalar

insonni turli tahdidli hodisalardan asraguvchi, uni muhofaza qiluvchi omil bo`lib xizmat qiladi.

Konfliktlar va ulardan o`z hayotini muhofaza qilishning muhim va pedagogik nuqtai nazardan ahamiyatli yo`nalishlaridan biri bu – umumta`lim maktablari faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo`lgan konfliktlar hamda ularning mazmuni, kelib chiqish sabablari va oldini olish usul, vosita va yo`llarini o`rganishdir.

Pedagogik jarayon – konfliktlarsiz kechmaydi. Pedagogik konfliktlar juda katta ijtimoiy voqelikni qamrab oladi. Uning tarkibida juda ko`p tomonlar o`z manfaatlari bilan ishtirok etadi. Pedagogik konflikt o`z doirasida juda keng ishtirokchilarni qamrab olishi mumkin bo`lib, aslida ijtimoiy inqirozlarni vujudga keltirish mumkin bo`lgan sababga aylanishi mumkin. SHu bois, pedagoigk konflikt mazmunini to`g`ri va mutanosib belgilash, konflikt vaziyatdan chiqib ketish, uni biror har bir tomon manfaatlarini hisobga olgan echimga keltirish, konfliktlarsix yashash qonun-qoidalarini keng targ`ib va tashviq qilish o`ta dolzarb pedagogik vazifalardan sanaladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik konflikt juda keng ijtimoiy makonni o`z domiga qmarab oladi va uning echimi ijtimoiy dolzarb hodisa hisoblanadi. Chunki, pedagogik konflikt ko`pchilik insonlarning kundalik turmush tarziga oid voqeа va hodisalarni qamrab oladi hamda konflikt rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o`rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi, maktab ravnaqi va imiji zarar ko`rishi mumkin.

Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har joyda, har qanday vaziyatda to`qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, mакtabda, ko`chada, talabalar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a`zolari o`rtasida sodir bo`lishi mumkin. Konfliktlar, odatda, ko`p vaqt odamlar birga bo`ladigan hollarda, ya`ni ular uzoq muddat bir-birlari bilan psixologik va ruhiy muloqotda bo`ladigan holarda, ular ma`lum muddat o`zaro birga, ya`ni bir makonda mavjud bo`lishga majbur bo`lgan paytlarida ko`proq sodir bo`ladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

- 1.Pedagogik muloqot o`qituvchi kasbiy faolligining bir ko`rinishi hisoblanadi. Isbotlab bering.
- 2.O`qituvchi pedagogik muloqotining shakllariga izoh bering.
- 3.Hozirgi kunda yosh o`qituvchining talabalar jamoasini boshqarish bosqichlari nimalardan iborat?
4. Pedagogik faoliyatda o`qituvchi muloqotining funktsiyalari nimalardan iborat?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Muloqot o`qituvchi va o`quvchilar jamoasining o`zaro ta`sir malakasi deymiz. Bunga qanday qraysiz? O`z fikringizni bayon eting.
2. Pedagogik faoliyatda o`qituvchi muloqot asosida o`quvchilar bilan ijobiy munosabatni tashkil etish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solidi. Siz bu holatda qanday yol tutasiz?
3. Nizolarning kelib chiqish sabablari va psixologik xususiyatlarini aniqlab, ularni bartaraf etish yo`llarini ko`rsating.

TESTLAR

1. Javoblarning qaysi birida o`qituvchining rahbar sifatida jamoani boshqarish yo`llari ko`rsatilgan?

- *A) Avtoritar, demokratik, liberal’;
- B) YOqtirish-yoqtirmaslik, do`stlik o`zaro hurmat, salbiy munosabat;
- C) Xabar berish, ma`lumot olish, xikoya qilish, suhbat o`tkazish;
- D) mavqeiga ko`pa, o`zaro hamkorlikka asoslangan, murosasozlikka asoslangan, barchaning teng kuchli boshqaruviga asoslangan.

2. Yosh o`qituvchi o`zining ish faoliyatida qanday psixologik muammolarga duch keladi?

- A) Do`stlik, hamjihat bo`lib ishlash, xizmatdagi mutanosiblik;
- B) YOlg`on xushomad qilish, kasbga bo`lgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoqtirmaslik;

- *C) Ijtimoiy munosabat, guruhdan qo`rqish, talaba va o`qituvchi o`rtasida ziddiyatning hosil bo`lishi;
- D) Mensimaslik, buyruq, ayblash, kesatiq;

3. Pedagogik faoliyat deganda qanday jarayon tushuniladi?

- A) Pedagogik jarayon-inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan jarayon;
- B) Pedagogik jarayon- komp'yuter texnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llash, ta`lim berishga hamda fanga oid o`quv materiallari to`g`risidagi ma`lumotlarni samaradorli o`zlashtirilishiga qaratilgan ta`lim-tarbiya jarayoni;
- C) Bolalarga ta`lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik kasb egasi;
- *D) YOsh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ta`lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyati.

4.Boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qobiliyatning qaysi turiga kiradi?

- A) Kommunikativ;
- B) Didaktik;
- C) Konstruktiv;
- *D) Empatik.

5. O`qituvchi va o`quvchi muloqotini bog`lovchi asosiy vosita?

- A) Dialog;
- B) Deklamatsiya;
- *C) So`z;
- D) Nutq;

6.Iqtidorli talabalarga xos xususiyatlarni toping.

- A) Maqsadga intilish;
- B) Qat`iylik va mehnatsevarlik;
- C) Ijtimoiy foydali mehnat bilan shug`ullanish istagini mavjudligi;
- *D) Barcha javoblar to`g`ri;

7. Muloqot nima?

- A) SHaxsnинг muhim extiyoji;
- B) Kishi turmush tarzining faoliyatidan kam bo`lmagan bir tomoni;
- *C) Kishining boshqa odamlar bilan o`zaro munosabatda bo`lish shakli;
- D) Ikki yoki undan ortiq kishilarning axborot almashishdagi o`zaro ta`siridir;

8. Tarbiya metodlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- *A) Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, odatlantiruvchi va mashqlantiruvchi, rag`batlantiruvchi va jazolovchi;
- B) Hikoya, ma`ruza, suhbat;
- C) Pedagogik talab, mashqlantirish, rag`batlantiruvchi;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

9. Talabalar bilan muloqotda shirinsuxanlik, xushmuomalalik, muloyimlik o`qituvchilarning qanday sifatlari hisoblanadi?

- *A) Kommunikativ;
- B) Induktiv, deduktiv metodlaridan foydalana olish;
- C) Suxbatlashish, tushuntirish odobi;
- D) Baxsga kirisha olish odobi;

10. Fikr almashish bilan bog`liq bo`lgan metodlar.

- *A) Ishontirish; ta`sir qilish; taqlid qilish;
- B) Ta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi;
- C) Joriy etish, nazorat qilish va baholash;
- D) Mehnat faoliyati, pedagogik jarayon, o`yin faoliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
2. O`zbekiston Respublikasining«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan birga quramiz. – Toshkent : “O’zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo’llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9.XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru

4.2.KASBIY REFLEKSIYA - O`QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA



O'quv maqsadi

O`qituvchi pedagogik mahoratini rivojlanirishning asosi sifati - kasbiy refleksiya haqida nazariy bilimlar berish

*Ilm bir chiroqdurkim, seni rohat
va farog`atga hech bir
zahmatsiz
etkazadi.
Abu Lays as – Samarcandiy*

Tayanch iboralar: refleksiya, reflektiv jarayon, ijodiy tafakkur xususiyatlari, fikrlash madaniyati, muloqot madaniyati.

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O`zbekistonning bugungi va istikboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo`lgan inson ma`naviyati va salohiyatini yuksaltirishda o`qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi bugungi kunda o`zi ta`lim va tarbiya berayotgan shogirdlarining kamoloti bilan mamlakatimiz kelajagiga poydevor qo`yadi.

Demak, bugungi kun o`qituvchisi o`z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo`llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o`zi taqozo etmokda.

Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda o`qituvchining pedagogik maxoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. Pedagogik maxorat qirralarining turli jarayonlarini ko`rib chiqar ekan, olimlar o`qituvchining pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlaydilar. Bu qibiliyatlar asosini esa, o`qituvchining kasbiy refleksiyasini tashkil etadi.

O`qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyyadir.

Refleksiya o`qituvchining o`z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi .

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o`z ongida kechayotgan mulohazalari haqida o`zi fikr yuritish jarayoni, o`z fikrlari mazmunini taxlil qilishga e`tiborini jalg qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshka Yunon faylasuflari refleksiyani insonning o`z - o`zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e`tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta`kidlashadi. Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi Evropa faylasuflari esa, refleksiyaga insonning bilish qibiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar. Leybnits kontseptsiyasiga muvofik refleksiya insonning appertseptsiyaga (idrokning inson o`tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog`liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi.

Bugungi zamonaviy falsafada esa, refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta`rifdan boshqasiga o`tish imkoniyatini beradigan metod sifatida; ikkinchisi esa, individual harakat, yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni, bunda nisbatlash o`lchovi ustidan nazorat ta`minlanishi kerak.

Falsafiy kategoriya sifatida o`rganilayotgan refleksiya hozirgi kunda psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, kibernetika va boshqa ko`plab murakkab fanlarning tadqiqot ob`ekti sifatida e`tirof etilmoqda. Biz «refleksiya» kategoriyasiga pedagogika va

psixologiya nuqtai nazaridan ta`rif berib, uning moxiyatini o`rganishga va taxlil qilishga batafsil to`xtalamiz.

Psixologiyada refleksiya «sub`ekt tomonidan o`zining ichki psixik jarayoni va xolatlarini bilish, nazorat qilish» mazmunida talqin qilinadi. O`qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o`rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ta`rifi mukammal ekanligi e`tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi: refleksiya - «shunchaki sub`ektning o`z - o`zini bilishi, yoki tushunishi emas, balki boshqalar tomonidan «refleksiyalanuvchini» qanday bilishi» va uning shaxsiy xususiyatlarini, emotsiional reaktsiyalarini va kognitiv tasavvurlarini ham tushunishini o`z ichiga oladi.

Shaxsning psixik rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o`rganib, S.L.Rubinshteyn insonning mavjudligini va uning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatlarini refleksiya bilan bog`laydi:

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an`anasi mayjudligi aytildi:

- ob`ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruktsiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- *shaxslararo muloqot ma`nosini tushunish refleksiyasi*;

Bu bilan bog`liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o`z-o`zini va boshqalarni tushunish;
- o`z-o`ziga va boshqalarga baho berish;
- o`z-o`zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya - (lotincha Reflxio- ortga qaytish) sub`ektning o`z (ichki) psixik tuyg`u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o`z ongidagi o`zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi.

Psixologik lug`atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub` ektning o`z-o`zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg`usi va bilish (kognitiB) tasawurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

V.A.Lefevr ta`kidlagan ediki, inson o`zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo`lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o`rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bog`laydi. Bunday o`zaro aloqalarda refleksiya o`zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, enga olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, **retrospektiv refleksiya** bu «sodir etilgan faoliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir».

Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga bo`lgan talabning hukm surish dinamikasi.

S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o`z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi.

Demak, o`qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me`yorlari va sathlari ularni ta`lim muassasasi amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Kreativlik - bu kasbiy hayot usuli, ko`p qirrali ta`lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish

istagi va malakasidir. Kreativlik o`qituvchiga innovatsion o`zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaga qodirdir.

Refleksiya - fikrlashning maxsus usuli bo`lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo`lgan o`z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal modeli»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o`qituvchi shaxsi faoliyatini tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo`ladi va baholanadi.

Pedagogik muhitda o`qituvchi faoliyatini baholashda, odatda, **pedagogik madaniyat** termini qo`llanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog`lanadi.

Pedagogik bilimdonlik o`qituvchining yuksak natijalarga erishishini ta`minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlarga estetik shakl beradi.

Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo`ub xizmat qiladi.

Madaniyat faoliyat jarayoni va natijasi o`larоq subektning dunyo obektlarini o`zlashtira borishdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab oluvchi sotsial hodisani bildiradi. Madaniyat inson yaratgan, shuningdek, qanday vosita va metod bilan yaratgan barcha hodisalami o`zida birlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda, umuman madaniyatda bo`lganidek, predmet-hosila va texnik-texnologik jihatlar mavjud.

Pedagogik madaniyat bir qator tizim hosil qiluvchi unsurlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi:

Pedagogik loyihalash madaniyati. U obektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o`zaro nisbatlagan holda maqsadni to`g`ri tanlay olish, vazifalarni

belgilab olish, ularning echilish bosqichlarini rejalashtirish hamda zarur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya`ni favqulodda yangini yaratish, o`rnatilgan me`yorlar va namunalar chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir.

Bilimlilik madaniyati. U pedagogik bilimlarning turli-tumanligi va pedagog tomonidan bu bilimlarni egallanishini bildiradi.

Dunyoqarash madaniyati. Uning darajasini aksariyat hollarda pedagog va o`qituvchining o`zaro munosabatlari jarayoni va natijalari belgilaydi.

Turli namunadagi dunyoqarashning mavjudligi, xususan, stixiyali, muntazam, ilmiy va mistik, irratsional, optimistik va pessimistik, dogmatik va tanqidiy, diniy, ateistik, ratsional va pedagogik faoliyat subektining ham bir necha namunasi borligini taqozo qiladi.

Dunyoqarash madaniyati fan, falsafa, din kabi ma`naviy madaniyat unsurlari bilan tanishish chog`ida shakllanadi.

Pedagogik madaniyatning yana bir unsuri **fikrlash madaniyatidir**.

Fikrlash madaniyati ham kundalik hayot jarayonida odatdagি vositalar, ham maxsus vositalar (uning tarkibiga formal mantiqni o`rganish ham kiradi) da vujudga keladi.

His etish madaniyati. U insonlar oliv kechinmalarining keng uyg`unligi hosilasi bo`lib, ularsiz pedagogik jarayonda muloqotning bo`lishi mumkin emas.

Baholash madaniyati u yoki bu sabab va hodisalar bo`yicha axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterdagi malakali hukm chiqarish qobiliyatidir.

Muloqot madaniyati pedagogik madaniyatning eng muhim komponenti bo`lib, u pedagogning talabalar, ota-onalar hamda rahbariyat yoki quyi vazifa egallovchi shaxslar, shuningdek, pedagogik ish doirasidan tashqaridagi barcha insonlar bilan muloqot qilish madaniyatlarini qamrab oladi.

Tashkiliy madaniyat ham pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o`qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida(**jamiyatda, o`quv yurtlarida, bolalar guruhlarida**) tashkil etish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, pedagogok mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- *har bir talaba uchun dolzarb bo`lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, talabaning shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mamunining ochilishi va amalga oshishida o`qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko`rsata olishini bila olish» qobilityati;*
- *ayrim o`qituvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integrasiyasi hisoblangan hamdajonli organizm sifatida talabalar (guruh va b.) guruhini uning rivojlanish va mazmun kasb eta borish jarayonida «ko`ra olish»qobiliyati;*
- *sinjhing integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini idrok etish malakasi;*
- *o`zining organizmini yuksak darajada anglash. Guruh, talaba o`z istaklari, motivlari, afzal ko`rishi jihatidan ular uchun zarur bo`lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;*
- *shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chalg`itish;*
- *o`z sezgilarining nozik farqlanish imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish;*
- *keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»: ovoz, xatti-harakat, mimika va boshqalami egallah;*
- *kasbiy usullar va metodlarning kengjamgarmasi;*
- *metodologiyani egallah.*

Mamlakatimizda ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan mo`ljallangan vazifalarni amalga oshirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni hamda talabalarda omilkorlikni shakllantirish maqsadida internet - resurslardan keng foydalanishni ko`zda tutadi, bu esa, o`z navbatida, o`qituvchi kasbiy madaniyatining bir qismi va ta`lim muassasalarida ta`lim muxitini tegishli o`zgarishi sifatida o`qituvchilarning yuqori saviyadagi axborot madaniyatiga ega bo`lishini ko`zda tutadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. O`qituvchining o`z-o`zini boshqarishida va o`z-o`zini takomillashtirishida refleksiyaning roli roli qanday?
2. Kasbiy refletsiya deganda nimani tushunasiz?
3. O`qituvchida kasbiy pedagogik refleksiya qanday namoyon bo`ladi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Refleksiya tushunchasiga pedagogik - psixologik, falsafiy tomondan, o`ylab ta`rif bering.
2. O`qituvchi o`z-o`zini kasbiy takomillashtirishiga asos yaratadi. Siz o`zingiz qanday yo`tutasiz?
3. O`qituvchining pedagogik faoliyatida erishayotgan yutuqlarini nimadan iborat?
4. Kasbiy refleksiya - o`qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirishning asosi sifatida deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.

TESTLAR

1. Berilgan tushunchalarni shakllantirish ketma-ketligi qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?

- A) Malaka-ko`nikma-bilim-tushuncha;.
- B) Ko`nikma-bilim-malaka-tushuncha;
- *C) Tushuncha-bilim-ko`nikma-malaka;
- D) Ko`nikma-bilim-tushuncha-malaka.

2. Ta`limda proektsion uskunalar va slaydlarni qo`llash qaysi didaktik tamoyilda o`z ifodasini topgan?

- A) Ta`lim va tarbiyaning birligi;
- B) Nazariya va amaliyotning birligi;
- C) Onglilik va faollik;
- *D) Ko`rgazmalilik.

3. An`anaviy ta`limning asosiy kamchiligini ko`rsating?

- A) Ta`limda o`quvchining maqsadlari inobatga olinmaydi;
- B) Zamonaviy ta`limning talablariga butunlay javob bermaydi;
- C) Ta`lim faqat darslik va o`quv qo`llanmalarga asoslanadi;

*D) Talabaning aqliy, ijodiy, kommutativ bilim olishini etarlicha ta`minlanmaydi.

4. Iqtidorli talabalar qanday didaktik vositalar orqali aniqlanadi?

- *A) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali qobiliyat darajasi aniqlanadi;
- B) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali o`zlashtirish sifati ko`rsatkichi aniqlanadi;
- C) Maxsus psixologik, pedagogik testlar orqali insoniy fazilatlari aniqlanadi;
- D) Barcha javoblar to`g`ri;

5.Ta`lim berishning asosiy kategoriyalari?

- A) Ilmiy, nazariy, amaliy, isbotlilik, joriy etilganlik;
- *B) Bilish, tushunish, qo`llash, tahlil, sintez, baholash;
- C) Og`zaki, ko`rgazmali, amaliy, laboratoriya ishlari, ekskursiyalar;
- D) Ilmiylik, tushunarilik, onglilik va faollik, uzviylik.

6. O`qitish shakllari to`liq berilgan javobni toping.

- *A) Ma`ruza, seminar, amaliy, laboratoriya mashg`ulotlari, mustaqil ta`lim, amaliyot;
- B) Mashg`ulot, turli sayohatlar, sinfdan tashqari mashg`ulotlar, hikoya;.
- C) Mashg`ulot, mashg`ulotdan tashqari ishlar, turli sayohatlar, individual mashg`ulot shakllari, guruhda o`tkaziladigan mashg`ulot shakllari, ommaviy mashg`ulotlar;
- D) Mashg`ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya, sinfdan tashqari mashgulotlar;

7. O`quv mashg`uloti jarayonida o`qituvchining suhbati ta`limning qaysi metodiga kiritiladi?

- A) Amaliy;
- *B) Og`zaki;
- C) Ko`rgazmali;
- D) Mashq qilish.

8. O`qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab toifalarga ajratib bering?

- A) Tashabbuskor o`qituvchi va tashabbussiz o`qituvchilar;
- B) Ishga e`tibor bilan qarovchi o`qituvchilar, aktiv, passiv, kommunikativ, jonkuyar, fidoiy;
- C) Xushmuomala va tashabbuskor o`qituvchilar;
- *D) Tashabbuskor, ijodkor o`qituvchilar, tashabbussiz, o`z fikriga ega bo`lman o`qituvchilar, hamma ishga befarq qarovchi o`qituvchilar.

9.Kommunikativ qobiliyat qanday qobiliyat?

- A) O`qituvchining o`z ishini rejalshtira olish demakdir;
- B) Boshqa odamlar bilan bo`ladigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik kelishuvchanlikni ta`minlaydigan qobiliyatdir;
- C) Boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik

qobiliyatidir;

*D) Boshqalarning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdardlik munosabatida bo`lish asosida ta`lim va tarbiya bera olish qobiliyatidir;

10. Reyting tizimining vazifalari.

- *A) Talaba bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarini tahlil qilish, talaba bilimini muntazam nazorat qilish, o`qitish samaradorligini aniqlash;
- B) Talabani rag`batlantirish yoki jazolash uchun asos yaratish;
- C) Davlat ta`lim standartlarining sifatini aniqlash, o`qitish samaradorligini aniqlash;;
- D) Barcha javoblar to`g`ri.

Foydalanilgan adabiyotlar

3. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
4. O`zbekiston Respublikasining«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O’zbekiston”, NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Xarakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish bo’yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2008. 229 b.

8.Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

9.XoliqovA.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru

www.didaktika.ru

www.School.edu.uz

www.Ppsy.ru

www.Bank/referat.ru

**4.3.HOZIRGI ZAMON O`QITUVCHISINING
INNOVATSION FAOLIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI**



O'quv maqsadi

Hozirgi zamon o`qituvchisining innovatsion faoliyatini oshirishning nazariy asoslari haqida nazariy bilimlar berish

Umrning butun ma`nosi mavhumlikni to`xtovsiz zabit etish, tobora va hamisha ko`proq bilishga intilishdir.

Emil Zolya

Tayanch iboralar: innovatsiya, innovatsiya jarayoni, muayyan tizim mahsuloti, pedagogik innovatsiya, o`quv ishlarini faollashtirish, akmeologiya ilmi, hosil qilish qobiliyati, ijod tushunchasi, individuumning potentsial joylashishi, pedagogik novatorlik, o`qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I. Prigojin **innovatsiya** deganda *muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turgun unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o`zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.*

Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o`rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o`zaro ta`siri mikrosathi.*

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g`oya yoritiladi.

Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilik Marning o`zaro ta`siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o`rnini ikkinchisi egallashidir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptsiyasini farqlaydilar.

Bu konseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o`lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1.. *YAngi g`oya tug`ilishi yoki yangilik konseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.*

2.*Ixtiro qilish, ya`ni yangilik yaratish bosqichi.*

3. *YAratilgan yangilikni amalda qo`llay bilish bosqichi.*

4. *YAngilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.*

5. *Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o`zining yangiligini yo`qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo`ladi.*

6. *Yangi muqobililik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo`llanish doirasini qisqartirish bosqichi.*

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo`naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

YAngilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari (A.I.Prigojin, : B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o`zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinci shaklga yangilikni keng ko`lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

YAngilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o`zaro ta`sirini ifodalaydigan dinamik j tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o`rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub`ektiv yangilikka qiziqish uyg`otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamонавиylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko`zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma`lum unsurlarning yig`indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret obektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Subektiv yangilik ma`lum ob`ekt uchun obektning o`zi yangi bo`lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo`nalishlarda **yangilik** va **innovatsiya** tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy **yangi** tushunchasiga ta`rif berib, pedagogikadagi **yangi** bu faqatgina g`oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo`lib, o`zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta`lim

va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg`or boshlanmalarini o`zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova **pedagogik yangjlikka**, o`qitish va tarbiya berishda avval ma`lum bo`limgan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o`zgarib turishi mumkin bo`lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.YUsufbekova *innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi*:

Birinchi blok - pedagogikadagi **yangini** ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me`yorlari, yangining uni o`zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an`ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchchi blok - yangini idrok qilish, o`zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o`zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya`ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatları va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o`ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- *faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl -metodlar - metodika komponentlari yig`indisi;*
- *subektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *mazmun tuzilmasi - o`quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo`lishi, ishlab chiqilishi va o`zlashtirilishi;*

- *bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi* - yangilikning paydo bo`lishi - ildam o`sish - etuklik - o`zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to`yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;
- *boshqaruv tuzilmasi* - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o`zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- *tashkiliy tuzilma* - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- *pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;*
- *nihoyat amalga oshish qonuni;*
- *qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;*
- *pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;*

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to`g`risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo`linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyligi bo`lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushirish vaamaliy harakatga o`tish tendensiyasigaegabo`ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklaming amalga oshish yo`liga to`sinq bo`lishga majbur bo`ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuning mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o`tadi, ya`ni innovatsion jarayonda unga bo`lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart sharoitlari tizimi, usullari va yo`llariga ongli munosabat bo`lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Ta`lim muassasasidagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.YA.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta`lim muassasasi innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- *madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;*
- *shaxsiy faoliyat jihatidan (ta `limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;*
- *ko`p subektli (dialogik) yondashuv, ya`ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;*
- *individual - ijodiy (o`qituvchi va talabalaming o`zaro munosabatlari asosida) yondashuv.*

Ta`lim muassasasida **innovatsion faoliyatning subekti** o`qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o`qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo`ladi.

S.M.Godninning ishlarida *talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning subekti sifatida yoritiladi*. Unga quyidagilarni kiritadi: o`qitishning hoziigi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o`quv - taibiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko`rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning vangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o`z-o`zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a`lo darajada enga bilish, o`sish va mustahkam o`rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o`zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo`lish va hokazo.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o`z-o`zini boshqarishi va o`zini- o`zi safarbar qila olishi hisoblanadi*. Uning eng muhim yo`nalishlaridan bilan **talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo`nalish talabalarning o`quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o`z ichiga oladi.

Tayanch yo`nalishlar - ta`lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o`zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o`tish.

SHunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo`nalishi *gumanistik aksiologya ekan*, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o`zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O`qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o`qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o`tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma`nolarni bildiradi.

B.G. Ananev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo`g`rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to`g`risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatları, professionalizmga etishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug`ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko`rishiga olib keladigan subektiv va obektiv omillarini asoslab berdi. Obektiv omillarga olingan ta`limning sifatini, subektiv omillarga esa insonning iste`dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma`suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

YUksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko`rsatiladi:

- *iste `dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste`dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o`quv yurti;*
- *o`z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o`zining o`sish va takomillashish jarayoni;*
- *o`z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O`qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;*
- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*
- *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g`ayri odatiylikka vayangilikka bo`lgan his-tuyg`u, professionalizm, bilishga bo`lgan chanqoqlik (N. V. Vishnekova).*

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro`yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- *ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;*
- *pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;*
- *samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;*
- *shaxsning o`z taqdirini o`zi belgilash va o`zini o`zi namoyon qila olishi asosida o`z rivojlanishini ta `minlash;*

Shu tariqa o`qituvchining ijodiy individuallagini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o`z-o`zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o`zini boshqalarga qiyos qilish asosida o`z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o`zi to`g`risidagi kreativ ko`rinishlar va tasawurlari to`plami; individual kreativ o`ziga xosliklaming bir butunligi va uyg`unligi , ichki birligi; shaxsning o`z rivqilanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o`zini namoyon qila olishi va o`zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o`zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o`zining o`rnini anglay olishi (V.A.Slastyonin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o`qituvchining kasbiy mahorati cho`qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O`qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo`ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko`nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsifiaydigan qator individual qobiliyatlarni ko`rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo`llay olishi;
- o`ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni

belgilashda esa subekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, YA.A.Ponomarev, S.YU.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko`rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- Shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o`z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanaai;
- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo`lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo`lib qoladi.

Rag`batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiB) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo`limlarga bo`lib o`rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagagi kreativlik.

Potensial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo`ladigan individuumning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy subektiv shartidir.

Faoliyatdagagi kreativlik - faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko`rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta`minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individuumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim subektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko`rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo`lgan

kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o`tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (subekt) tomonidan uning o`zlashtirilishida tub o`zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o`zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo`shilgan holda uni to`ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo`li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O`qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko`chiriladi; **ikkinchi bosqichda** mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; **uchinchi bosqichda** g`oyani i amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to`la ishlab chiqiladi; **to`rtinchi bosqichda** esa o`qitish va tarbiyalashning o`z betakror konseptsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O`qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir.

Refleksiya o`qituvchining o`z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi .

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an`anasi mavjudligi aytildi:

- ob`ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruktsiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- *shaxslararo muloqot ma`nosini tushunish refleksiysi;*

Bu bilan bog`liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o`z-o`zini va boshqalarni tushunish;
- o`z-o`ziga va boshqalarga baho berish;
- o`z-o`zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) subektning o`z (ichki)

psixik tuyg`u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o`z ongidagi o`zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi.

Psixologik lug`atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub` ektning o`z-o`zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg`usi va bilish (kognitiB) tasawurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

V.A.Lefevr ta`kidlagan ediki, inson o`zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo`lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o`rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan bog`laydi. Bunday o`zaro aloqalarda refleksiya o`zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, enga olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, **retrospektiv refleksiya** bu «sodir etilgan faoliyat tarixinining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyasidir».

Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga bo`lgan talabning hukm surish dinamikasi.

S.YU. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o`z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi.

Demak, o`qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me`yorlari va sathlari ularni ta`lim muassasasi amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni asoslash uchun quyidagi toifalarni asoslab berish kerak:
pedagogik mahorat, pedagogik ijodkorlik va pedagogik novatorlik.

Pedagogik mahorat — pedagogikaga va aloxida metodikalarga avvaldan va mustaxkam kiritilgan ishslash usullari, shakllari, metodlari xamda vositalarini shaxsiy amaliyotda turlicha va moslashtirib ongli ravishda qo'llashni ifoda etadigan an'anaviy pedagogik faoliyat turi. Pedagogik faoliyatning bu turi o'quv — tarbiyaviy ishlar metodikasini yuksak mahorat darajasida egallaganligi bilan ajralib turadi.

Kasbiy mahoratni egallagan o'qituvchi quyidagilar bilan farq qiladi:

- to`tri tanlangan misollari, o`ziga xos va qiziqarli tuzilgan masalalar bilan;
- moxirlilik bilan va aniq ishlab chiqilgan rag`batlantirish hamda baholash tizimi aniq yo`lga qo`yilgan.; qayta aloqa bilan (og`zaki va yozma javoblar bilan);
- o`g'kiituvchining ishslash o`z uslubi va yo`li bilan;
- darsni qiziqarli tashkil etishi, talabalarning turli xil ishlarini samarali tashkil etish bilan;
- o`qitishda qo`shimcha samara beradigan maxsus tanlangai yoki o`zi tayyorlagan ko`rgazmali qo`anmalari bilan.

Pedagogik faoliyat unda xech bir jiddiy (printsiniad) tamoyili bo`lmagan yangilik yaratilmagan xolatda an'anaviy hisoblanadi. SHunga qaramay yaxshi ma'lum bo`lgan xaqiqiy mahaxorat darajasiga etkazilgan ish usullari, metodlari va shitsakllaridan amaliyotda foydalanish doimiy yuksak`atijalarga erishishga imkon beradi.

Pedagogik ijodkorlik pedagogik texnologiyaning yangi elementlaridan foydalanishi bilan xarakterlanadi. Pedagogik ijodkorlik aloxida ish usullari va vositalarini modernizatsiyalashtirish bilan bogliq. Modernizatsiyalashtirish esa quyidagilardan iborat:

- o`qituvchi va talabaning yangi ish usullarini ishlab chiqish;
- o`quv fanining aloxida bo`limlari bo`yicha yoki butun yaxlitligicha o`qitishning qiziqarli vositalarini tanlash;

- yangi turdag'i ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar yaratish;
- shaxs va jamoa bilan yanada samarali ishslash, nostandart shakllaridan foydalanish;
- turtsh yunalishlarda ta'lim mazmunini yangilash.

Pedagogik ijodkorlik ommaviy va innovatsion pedagogik faoliyat o'rtaida aloxida o'tish bosqichi mavjud.

Pedagogik novatorlik — bu o'quv —tarbiyaviy masalalarini xal etishning yangi yo'llarini izlash bilan bog'liq bo'lgan pedagogik faoliyat turidir.

Novatorlik faoliyati ommaviy faoliyatdan katta farq qiladi. U o'quv rejalarini, dasturlarini, darsliklarini o'zgartirishni talab etadi.

Novatorlik faoliyatini amalga oshirish uchun u yoki bu ta', im muassasasining yangi faoliyat tartibini o'zlashtirish kerakbo'ladi.

Pedagogik novatorlikni miqdorli ko'rsatkichlar bilan o'lchab bo'lmaydi. Pedagogik novatorlikning natijalari har doim xam darhol sezilmaydi, ular shaxsning kamolotiga qaratilgandir.

Pedagogik novatorlik quyidagi farq qiluvchi xususiyatlari bilan o'zgachalik kasb etadi:

- shaklan va mazmunan yangi samarali mahsuldor pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- talabalarning fikrlashlari hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tarbiyalash va uni amalga oshirish kabilar;
- murakkablik darajasini oshirib, bilimlarini anglagan holda qo'llashni talab etuvchi faol metodlarni qo'llash;
- qayta aloqani amalda qo'llab, xamkorlik pedagogikasidan foydalanish.

Amaliy ishlarda pedagogik faoliyatni pedagogik maxoratga, ijodkorlikka, novatorlikka ajratish, ularni chegaralash mumkin emas.

Innovatsion faoliyatning bu tashkiliy qismlari bir —biri bilan juda yaqin bo'lib, o'zaro bog'liqlikka olib boradi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga

ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O`qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to`qnashuvi va o`zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko`zda tutadi.

O`qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog`liq. Unga o`qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg`araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o`qituvchi o`z bilim va ilmiy faoliyatini ta`minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiB)ga ega bo`ladi.

O`qituvchi faoliyatida o`z-o`zini faollashtirish, o`z ijodkorligi, o`z-o`zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiB)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o`qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

YAngilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini* tug`dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o`qituvchining o`z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o`ziga bo`lgan yangi munosabatni yarata olish qobUiyatidir. O`qituvchi o`z nuqtai nazarlariga o`ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallahib boradi. Bunday vaziyatlarda o`qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o`zgarib boradi, hissiy tuyg`ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o`qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi*.

O`qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o`zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilgandir.

O`qituvchi va talaba o`rtasidagi muloqot namunasining o`zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

YAngi munosabatlar, an`analarda bo`lganidek, qistovlar, hukmga bo`ysunish kabi unsurlardan holi bo`lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o`zaro boshqarilishi, o`zaro yordam shaklida qurilgan bo`lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o`qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo`lish;*
- *(o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, o`z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).*

Demak, o`qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ`ibotchisi sifatida namoyon bo`ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta`lim taraqqiyoti sharoitida o`qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo`lgan zaruriyat quyidagilar bilan o`lchanadi:

- *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta`lim tizimi, metodologiyavao`quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi.*
- *Bunday sharoitda o`qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o`zlashtirish va foydalanishdan iborat bo`ladi;*
- *mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o`qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;*
- *pedagogik yangilikni o`zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o`qituvchining munosabati xarakteri o`zgarishi.*

O`qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me`yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me`yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo`llash imkoniyatlari kiradi

YAngilik pedagogik yangilik me`yori sifatida o`zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darjasи mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo`llanish mashhurligi darjasи va sohasiga ko`ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me`yori o`qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o`qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o`z mohiyatiga ko`ra ommaviy tajribalar mulki bo`lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o`qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obektiv baho olgandan so`ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o`tkazgan tadqiqotlar o`qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- *mo`ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;*
- *kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o`zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklami aniqlash;*
- *yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;*
- *yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;*
- *yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.*

O`qituvchining innovatsion faoliyati o`z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastyonin tadqiqotlarida o`qituvchining innovatsion faoliyatga bo`lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- *shaxsning ijodiy-motivasion yo`nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o`zkamolotiga intilish va boshqalar;*
- *kreativlik. Bu — hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo`lish, tavakkal qilish, tanqidiy flkrlash, baho bera olish qobiliyati, o`zicha mushohada yuritish, refleksiya;*

- *kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konseptsiyasini faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;*
- *o`qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surati; shaxsnинг ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatiyatilik, o`ziga ishonch; ma`suliylilik, halollik, haqiqatgo`ylik, o`zini tuta bilish va boshqalar.*

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o`qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me`yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- *innovatsion foliyatga bo`lgan zaruriyatni anglash;*
- *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;*
- *shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;*
- *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*
- *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta`siri;*
- *kasbiy refleksiyaga*
bo`lgan qobiliyat.

Ta`lim muassasasidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o`qituvchilarining kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlarini xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o`qituvchi shaxsidir.

O`qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo`lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg`ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o`ch bo`lishi lozim.

O`qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo`nalishda amalga oshirilishi lozim:

- *yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;*
- *yangicha harakat qila olishga o`rgatish.*

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o`quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniylari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o`rganish ta`lim muassasasi o`quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollari:

1. Pedagogik ta`sir ko`rsatish metodikasidan samarali foydalanish shartlari qandayq
2. Pedagogik tajriba qanday xulosalar chiqarishga imkon beradiq
3. Talabalarga metodik jiqtadan qanday qilib to`qli to`qri talab qo`yish kerakq
4. Pedagogik mahorat tizimida ishontirish usuli nimadan iboratq
5. Qanday sharoitda ishontirish tarbiyaviy vosita bo`lib qolishi mumkinq
6. Nima uchun o`qituvchi o`z ishida psixik qolatning anglab bo`lmaydigan tarkibiy qismlarini qisobga olishi kerak?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Guruhlarga (o`qituvchi-talaba) bo`linib, o`qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini ochib bering.
2. Yoshlar o`rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mashq qildirish yo`li orqali individual muomala uslubini takomillash-tirish mumkinmi?
4. Hozirgi zamon o`qituvchisining innovatsion faoliyatini oshirishning nazariy asoslari deganda nimani tushunasiz? Izohlab bering.

TESTLAR

1. O`quvchi-talabalarning individual-psixologik xususiyatlariga moslab, gomogen guruhlarga ixtisoslashini ta`minlaydigan ta`lim texnologiyasi qanday nomlanadi?

- A) Dasturlashgan ta`lim texnologiyasi
- *B) Tabaqalashgan (differentsial) ta`lim texnologiyasi
- C) Muammoli ta`lim texnologiyasi
- D) Faol o`qitish texnologiyasi

2. O`qituvchi o`quv yiliga tayyorlanishida qanday tayyorgarlik ko`rishi lozim?

- A) Davlat dasturi bilan tanishib chiqishi lozim
- B) DTS asosida yaratilgan dastur bilan tanishib chiqishi lozim
- *C) Fan bo`yicha ilmiy-nazariy adabiyotlarni bilishi, DTS asosidagi dasturni o`rganishi, o`quv darsligi va qo`llanma bilan tanishib chiqishi lozim
- D) Darsliklar bilan tanishib chiqishi lozim

3. Darsning muallifi o`qituvchidir. U darsni o`tishda qanday elementlarga e`tibor berishi lozim?

- *A) DTS asosidagi dastur bo`yicha mavzuni belgilashi, u davr bilan o`tilgan mavzu va o`tilishi lozim bo`lgan mavzu bilan bog`lashi lozim
- B) DTS asosidagi dasturga asoslanishi
- C) Darslikdagi mavzuni chuqur bilishi
- D) Darslik, dastur, o`quv-qo`llanmasidagi mavzuni chuqur bilishi

4. O`quv maqsadlari tizimi to`liq ko`rsatilgan javobni aniqlang

- *A) Jamiyat-davlat buyurtmasi, ta`lim tizimining maqsadi, o`quv yurtining maqsadi, o`quv predmetining maqsadi, o`quv modullari maqsadi, xususiy o`quv maqsadlari
- B) “Ta`lim tug’risida” gi qonun maqsadi, o`quv yurti maqsadi, o`quv predmeti maqsadlari
- C) Xususiy maqsad, modullar maqsadi, o`qitish maqsadi, shaxsiy maqsad, xususiy maqsadlar
- D) Davlat maqsadi jamiyat maqsadi, o`quv yurti maqsadi

5. Murabbiy shaxsiy fazilatini belgilovchi asosiy sifat nima?

- *A) murabbiyning shaxsiy namunasi
- B) murabbiyning bilimdonligi
- C) murabbiyning mehribonligi
- D) murabbiyning xayrixoxligi

6. Tarbiyachi mahorati qanday komponentlardan iborat?

- A) o`quvchilar psixologiyasini yaxshi bilishi
- B) tarbiyachilikka doir bilimlarga ega bo`lishi
- *C) pedagogik-psixologik, metodik, bilimga shaxsiy namuna egasi bo`lishi
- D) sabr-toqatli, mehr-shavqatli bo`lishi

7. Tarbiyachi tarbiyaviy ish jarayoni va kayfiyatini boshqarish, quvnoq, optimal, vazmin, zukko, ziyrak bo`lishi uchun nima qilishi kerak?

- *A) muntazam ravishda aqli, axloqi, ongini nazorat qilishi
- B) ongini rivojlantirishi
- C) aqlini boyitishi
- D) mayda-chuyda ishlarga e`tibor bermasligi

8. Tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda qaysi mezonlar inobatga olinadi?

- *A) ezgu hislar, motivlar, niyatlar, istaklar, e`tiqodlar, ehtiyojlar, ijtimoiy qarashlar, shaxsiy sifatlar
- B) ezgu niyatlar, ehtiyojlar, shaxsiy sifatlar, qarashlar
- C) ilmga bo`lgan qiziqish, axloqiy sifatlar
- D) orzu-havas, e`tiqod, ehtiyojlar

9. O`qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi tizimida ixtisos profesiogrammasida pedagogik faoliyat turlari to`g'ri ko`rsatilgan javobni toping.

- *A) Shaxsiy, pedagogik tayyorgarlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik nazokat, ruhiy pedagogik tayyorgarlik.
- B) Ruhiy pedagogik tayyorgarlik, ixtisos tayyorgarligi, pedagogik muloqot, talant
- C) shaxsiy-pedagogik tayyorgarlik, ruhiy-pedagogik tayyorgarlik, ixtisos va didaktik tayyorgarlik
- D) shaxsiy pedagogik tayyorgarlik. Ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik, ruhiy-pedagogik tayyorgarlik

10. Pedagogik mahoratning ta`rifi to`liq keltirilgan javobni aniqlang.

- A) o`qituvchi – tarbiyachi zukkoligini ko`rsatuvchi xususiyat
- B) o`qituvchining bilimdonlik darajasi
- *C) o`qituvchi – tarbiyachining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi shunday xususiyatki, u o`z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik, psixologik, metodik tayyorgarligida, o`quvchi - yoshlarni o`qitish, tarbiyalash va ma`lumotli qilishning optimal yo`llarini izlab topishida namoyon bo`ladi
- D) o`qituvchining kasbiy fazilatini belgilovchi xususiyat

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997 yil.
- 2.O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - Toshkent, 1997.

3. Barkamol avlod orzusi (Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, X.Saidov, R.Asliddinov. – Toshkent, «Shark» manbai kontserni, 1999 yil.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.
7. Axmedjanov M.M. va bosq. Pedagogik mahorat. O`quv qo'llanma. Toshkent, 2008. 229 b.
8. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
9. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

SAYTLAR:

www.inter-pedagogika.ru
www.didaktika.ru
www.School.edu.uz
www.Ppsy.ru
www.Bank/referat.ru

XULOSA

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zaruriyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan, dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bois, oliy o`quv yurtlarida talabalarni hozirgi zamon talabi ruhida tarbiyalash, olingen nazariy bilimlarni amaliyatda qo`llash, ko`nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko`pgina ta`lim-tarbiya vositalari, uslubiy shakl yo`riqlari mavjud. Jumladan, bu borada yoshlarni hayotga tayyorlashda ko`p asrlar davomida qo`llanilgan usullar, vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar va an`analar, g`oyalar, hayotiy tajribalardan iborat namunalar majmuasidir.

O`quv qo`llanmada mualliflar hozirgi zamon pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlari hamda uzoq yillar olib borilgan kuzatishlari, mazkur “Tarbiyaviy ish metodikasi” fanini o`qitishdagi tajribalarga asoslanib, o`qituvchi mahoratining ilmiy – nazariy va amaliy – metodik asoslari xususida fikr yuritdilar. O`qituvchi mahoratining nazariy – metodologik asoslari, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy qismlari, ularning vazifalari, o`quv – tarbiya jarayonini boshqarishda o`qituvchi va tarbiyachi mahorati aniq dalillar asosida yoritildi.

Maqsadimiz – bo`lajak o`qituvchilarga, xususan, faoliyatini endigina boshlagan o`qituvchi - tarbiyachilar, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy pedagogik mahoratni egallagan xolda tarbiyaviy tadbirlarni o`tkaza bilish mahoratiga ega bo`lish hamda takomillashtirish haqida ma`lumot berishdan iborat.

Aziz kitobxon! Qo`lingizdagi ushbu darslik milliy tiklanish g`oyalari va yuqorida qayd etilgan vositalarga asoslanib tuzilgan.

Ushbu darslikda kamchiliklar, hali qiyomiga etmagan fikrlar bo`lishi mumkin. Shu sababdan sizning fikr-mulohazalaringizni kutamiz va keyingi nashrlarda ularni albatta inobatga olamiz.

ILOVALAR

Guruh ishida berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o`ylab chiqilgan bo`lishi kerak, chunki, ularda ta`lim oluvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor. Guruh ishi uchun quyidagi o`qitish shakllari mos keladi:

1. Ustaxona shaklidagi guruh ishi:

Ustaxonada bajariladigan amaliy mashg`ulot doirasidagi vaziyatga o`xshash kelajak faoliyat bo`yicha stsenariylar va muammolar ishlab chiqiladi. Buning uchun dolzarb muammolar o`rganib chiqilishi kerak. Bu muammolar ta`lim oluvchilarning dastlabki bilimlar darajasini inobatga olgan holda va ijodiy fikrlash bilan bog`liq holda ta`lim oluvchilarni echimlarga undashlari kerak.

2. «Reja o`yini» shaklidagi guruh ish:

«Reja o`yinlari» belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko`rish imkonini beradi. Ta`lim oluvchilar bunda muammoga bo`lgan har xil ta`sirlar natijaga qanday ta`sir qilishini o`rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog`liq ravishda ko`riliishi kerak. Masalan har xil komp`yuter dasturlari orqali korxona va firmalar faoliyati sohasidagi masalalarni «o`yin orqali» sinab ko`rish imkoniyatini yaratadi. Ta`lim oluvchilar o`yin jarayonida o`zaro raqobat munosabatida bo`ladilar.

3. Loyiha shaklidagi guruh ishi:

Loyihaviy ish bir loyihani anik belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruh ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo`yicha aniq taqsimlanishi kerak bo`ladi.

3.Munozara metodi jarayonida yuzaga keladigan bahslashish fikrlashning ifodasi bo`libgina qolmay, shakllanib kelayotgan shaxs o`zining biror narsani hal etish, mustaqillikda kattalar Bilan teng xuquqli ekanligini yoqlash ehtiyojidir. Dars jarayonidagi bahs chog`ida o`qituvchi ta`lim oluvchilar bilan baravar haqiqat izlovchisi bo`lib harakat qiladi. Ana shu bahsda u o`z bilimini namoyish etadi, keng fikrlaydi, fikrlarni dalillar bilan asoslaydi, bu fazilatlar esa ta`lim oluvchilar o`rtasida o`zaro katta hurmat uyg`otadi. Bahs jarayonida har bir ta`lim

oluvchining «shaxsiy fikri», o`z mavqeini ifodalash va asoslash malakasi yuksak qadrlanadi.

4. Mashq metodi. Mashq - bu o`tilgan o`quv materiallarini amaliyotda qo`llash maqsadida, rejali tashkil etilgan amallarni ko`p marotaba bajarishdir. Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, u, ko`nikma va malakalarni samarali shakllanishini ta`minlaydi

Mashq-ko`nikma va maxoratlarning tashkil etuvchilari bo`lganligi kabi ishlab chiqarish ta`limining ham asosiy metodi bo`lib xisoblangan mashqlar bilan shakllanadi. **Mashq** deganda ongli ravishda ma`lum bir faoliyat metodi bo`yicha amaliy xarakatlarni ko`p martalab takrorlash tushuniladi.

Ta`lim oluvchilarining mustaqil kuzatuvi. Bu metod asosan murakkab tuzilishdagi jixozlarga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq kasbni egallamokchi bo`lgan ta`lim oluvchilarining ishlab chiqarish ta`limida qo`llaniladi.

Kuzatuv ta`lim oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chikarish ta`limi ustasining nazorati va uning ko`rsatmalari bo`yicha o`tkaziladi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatuvlari maqsadi qo`yiladi, ularni o`tkazish tartibi ko`rsatiladi va kuzatuvlari natijalarini qayd qilish bo`yicha ko`rsatmalar beriladi .

Mashqlarni quyidagi turlaridan foydalaniladi.

4.1. Sharhlangan mashqlar o`quv jarayonini faollashtirishga, vazifalarini ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ushbu mashqlarning mohiyati shundan iboratki, o`qituvchi va ta`lim oluvchilar bajarilayotgan ishlarni sharhlaydilar, natijada ular o`zlashtiriladi va tushunib etiladi. Avval bunga eng yaxshi ta`lim oluvchilar jalb etiladi, keyin esa o`quv materialini tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. SHarhlangan mashqlar metodi o`quv mashg`ulotining yuqori sur`atini ta`minlaydi, materialni barcha ta`lim oluvchilar tomonidan ongli va mustaqil ravishda, mustahkam o`zlashtirilishiga yordam beradi.

4.2. Og`zaki mashqlar ta`lim oluvchilarining nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ijodiy qobiliyatlarin rivojlantirish ularning bilish imkoniyatlari bilan bog`liq.

4.3. Yozma mashqlarning asosiy vazifasi – kerakli ko`nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat.

4.4. Grafik mashqlar ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlarini o`rganish jarayonida ishlatiladi.

4.5. Laboratoriya-amaliy mashqlar mehnat asboblari, laboratoriya uskunalaridan (jihozlar, o`lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi.

4.6. Ishlab chiqarish - mehnat mashqlari o`quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo`ladi: birinchisi – alohida mehnat metodlarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko`zda tutilgan.

5.Ishbilarmonlik, yoki rolli (vaziyatli) o`yin.

Ishbilarmonlik yoki rolli vaziyatli o`yinlar – muammoli vazifaning bir turi bo`lib faqatgina matnli o`quv materiali o`rniga ta`lim oluvchilar tomonidan rollar o`ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Ishbilarmonlik va rolli vaziyatli o`yinlar ta`lim metodi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **o`rgatuvchi:** umumta`lim mahoratni shakllantirish; ijodiy qobiliyatni o`stirish; shu jumladan: yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilish;
- **rivojlantiruvchi:** mantiqiy tafakkurni, nutqni, atrof-muhit sharoitiga o`rganish qobiliyatini o`stirish;
- **motivatsion:** ta`lim oluvchilarni o`quv faoliyatiga undamoq, mustaqil xulosaga kelishishga rag`batlantirmoq;
- **tarbiyaviy:** ma`suliyatni, mustaqillikni shakllantirish.

6.Muammoli vazifalar metodi

Muammoli vazifalar metodi – ta`lim oluvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan metoddir. U, aniq

vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu metodning etakchi funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- o`rgatuvchi: bilimlarni dolzarblashtirishga asoslangan;
- rivojlantiruvchi ta`lim oluvchilarda tahliliy tafakkurni, alohida dalillar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko`ra bilishni shakllantirish;
- tarbiyalovchi: kommunikativ ko`nikmalarini shakllantirish.

Muammoli vazifalar metodi ta`lim oluvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga, asoslangan: ilmiy tushunchalarni, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki boshqa materialni chuqr mantiqiy tahlil qilishga asoslangan.

Muammoli vazifa hayotdan olingan dalillarni, ma`ruza va vaziyatni o`rganishdan, alohida insonlar yoki ishlab chiqarish korxonalarining manfaatlarini ko`zlashdan iborat bo`lishi mumkin.

7. Topshiriq metodi.

Topshiriq metodining ijobiy tomoni shundaki, unda ta`lim oluvchilar uchun yakka holda emas, guruh bilan birgalikda o`tilgan materialni qayta ko`rib chiqib, esga tushirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda ta`lim oluvchilar bilmagan yoki yoddan chiqargan bilimarini bir-birlaridan o`rganadilar. Mustaqil bajarishga mo`ljallangan topshiriqlar o`quv semestri davomida ta`lim oluvchilar tomonidan amalga oshirilib borilsa, ta`lim oluvchilar materialni yodlariga tushirib, yakuniy nazoratlarni yaxshi topshirishlariga yordam beradi.

Ta`lim oluvchilarning mustaqil ishlashlarini rivojlantiruvchi yana bir samarali topshiriq turi – bu muammoli topshiriqlardir.

Muammolar echimi bo`yicha ishlash quyidagi tartibda bo`lishi mumkin.

1. Ta`lim oluvchilar guruhlarda ishlaydilar. Ularga umumiyl echim, mustaqil qaror qabul qilishni talab etadigan muammoli matn yoki topshiriq beriladi.
2. Ta`lim oluvchilar muammo echimini muhokama qiladilar va birgalikda muammo echimi bo`yicha umumiyl qarorga kelishga harakat qiladilar.
3. Keyin guruhlar bir-birlari bilan o`zaro fikr almashadilar.

Bunday turdag'i topshiriqlar odatda qiziqarli muhokamalarga olib keladi, ta'lim oluvchilarning dunyoqarashi, mulohaza yuritish, o'z fikri va yondashuvini isbotlash, qaror qabul qilish va umuman mustaqil ishslash ko`nikmalarini riqojlantiradi. O'qituvchi faqat topshiriq shartlari bilan tanishtiradi, qolgan ishlarni esa ta'lim oluvchilar o`zlarini bajarishadi.

Bunday vazifalarni bajarish uchun ta'lim oluvchilar auditoriyadan tashqari mustaqil izlanishlarni talab etiladi va shu bilan kasbiy va amaliy ko`nikmalarni rivojlanishiga rag`batlantiriladi. Loyihaviy ishlar uchun mavzu va topshiriqlar hayotiy voqeasi, dalillar va namunalardan olinishi mumkin. Topshiriqlar turli shakllarda ishlab chiqarish va tashkil etilishi mumkin.

7.1.O`yin. Quvnoq va harakat talab qiladigan ma'lum qoidalarga ega topshiriq odatda o`yin uslubida bo`lib, jamoa bilan qaror qabul qilishni talab etadi.

7.2.Piramida . Bu topshiriqda ma'lum bir masala avval yakka holda, keyin juftliklarda, keyin kichik guruhlarda va so`ngra butun sinf bilan muhokama qilinadi.

7.3.DjigSo (Mozaika) . Bu topshiriqda turli guruhlarda bir matnning turli qismlari beriladi. Ular tegishli ma'lumot qismlari bilan bir-birlari bilan o'rtoqlashib, matnning umumiyligi mazmunini birgalikda chiqaradilar.

7.4. Muhokama guruhlari. Bu topshiriqda ta'lim oluvchilar kichik guruhlarda o'qituvchi bilan ishslash uchun tayyorgarlik ko`radilar. Bu uchun ma'ruzalarda ham qo'llanilishi mumkin.

7.5.CHog`ishma guruhlar. Bu topshiriqda guruh kichik guruhlarga bo`linib bir muammoni muhokama qiladi. Bir qancha fakt o`tgandan keyin turli guruh a`zolari o`rin almashishib, boshqa guruhlarga qo'shiladilar va muhokamani davom ettiradilar.

8. Aqliy hujum. Bu topshiriqning maqsadi iloji boricha ko`proq ijodiy fikrlarni yuzaga keltirishdir. Istalgan fikrlar qabul qilinadi. Yig'ilgan firklardan qay birini kelgusida ishlatishni butun guruh hal qiladi.

O`quv mashg`ulotni “Aqliy hujum” metodini qo`llab o`tishning ishlab chiqish qoidalari.

- O`zaro baholash va tanqidga o`rin yo`q.
- Taklif etuvchi g`oyalar fantastik va g`aroyib bo`lsa, ham ularni baholashdan saqlang hammaning fikr bildirishiga ruxsat etiladi.
- Tanqid qilmang barcha bildiriluvchi fikrlar teng qimmatli.
- So`zga chiqqan kishining gapini bo`lmang!
- E`tirozlardan saqlang!
- Qancha ko`p fikr aytilsa, shuncha yaxshi yangi va qimmatli fikr paydo bo`lishi ehtimoli ko`proq.
- Fikrlar takrorlansa xafa bo`lmang va uyaltirmang!
- Tasavvur qilishga ruxsat bering!
- Bu muammo faqat ma`lum metodlar bilan hal etishi mumkin deb o`ylamang.

9.Suqrot texnikasi. Ma`ruzalarda tez-tez ishlatiladigan metod unda o`qituvchi ta`lim oluvchilarni savol-javoblar orqali mo`ljallangan maqsad sari etaklaydi.

10.Yo`naltiruvchi matn metodi. Bu metod yordamida mustaqil o`rganish imkoniyati yaratiladi va har bir ta`lim oluvchi yangi ko`nikma uchun kerak bo`lgan bilimni olishi mumkin bo`ladi .

Yo`naltiruvchi matn metodi ta`lim oluvchilarga induvidial yondashish va mustaqil ishlash imkonini beradi. Bu metodda o`quv materialini o`rganish yoki mustaqil ish topshiriqlarini bajarish ta`lim oluvchi tomonidan quyidagi 6 bosqichda amalga oshiriladi .

1). Ma`lumot yig`ish. Bu bosqichda o`qituvchi ta`lim oluvchilarga kerakli barcha manbalarni va savollar va topshiriqlar varag`ini beradi. Ushbu varaqda ta`lim oluvchilarga ma`lumotlarni bosqichma-bosqich yig`ish tartibi savollar yoki topshiriqlar shaklida berilishi kerak.

Ta`lim oluvchilar o`zlariga berilgan ish topshirig`ini tahlil qilib, darsliklar, o`quv-uslubiy ko`rsatmalar, sxemalar va jadvallar, texnik hujjatlar asosida ish bosqichlari yoki kerakli jihozlar xaqida ma`lumot yig`adi. Buning uchun ular yo`naltiruvchi savollar yoki topshiriqlardan berilgan vazifa ta`rifi va o`quv maqsadlari haqidagi ma`lumotlardan foydalanishlari kerak.

2). Rejalashtirish. Bu bosqichda ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini tuzishlari, ya`ni ish topshirig`ini hal qilishga qaratilgan o`zlarining bajara-digan ish bosqichlarini (masalan, ishlov berish jarayoni, material, jihozlar va yordamchi vositalar) rejallashtirishlari lozim. Ta`lim oluvchilar bu erda o`zlarining dastlabki nazariy bilimlariga tayanadilar va shaxsiy yozuvlaridan foydalaniladilar.

3). Qaror qabul qilish. Ta`lim oluvchilar o`qituvchi bilan birgalikda rejani amalga oshirish to`g`risida qaror qabul qilishadi. Agar muammoni echishda turli echimlar yuzaga kelsa, u holda eng unumli echim tanlanadi. O`qituvchi doimo maslahatchi sifatida qatnashishi kerak.

4). Amalga oshirish. Bu bosqichda ish topshirig`ini tuzilgan rejaga muvofiq bajarishadi. O`qituvchi esa ularning ishini nazorat qilib turishi lozim.

5). Tekshirish. Ta`lim oluvchilar bajargan topshiriqlari natijalarini o`zları tekshirib (masalan sifat ko`rsatkichlarini) "Baholash varag`iga" qayd qilishlari va bir-birlarining ishini tekshirishlari mumkin. O`qituvchi natijalarni "Xulosalar varag`iga" yozib qo`yadi.

6). Xulosa chiqarish. O`qituvchi ish jarayoni va natijalarni tahlil kilib yakuniy suhbat o`tkazadi va keyingi safar qaysi jihatlarda e`tibor berish kerakligini aytib o`tadi.

O`quv jarayonini bunday bosqichlarga bo`linishi ta`lim oluvchilarga mustaqil o`rganishga turtki beradi.

11. Videometod

Videometod – axborotni ko`proq ko`rgazmali o`zlashtirishga asoslangan bo`lib, unda kineskop, kodoskop, proektor, kinoapparat, o`quv televideniesi,

videomagnitafon, axborotni displayda aks ettiruvchi komp'yuterlardan foydalaniladi.

O`quv jarayonida videometoddan foydalanish, sizning ta`lim-tarbiyaviy vazifalarni unumli echishingizni ta`minlaydi:

- yangi bilimlarni bayon etish, ya`ni juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo`lmagan (o`simliklar o`sishi, suyuqlikda diffuziya hodisasi va h.k.), shuningdek, tez sodir bo`ladigan jarayonlar, bevosita kuzatishlar hodisalarning mohiyatini ochib bera olmagan holda (qayishqoq tanalarning urilishi, moddalarning kristallaanishi va h.k.) qo`llaniladi;
- murakkab mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillarini dinamikada tushuntirish;
- turli xil ish faoliyatini bajarish algoritmini tushuntirish;
- chet tili darslarida o`ziga xos til muhitini yaratish;
- videohujjalarni taqdim etish;
- mashq qilish ishlarini bajarish, jarayonlarni modellashtirish, kerakli o`lchamlarni olib borish;
- o`quv-mashq va tadqiqot ishlarini olib borish uchun ma`lumotlar bazasini (bankini) yaratish.

12. O`quv adabiyotlari bilan ishlash

Kitob bilan ishlash metodi ta`lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish, asoslash funktsiyalar bajarildi. U o`quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashda topshiriqlar asosan o`quv mashg`ulotida sizning rahbarligingiz ostida, yoki uyda, mustaqil ravishda bajarilishi kerak.

Uyda o`quv adabiyoti bilan ishlash vazifasini ta`lim oluvchilar oldiga qo`yishdan avval, ular kitob bilan ishlashning quyidagi metodlarini o`rgatish kerak:

- uning tuzilishi bilan tanishish
- ko`z yogurtirib chiqish
- alohida boblarni o`qish
- savollarga javob qidirish

- materialni o`rganish
- referat yozish
- qisqacha bayon tuzish
- vazifa va mashqlarni echish
- test sinovlarini bajarish
- materialni xotirada saqlab qolish.

13. “To`rt pog`onali” metod – amaliy ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayonining to`rt pog`ona doirasida kechadigan metodidir.

Bu metod ta`lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo`l ko`nikmalarini tez va mukammal o`rganib olishlariga yordam beradi. “To`rt pog`onali” metod qo`llanilganda, ta`lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so`ng uni takrorlaydilar va to mukammal o`zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

- tushuntirish;
- nima qilish kerakligini ko`rsatib berish;
- ko`rsatilgan tarzda qaytarish;
- mashq qilish.

Muhandis-pedagog faoliyati:

- tushuntirish;
- ko`rsatib berish;
- atolarni tuzatish;
- baholash.

Ta`lim oluvchi faoliyati:

- tinglash;
- kuzatish;
- takrorlash;
- mashq qilish.

“To`rt pog`onali” metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. “Tushuntirish” bosqichida muhandis-pedagog ta`lim oluvchilarga avval oddiy

operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.

2. “Nima qilish kerakligini ko`rsatib berish” bosqichda muhandis-pedagog ta`lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko`rsatib beradi.
3. Uchinchi bosqichda ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog ko`rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi. Muhandis-pedagog ta`lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o`z fikrini bildirib, xatolarini to`g`rilab turadi.
4. “Mashq qilish” bosqichida ta`lim oluvchilarning hatti-harakati muhandis-pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta`lim oluvchilar ish amallarini mukammal o`zlashtirganlardan so`ng, uni mustaqil bajaradilar.

“To`rt pog`onali” metodning asosiy belgisi-ta`lim oluvchilarning harakatlari muhandis-pedagog ko`rsatib bergen harakatlar loirasi bilan cheklanganligidadir.

“To`rt pog`onali” metodning afzalliklari:

- ta`lim oluvchilarda amaliy ko`nikmalarini shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o`zlashtirish darajasi yuqori bo`ladi.

“To`rt pog`onali” metodning kamchiliklari:

- ta`lim oluvchilarning harakatlari ta`lim beruvchi ko`rsatib bergen harakatlar doirasi bilan cheklanib qoladi;
- ta`lim oluvchilar yakka tartibda o`rganishga yo`naltiriladilar, lekin mustaqil fikrlash imkoniyati chegaralangan bo`ladi;
- ish bosqichlarini amalga oshirishda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo`l qo`yilmaydi.

14. Laboratoriya metodi

Laboratoriya metodi – bu shunday ta`lim metodiki, unda ta`lim oluvchi o`qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o`tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni anglaydi va tushunib etadi.

Laboratoriya metodining asosiy funktsiyasi - o`rgatish va rivojlantirishdan iboratdir.

Bu metodni qo'llash bilan, biz ta'lim oluvchilarni quyidagi imkoniyatlar bilan ta'minlaymiz:

- asbob-uskunalardan foydalanish ko`nikma va malakalarini egallah;
- mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo`lganlarini tekshirish;
- amaliy malakalarni egallah: o`lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishslash va igarigi olinganlari bilan taqqoslash.

Ayniqsa, muammoli (tadqiqiy) laboratoriya metodi samaralidir, bunda ta'lim oluvchilar o`zлari gipotezani ilgari suradilar, uni amalga oshirish yo`lini aniqlaydilar, kerakli asbob-uskunalar va materiallarni tanlaydilar.

Laboratoriya ishi vaqtida ta'lim oluvchilardan namoyish metodiga qaraganda ancha katta faollik va mustaqillik talab qilinadi, ular bu erda sust kuzatuvchi bo`lib emas, tadqiqotlarning qatnashchisi va bajaruvchisi sifatida harakat qiladilar.

Laboratoriya metodi murakkabdir. U, maxsus va ko`pincha qimmat uskunalar bo`lishini, sizni va ta'lim oluvchilarni puxta tayyorgarlik ko`rishini talab qiladi. Undan foydalanish juda ko`p energiya va vaqtni sarflash bilan bog`liq. SHuning uchun, laboratoriya metodini rejalshtirgan paytingizda, mustaqil tadqiqotning samarasi, oddiy va tejamkor yo'l bilan ta'lim olishdan yuqori bo`lishi yoki bo`lmasligiga aniq ishonch hosil qilishingiz kerak.

15. Suhbat

Suhbat – o`qitish va o`qishning dialogik, savol-javob metodi.

Bu metodning etakchi funktsiyasi – motivatsiya qilish: aniq maqsadni ko`zda tutadigan va mohirona qo`yilgan savollar yordamida siz ta'lim oluvchilarni o`z bilimlarini berilgan mavzu bo`yicha esga olish va bayon etishga, sizning rahbarligingizda boshqa ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilishga undaysiz.

Ta'lim oluvchilar, siz bilan birga, qadamma-qadam yangi bilimlarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo`li bilan o`zlashtiradilar va tushunadilar.

Suhbatning afzalligi yana shundan iboratki, u, fikr yuritishni maksimal faollashtiradi, ta`lim oluvchining bilim olish kuchini taraqqiy ettirishga imkon beradi.

Belgilangan maqsadi bo`yicha suhbatlar quyidagilarga bo`linadi:

- kirish yoki tashkil qiluvchi (didaktik vazifasi: ta`lim oluvchilarni mashg`ulotda ishlashga tayyorlash);
- yangi bilimlardan xabardor qilish (didaktik vazifasi: ta`lim oluvchilarni yangi material bilan tanishtirish);
- sintezlovchi yoki mustahkamlovchi (didaktik vazifasi: ta`lim oluvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash, eslab qolish va anglash).

16. “Davra suhbati” metodi.

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta`lim oluvchilar tomonidan o`z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o`qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo`llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta`lim oluvchining bir-biri bilan “ko`z aloqasi” ni o`rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og`zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og`zaki davra suhbatica ta`lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta`lim oluvchilardan ushbu savol bo`yicha fikr-mulohazalarini bildirishlarini so`raydi va aylana bo`ylab har bir ta`lim oluvchi o`z fikr-mulohazalarini og`zaki bayon etadilar. So`zlayotgan ta`lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo`lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo`lingandan so`ng muhokama qilinadi. Bu esa ta`lim oluvchilarning mustaqil fikrlashga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

YOzma davra suhbatica ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta`lim oluvchiga konvert qog`azi beriladi. Har bir ta`lim oluvchi konvert ustiga ma`lum bir mavzu bo`yicha o`z savolini beradi va “javob varaqasi” ning biriga o`z javobini yozib, konvert ichiga solib qo`yadi. SHundan so`ng konvertni soat yo`nalishi bo`yicha yonidagi ta`lim oluvchi uzatadi. Konvertni olgan ta`lim oluvchi o`z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib

qo`yadi vayonidagi ta`lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo`ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig`ib olinib, tahlil qilinadi.

“Davra suhbati” metodining tuzilmasi quyidagicha:

- Suhbatni o`tkazish shartlari bilan tanishtirish;
- Konvertlar va “Javoblar varaqalari” ni tarqatish;
- Konvertlarga savollar yozish;
- Konvertni yonidagi talabaga uzatish;
- Savollarga javob yozish;
- Baholash va tahlil qilish.

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg`ulot mavzusi e`lon qilinadi.
2. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni mashg`ulotni o`tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta`lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta`lim oluvchi bo`lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo`yiladi. Ta`lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o`z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta`lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo`yicha o`z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o`z javobini yozib, konvert ichiga solib qo`yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta`lim oluvchi konvertni soat yo`nalishi bo`yicha yonidagi ta`lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta`lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo`yadi hamda yonidagi ta`lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo`ylab aylanib, yana savol yozgan ta`lim oluvchining o`ziga qaytib keladi. Savol yozgan tav`lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig`ib olinadi va tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali ta`lim oluvchilar berilgan mavzu bo`yicha o`zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta`lim oluvchilarni muayyan mavzu

bo`yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta`lim oluvchilar o`zlarini bergan savollariga guruhdagi boshqa ta`lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta`lim beruvchi ham ta`lim oluvchilarni ob`ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbat” metodining afzalliklari:

- o`tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta`lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta`lim oluvchi o`zining baholanishi mas`uliyatini his etadi;
- o`z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbat” metodining kamchiliklari:

- ko`p vaqt talab etiladi;
- ta`lim beruvchining o`zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo`lishi talab etiladi;
- ta`lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo`lgan mavzu tanlash talab etiladi.

17. Pinbord (inglizchadan: pin-mustahkamlash; board-doska)

Bu o`qitish uslubining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o`quv suhbat amaliy metod bilan bog`lanib ketadi. Uning afzallik funktsiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: ta`lim oluvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi.

18. Individual (amaliy) metod

Individual (amaliy) metod laboratoriya metodidan shunisi bilan farqlanadiki, unda ko`pincha, ta`lim oluvchilar faoliyatida olingan bilimlarini amaliy vazifani echishga qaratadilar. Nazariyotni amalda tadbiqu qila bilish birinchi o`ringa chiqadi. Ushbu metod bilimni, mahoratni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi, shuningdek, o`rganish faoliyatini kuchaytirishni ta`minlaydi. Amaliy metod ta`lim oluvchilarni vazifalarni vijdonlilik bilan bajarishga, mehnat

jarayonini puxta tashkil etishga boshqa metodlardan ko`ra ko`proq ko`maklashadi. (ish sifatini sinchiklab tekshirish, xulosalarni tahlil qilish).

19. “Ishbop o`yin” metodi.

“Ishbop o`yin” metodi – berilgan topshiriqlarga ko`ra yoki o`yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarni qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O`yin faoliyati biron bir tashklot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarni imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o`yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko`ra ishtirkochilar o`z favoliyatlarini o`zlashtirish imkoniyatiga har ega bo`ladi. Ishbop o`yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo`ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat`iy belgilangan va o`yin davomida o`zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o`z maqsadlarni belgilaydi. Ishbop o`yinda har bir ishtirokchi allohidada rolli maqsadni bajarishi kerak. SHuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruh xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o`zining vazifasi bo`yicha qaror qabul qiladi, so`ngra guruh bilan maslahatlashadi. O`yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o`yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

- O`yin shartlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish;
- Vazifalarni taqsimlash;
- Vazifalar bo`yicha ishtirokchilar qaror qabul qiladilar;
- O`yinni amalga oshirish;
- Muhokama qilish; baholash.

“Ishbop o`yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo`riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta`lim oluvchilarni o`yinning maqsadi, shartlari natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta`lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta`lim oluvchilar o`z rollari bo`yicha tayyorgarlik ko`radilar.
5. Ta`lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o`yinni amalga oshiradilar. Ta`lim beruvchi o`yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O`yin yakunida ta`lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. ekspertlarning xulosalari tainglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o`z vazifasini to`g`ri bajarishi, berilgan vaziyatda o`zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko`rsata olishi kerak.

“Ishbop o`yin” metodining afzalliklari:

- Ta`lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini, qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- Ta`lim oluvchining boshlang`ich bilimlari tajibalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- Ta`lim oluvchilar o`z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratadi.

“Ishbop o`yin” metodining kamchiliklari:

- Ta`lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi; vaqt ko`p sarflanadi;
- Tanlangan mavzu ta`lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- Ta`lim oluvchining his-hayajoni to`g`ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

20. Loyihalar metodi

Loyihalar metodi bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni amaliy qo`llashni nazarda tutuvchi ta`limning majmuaviy metodini amalga oshiradi. Boshqa metodlarga qaraganda, bu metoddha ta`lim oluvchilar rejalashtirishda, tashkil qilishda, tekshirishda, tahlil qilishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko`proq ishtirok etadilar.

Loyihalar metodida ta`lim berishda faqat natijalar emas, balki jarayonning o`zi ko`proq qimmatliroqdir. Loyiha individual bo`lishi mumkin, lekin, odatda har bir loyiha o`quv guruhining bиргаликдаги faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha bir fanga oid, fanlar orasida yoki fandan tashqari bo`lishi mumkin.

Loyiha ustida ishslash jarayonida, sizning faoliyatingiz quyidagilardan iborat bo`ladi:

- ta`lim oluvchilarga axborot qidirishga yordam berish;
- o`zingiz axborot manbai bo`lishingiz;
- butun jarayonni muvofiqlashtirishingiz;
- ta`lim oluvchilarni quvvatlashingiz va taqdirlashingiz;
- uzlucksiz qaytar aloqani qo`llab-quvvatlashingiz.

Loyihali ta`lim berish o`quv jarayonini faollashtiradi, chunki u:

- shaxsga yo`naltirilgan;
- juda ko`p didaktik yondashuvlardan foydalaniladi;
- o`zini-o`zidan motivlaydigan, bu ishga qiziqish va jalb qilinishni uning bajarilishiga qarab ortishi demakdir;
- o`zining va o`zgalarning tajribasidan kelib chiqqan holda va aniq ishda o`rganishga imkon beradi;
- o`z mehnatlari samarasini ko`rib turgan ta`lim oluvchilarga qoniqish keltiradi.

Loyiha asosan o`rganishga xizmat qilish, nazariya bilan amaliyotni bog`lash, korxonada uchraydigan biron ish jarayoniga taaluqli bo`lishi, o`quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtira olinadigan, mehnatni tashkillashtirishni va amalga oshira oladigan bo`lishi lozim. Bunda o`quvchilar o`zlarining kasbiy ravishda muammoni echish usullarini ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo`lishadi.

O`quvchilar kichik guruhlarda loyihani mustaqil ravishda rejalashtirishdan boshlab amalga oshirish va xulosa chiqarishgacha bиргаликда ishslashadi. Loyiha topshirig`i berilgan vaqtidan boshlab, uning bajarilishiga qadar o`qituvchi

o`quvchilarni mustaqil ishlashga va o`rganishga jalg etib turishi lozim. O`qituvchisi loyihani bajarish jarayonini nazorat qiladi va boshqaradi.

Loyiha topshirig`ini ishlab chiqishda o`qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- fanga oid turli loyiha topshiriqlarini ishlab chiqishi;
- loyiha ishini mustaqil ishlar jadvaliga kiritishi;
- loyihaning bajarilish tartibini belgilashi va o`quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib ishlab chiqish;
- o`quvchilarni loyiha ishi mohiyati bilan tanishtirishi lozim.

Loyiha usuli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Ma`lumot yig`ish. Bu bosqich uchun o`qituvchi quyidagi materiallarni tayyorlashi lozim:

- loyiha;
- loyihaga tegishli topshiriqlar ta`rifi;
- loyihaga oid ma`lumot yig`ishga oid yo`naltiruvchi savollar;
- mavzuning o`quv maqsadlari haqida ma`lumotlar.

So`ngra o`qituvchi o`quvchilarni yo`naltiruvchi savollardan foydalanib topshiriq mohiyatini tushunishga jalg etishi, o`quvchilar esa mustaqil ravishda darslik, o`quv qo`llanmalar, tarqatma materiallar va boshqa manbalardan foydalanib ma`lumot yig`ishlari kerak. Bundan tashqari loyihani bajarish uchun kerak bo`lgan va qo`llanilishi mumkin bo`lgan jihozlar, asboblar va kerakli materialarga oid hujjatlardan foydalanishlari mumkin. O`quvchilarga foydalanish uchun texnik chizmalar ham berilishi mumkin. So`ngra o`quvchilar mustaqil ravishda loyihani bajarishdagi ish bosqichlarini tuzishlari kerak.

Rejalashtirish. Bu bosqichda o`quvchilar mustaqil ravishda ish rejasini to`ldirishadi. Rejada ish bosqichlari, ya`ni ularni amalga oshirishning texnologik ketma-ketligi va ajratilgan vaqt kerakli jihozlar va uskunalar hamda mehnat va texnika xavfsizligiga oid tadbirlar haqida ma`lumotlar ko`rsatilishi kerak. Bu erda ham o`quvchilar yo`naltiruvchi savollarni qo`llab, o`zlarining shaxsiy yozuvchilardan foylanishlari mumkin.

O`zлari ish rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqishlari ham mumkin. Ish rejasida – bu berilgan loyiha topshirig`ini bajarish uchun kerakli bosqichlar ketma-ketligining ta`rifi berilgan. Ish rejasи biror ish jarayonini bajarilishini bir qismi bo`lishi ham mumkin.

Qaror qabul qilish. Bu bosqichda O`quvchilar o`qituvchi bilan natijalarni bиргаликда rejalashtirish bosqichida amalga oshirilgan ishi yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilishadi. Muhokama doirasida turli echimlar bir-biri bilan taqqoslanadi va eng yaxshi variant tanlab olinishi kerak.

Amalga oshirish. O`quvchilar yakka tartibda yoki kichik guruhlarda topshiriqni ish rejasи asosida mustaqil ravishda bajarishlari lozim. O`qituvchi ish jarayonini nazorat qilish va natijalarini «Nazorat» daftariga qayd qilib borish kerak.

O`quvchi taqlid qilish orqali va o`rgangan amaliy ko`nikmani o`qituvchi ishtixonisiz bevosita amalda qo`llay oladi. O`quvchi loyihani bajaradiki, bu topshiriqlarda u eski va yangi bilimlarini bir biriga qo`shib ishlatadi. Natijada u sabab va oqibat orasidagi o`zaro aloqalarni aniqlay oladi.

O`quvchi o`rganib olgan bilimlarini yangi vaziyatda qo`llay va sistematik ravishda rivojlantira oladi. Baholashni va tanlashni biladi hamda yangi ijodiy echimlarni topa oladi.

Tekshirish. O`quvchilar loyiha bo`yicha bajargan ishlari natijalarini o`zлari tekshirishadi. Masalan, ish natijalarini sifat mezonlari yoki me`yorlar asosida baholashi mumkin. SHuningdek o`quvchilar bir birining ish natijalarini o`zaro tekshirishga ham jalg etiladi. O`qituvchi loyiha natijalarini mahsus «Xulosalar varog`i»da qayd etadi va o`zining «Nazorat bayonnomasi» asosida xulosalar chiqaradi.

Xulosa chiqarish. O`quvchi va o`qituvchi loyiha bo`yicha bajarilgan ish jarayoni va natijalarini bиргаликда tahlil qilishadi. Natijalar muhokama qilinadi. Loyihani bajarish davomida yuzaga kelgan muammolarni echish bo`yicha ko`nikma taklif va tavsiyalar beriladi. Har bir guruhda yoki individual bajarilgan loyiha natijalari baholari nazorat varaqalariga va qaydnomalari o`qituvchi tomonidan kiritiladi.

21. Blum savollari. Ta`lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muxim omili – o`qituvchining ularga va ta`lim oluvchilarning o`zaro bir – biriga beradigan savollari ekan. Ta`kidlanishicha, o`qituvchilarni ta`lim oluvchilarga berishgan savollarining 80 – 85 foizi, faqat daliiliy bilimlarnigina talab qilib, ular javob berishda xotirada qolganlarini takroran so`zlash (bashorat) bilangina cheklanar ekanlar.

To`g`ri javobi o`quv adabiyotlarida yaqqol bayon etilmagan yoki o`qituvchi tomonidan aytib berilmagan savolgina ta`lim oluvchini fikrlashga majbur qiladi. Bunday savollarga jahon pedagogikasida “Blumb savollari” nomi bilan mashxur va o`zlashtirishning oltita; bilish, tushinish, qo`llash, tahlil, sintez va baholashdarajalariga muvofiq bo`lgan savollar misol bo`lishi mumkin. Masalan: “nima uchun?”, “taqqoslang?”, “tarkiby qismlarga ajrating?”, “eng muxim xususiyatlari nima?”, “buni siz qanday hal qilgan bo`lardingiz?”, “bunga munosobatingiz qanday?”, kabi savollar ta`lim oluvchilarga yuqori intellektual amallar (tahlil, sintez, baholash) darajasida fikrashga undaydi. YOki, matndan parcha o`qib bo`lgandan so`ng, ta`lim oluvchilarni fikrlashga undovchi quyidagi savollarni berish ham maqsadga muvofiqdir: “bu parchaga qanday savolar qo`yish mumkin?”, “siz muallifga qanday savol bergen bo`lardingiz?”.

Ta`lim oluvchining ta`lim oluvchilarga beradgan savollari to`g`risida fikr yuritilar ekan, uning aniq, lo`nda,, tushunarli va ixcham bo`lishi hamda bir savol faqat bitta o`quv elementi (tushuncha, qonun, qoida va h.q.) so`ralishi zarurligini alohida ta`kidlash lozim. Berilgan savollar mazmunida mavzuga yoki matnga oid tayanch so`z va iboralardan foydalanish ham muhimdir.

22. Sinkveyn (axborotni yig`ish). O`rganilayotgan materialni to`laqon va puxta anglash uchun qo`llanialdigan interfaol metodlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Sinkveyn – frantsuzcha besh qator o`ziga xos, qofiyasiz she`r bo`lib, unda o`rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to`g`risidagi axborotyoyilgan va yig`ilgan holda , ta`lim oluvchi so`zi bilan, turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish – murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so`zlar bilan ifodalash uchun muhim bo`lgan

malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni puxtarq anglashga yordam berish bilan birga, ta`lim oluvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini yuqori darajada rivojlantiradi.

Sinkveyn tuzish qoidasi:

1. Birinchi qatorda mavzu (topshiriq) bir so`z, odatda ot bilan ifodalanadi (kim?, nima?).
2. Ikkinci qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi (qanday?, qanaqa?).
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi hatti – harakat (funktsiyasi – vazifasini anglatuvchi) uchta so`z (fe`l) bilan ifodalanadi.
4. To`rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvur (assotsiatsiya)ni anglatuvchi va to`rtta so`zdan iborat bo`lgan fikr (sezgi) yoziladi.
5. Oxirigi mavzuga mohiyatini takrorlaydigan, ma`nosi unga o`xshash bo`lgan bitta so`z (sinonim) yoziladi.

24. “Muammoli vaziyat” metodi.

“Muammoli vaziyat” metodi – ta`lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo`yicha ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta`lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo`yilgan muammoning echimini topishga qodir bo`lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta`lim oluvchilarning qiziqishlari so`nishiga, o`zlariga bo`lgan ishonchlarining yo`qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo`llanilganda ta`lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o`rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi quyidagicha:

- Muammoli vaziyat tavsifini keltirish;
- Guruhlarga bo`lish;
- Guruhlarning muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlash;
- Guruhlarning muammoli vaziyatning oqibatlari to`g`risida fikr yuritishi;
- Guruhlarning muammoli vaziyatning echimini ishlab chiqish;

- To`g`ri echimlarni tanlash.

Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni topshiriqning maqsa, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o`rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqylaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to`g`risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoning echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo`llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo`yicha taqdimot qiladilar va o`z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta`lim beruvchi bilan birlgilikda muammoli vaziyatni echish yo`llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliliklari:

- Ta`lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- Ta`lim oluvchilar muamoning sabab, oqibat va echimlarini topishni o`rganadilar;
- Ta`lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- Ta`lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o`rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- Ta`lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;

- Qo`yilgan muammo ta`lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- Ko`p vaqt talab etiladi.

24. Klaster – “axborotlarni yozish”. “Klaster” – inglizcha so`z bo`lib, g`uncha, bog`lam ma`nosini anglatadi. Axborotlar klasterlarga ajratish interfaol pedagogik strategiya bo`lib, u ko`p variantli fikrlashni, rag`batlantirish uchun qo`llash mumkin. Asosan, u yangi fikrlarni uyg`otish va muayyan mavzu bo`yicha ancha fikr yuritishga chorlaydi. Klaster tuzish ketma – ketligi quyidagicha:

- sinf yozuv taxtasi o`rtasiga katta qog`oz varag`iga asosiy so`z yoki gapni yozing;
- sizni fikringizcha bu mavzuga tegishli bo`lgan so`zlar yoki gaplarni yozing (“aqliy hujum”) o`tkazing;
- tushuncha va g`oyalar to`g`risidagi o`aro bog`lanishni o`rgating.
- Eslagan variantlaringizning hammasini yozing.

25. Kubik. Bu metod ko`rilayotgan masalani turli tomondan, qadamba – qadam, osondan qiyinga tomon yo`nalishda tasavvur etish imkoniyatini beradi. Kubiuning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- Bu nima? Ko`rayotgan narsani rangi, o`lchamlari, shaklini tasavvur eting, eslang va yozma ravishda ta`riflang?
- Taqqoslang: u nimaga o`xshaydi, nimadan farq qiladi?.
- Assotsiatsiya. Ta`surotingizni izohlang? U sizni nima to`g`risida o`ylashga majbur qiladi? Xayolingizga nima keladi?.
- Tahlil qiling. Bu nimadan va qanday yasalgan?, qanday qismlardan tuzilgan?, nimalardan tashkil topgan?
- Qo`llang. Bu nimaga yaraydi? Uni qaerda qo`llash mumkin?
- “ha” va “yo`q” larni asoslang. Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni aytинг.

“Kubik” metodlarini qo`llash bosqichlari.

- Mavzu (tushuncha) e`lon qiladi.

- Tinglovchilar (ta`lim oluvchilar) yakka tartibda ishlaydilar. Kubikning har bir tomoni uchun topshiriq berilib, 40 – 60 sekund vaqt ajratiladi
 - YAKKA tartibda ish tugaganidan so`ng, guruhlarda muhokama qilinadi.
 - “kubik”ni har bir mikro guruhdan bir vakil taqdimot qiladi.
- “Kubik” metodi masala (topshiriq)ga turli tomondan yondashish malakalarini shakllantradi va ta`lim oluvchilarning tahlil, sintez va baholash intellektuallik darajalarida fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

26. Grafik tashkilotchilar. Bu – biror o`quv materialini o`zlashtirishda, undagi fikrlash jarayonini ko`rgazmali tasvirlash metodlari bo`lib hisoblanadi. YUqorida bayon qilingan klasterdan tashqari, grafik tashkilotchilarning yana uchta, juda samarali metodlari mavjud. Bular – T – sxema, kontseptual jadval va Venn diagrammasidir.

A) T – sxema. Bu interfaol metod qiyosiy tushunchalar (“ha”/ “yo`q” yoki “roziman” / “qarshiman”) ning universal tashkilotchisi bo`lib, bir – biridan keskin farq qiluvchi yoki qarama – qarshi, ba`zan turlicha mezonlar bilan farq qiluvchi fikrlarni ko`rgazmali va ixcham tarzda tasvirlashga qulaylik yaratadi. “interfaol metodlardan foydalanib o`qitishga munosobat” mavzusiga oid T – sxemani quyidagicha tasvirlash mumkin.

27. Venn diagrammasi. Bu inter faol metod ikki yoki undan ortiq tushunchalarning o`ziga xos va umumiy jihatlarini tahlil qilish va umumlashtirishda qo`llaniladi. Bunda o`ng va chap doiralarga tushunchalarning o`ziga xos jihatlari, doiralarning kesishgan sohasiga esa, ular uchun umumiy bo`lgan jihatlar yoziladi. Masalan, “nazariy mashg`ulot” tushunchalari uchun Venn diagrammasi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

28. Zig – zag – 1. bu o`zaro hamkorlikda (birgalikda) o`qish metodi bo`lib hisoblanadi. Uni o`tkazish metodikasi quyidagicha:

- Matn uning hajmiga bog`liq holda qismlarga ajratiladi. Tinglovchilar (ta`lim oluvchilar) ham matn qismlariga bog`liq bo`lgan holda 4 – 6 kishidan iborat mikroguruhlarga bo`linadi;

- Tinglovchilar o`z raqamlariga mos bo`lgan yangi (korporatsion) guruxlarga jamlanadilar. Har bir guruh a`zosi matnning o`z raqamlariga tegishli qismini (1 – raqamlilar birinchi qismini, 2 – raqamlilar ikkinchi qismini va va h.k.) o`qib chiqadilar va o`qilgan qisimni bayon etishning umumiy strategiya (fikrni) ishlab chiqadilar;
- Tinglovchilar o`zlarining dastlabki “qadrion” guruhlariga qaytadilar va ularning har biri o`zi o`qigan matn qismini shunday bayon qilishi kerakki, guruh a`zolarida matnning to`la mazmuni bo`yicha yaxlit tasavvur hosil bo`lsin. SHundan so`ng bir ta`lim oluvchi matnning to`la mazmunini bayon qiladi;
- Ayrim guruh a`zolari o`z fikrlarini bayon qilshlari mumkin.

29. Zig – zag 2. Bu zig – zag – 1 metodining o`zi, lekin undan farqi, ta`lim oluvchilarga taqdim etgan matnning har qismi bo`yicha aniq topshiriq (savol) beriladi. Ular o`z guruhlariga qaytganlaridan so`ng, berilgan topshiriqlar bo`yicha fikrlarini bayon qiladilar.

30. “Bilaman – bilishni xoxlayman – bilib oldim”(B - B - B). matnni interfaol o`qitish – o`zlashtirish metodaridan biri bo`lib, u ham insert metodi kabi jadval ko`rinishida bajariladi va u quyidagicha qo`llaniladi: ta`lim oluvchilarga biror mavzu e`lon qilinadi. Bu to`g`rida ular ma`lum bo`lgan axborotlarni jadvalning “bilaman” qismiga, mavzu bo`yicha yana qanday ma`lumotlarni bilishni xoxlashsa, ularni jadvalning “bilishni xoxlayman” qismiga yozadilar. So`ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi. Ular mikroguruhsar tarkibida matnni mustaqil o`zlashtirib, jadvalning “bilib oldim” qismini to`ldiradilar. Har bir mikroguruhsar sardori (vakili) tuzilgan jadvallarni taqdim qiladilar. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanib, ta`lim oluvchilarda mavjud bo`lgan va qo`shimcha o`zlashtirilgan axborotlar taqqoslanib, munozara qilinadi hamda mavzuning o`zlashtirilganligi tahlil qilinadi.

31. Ikki qisqli kundalik. Bu interfaol metod ta`lim oluvchilarga o`qitilayotgan matn mazmunini o`z tajribalari bilan bog`lash va o`zlarining shaxsiy sichikovlikka bo`lgan ehtiyojini qondirish uchun imkoniyat yaratadi. U ayniqsa, ta`lim oluvchilar matnni darsdan tashqari vaqtida o`qib –

o`zlashtirishlarida samarali bo`ladi. Ikki qismli kundalik tuzish uchun, ta`lim oluvchi varaqni o`rtasidan tikkasiga chizib, ikki qismga bo`ladi: chap qismiga matnning eng yaqqol taasuroti qoldirilgan satrboshi yoki qismlari yoziladi, o`ng qismiga esa, nima uchun aynan shu yozilganlar unga ko`proq ta`sir ko`rsatganligining sababini yozadi. Bunday sabablar - shaxsiy hayotida bo`lib o`tgan ayrim voqeja va hodisalarни eslatgani, qalbida qat`iy norozilik uyg`otgani yoki o`ziga shunchaki maqsad qilib qo`ygan va hokozolar bo`lishi mumkin. O`qituvchi o`qilayotgan matn bo`yicha nechta yozuv bo`lishi zarurligini topshiriqni qabul qilayotganida uni e`tiborga olishi zarur.

32. Esse – frantsuzcha tajriba, dastlabki loyiha, shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda tinglovchi o`zining mavzu bo`yicha ta`surotlari, g`oyasi va qarashlarini erkin tarzida bayon qiladi. esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrini zudlik bilan qog`ozga tushirish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog`ozdan uzmasdan – to`xtamasdan yozish, so`ngra matnni qayta tahlil qilib, iakomillashtirish tavsiya etiladi. esseni muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag`ishlab yozish tavsiya etiladi. Ba`zan, ayniqsa tarbiyaviy soatlarda ta`lim oluvchilarga o`zlariga yoqqan mavzu (tushuncha) bo`yicha esse yozdirish ham yaxshi natija beradi.

33. Asoslovchi esse – bu shunday esse – ki, unda esse muallifi biror mavzu bo`yicha muayyan nuqtai – nazarga ega bo`lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asolovchi dalillar keltiriladi.

34. Texnik diktant – texnikaga oid matndagi ayrim so`zlar, formula yoki biror fikr tushirib qoldirilib, diktovka qilinadi (yoki magnitafonda eshittiriladi). Ta`lim oluvchilar esa, har bir bo`sh qolgan joyga oid javoblarni o`zlari topib yozib boradilar. Texnik diktantni barcha fanlardan qo`llash tavsiya etiladi.

35. Taqriz – bu o`qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai nazardan baholashdir. Taqriz yozishda quyidagilarga e`tibor berish zarur:

- Taqriz – matnni o`qigan kishining, bu haqdagi shaxsiy fikri bayoni bo`lishi lozim, matndan ko`chirib yozish yoki uni qayta ta`riflash qabul qilinmagan;
- Taqrizda matn, uni o`qigan kishi shaxsiy tajribasining qaysi jihatlarida namoyon bo`lganligini ko`rsatishi va xolisona bo`lishi lozim;
- Taqriz muallif bilan muloqotga kirishishning boshlang`ich bosqichi bo`lib hisoblanadi.
- Taqrizda bir necha baholovchi fikrlar, “bu maqola foydali, chunki menga”, “bu maqola (kitob) menga yoqdi, chunki,”, “meni muallif bilan fikrim bir xil (bir xil emaC), chunki,”. taqriz yozishda quyidagi ketma – ketlikka rioya qilinadi: maqola (kitob) muallifi, nomi, mavzusi, tuzilishi va bayon etilish metodi, ijtimoiy ahamiyati, beg`araz tanqidiy fikrlar va yakunlovchi xulosa.

36. Portfolio – inglizcha so`z bo`lib, portfel yoki portfellar to`plami degan ma`noni anglatadi. Portfolioning bir necha turlari mavjud bo`lib, o`quv jarayonidagi portfolio muayyan fandan har bir ta`lim oluvchi uchun kurs, semestr davomida yuritiladi. unda ta`lim oluvchilarning baholash turlari – joriy, oraliq va mustaqil ishlari bo`yicha bajargan topshiriqlari va ularga o`z vaqtida qo`yilgan o`zlashtirish ballari jamlab boriladi. Portfolio yurgizish talbalarning semestr (kurC) va o`quv muddati davomidagi o`zlashtirishlarini va mustaqil ish topshiriqlarini muntazam ravishda bajarib borganligi to`g`risidagi daliliy hujjat bo`lib hisoblanadi. portfolio pedagogik jarayonda o`qituvchiga – ta`lim oluvchilar erishayotgan o`quv yutuqlari monitoringini yurgizish imkoniyatini yaratadi hamda o`zlashtirish ballarining haqqoniyligi va ishonchlilagini ta`minlaydi; ta`lim oluvchiga esa, o`z bilim saviyasi ortayotganligini hamda shaxsining rivojlanayotganligini o`z kuzatib borish imkoniyatini yaratadi.

37. Sinektika metodi. Sinektika metodi «miya jangi» bilan bir xildagi elementlarga ega bo`lib, analogiyaga asoslangan to`rtta stul – amalni o`z ichiga oladi:

1. Bevosita analogiya (maskur muammoga o`xshash muammolar qay tariqa hal qilinadi).
2. SHaxsiy analogiya (topshiriqda berilgan ob`ekt obraziga kirib, o`sha kishining nuqtai nazaridan mushohada qilish).
3. Ramziy analogiya (muammo mohiyatini bir necha so`zlar bilan obrazli qilib ta`riflab berish).
4. Xayoliy analogiya (ertak qahramonlari bu muammoni qay tariqa hal qilgan bo`lur edilar).

Bunda o`quv materialini aniqroq bo`lib anglashiladi, o`zlashtiriladi, xotirada uzoqroq saqlanib qoladi va amaliy hamda ilmiy maqsadlar aniqroq tadbiq etiladigan bo`ladi. Boshqacha aytganda, talaba ancha o`quvli talaba, o`qituvchi esa, yaxshiroq o`rgatadigan o`qituvchi bo`lib qoladi.

38. Mojaro metodi. Odatda tashqari, favqulotdagi vaziyatlarda qilinadigan hatti-harakatlarni ta`lim oluvchilarga o`rgatish maqsadida qilinib kafedralarda mojaro metodi qo`llaniladi. Ta`lim oluvchiga muammo yuzasidan vaziyatga doir har qanday topshiriq ko`rinishidagi qisqacha axborot taqdim etiladi. Mana shu topshiriqni tahlil qilib chiqish va 1 –1,5 minut ichida tezgina qaror qabul qilish zarur. Bu metodika ta`lim oluvchilarning fikr qilinishini juda ham faollashtiradi va ularni favqulotdagi vaziyatlarda ishslashga o`rgatadi. Bu o`rinda ish harakatlar o`zlashtirish koeffitsentining yuqori shkalasi bo`yicha baholanadi. Ish – harakatlarini bexato bajarish 1,0 ga teng bo`lishi kerak. Muhimi – topshiriqni to`la bajarish emas, balki tezlik bilan, chaqqon bajarishdir. Ta`lim oluvchi topshiriqning birinchi galda uddalash kerak bo`lgan qismini bajarishi mumkin, bu ham uning o`qishida ahamiyatga ega.

Metod mashg`ulotning turli bosqichlarida qo`llaniladi, lekin undan yangi materialni ishlab chiqish va mustahkamlashga qaratilgan asosiy bosqichda hammadan ko`p foydalaniladi.

- ta`lim oluvchining fikrlashini faollashtiradi;
- ta`lim oluvchining «falokatlar tibbiyoti» sharoitlriga tayyorgarligini nazorat qiladi;

- ish-harakatlarning chaqqonligiga baho beradi.

39. Dumaloq stol metodi.

Topshiriq yozib qo`yilgan qog`oz varag`i davra bo`ylab o`tkaziladi. Har bir ta`lim oluvchi o`zining javob variantini yozib qo`yadi va varaqni boshqa ta`lim oluvchiga uzatadi. Hamma ta`lim oluvchilar o`z javoblrlini yozib qo`yishadi, keyin muhokama bo`ladi: noto`g`ri javoblar o`chiriladi, to`g`ri javoblarning soniga qarab ta`lim oluvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og`zaki shaklda ham qo`llanish mumkin.

40. “Ruchka stol o`rtasida” metodi.

Butun guruhda topshiriq beriladi. Har bir ta`lim oluvchi bitta javob variantini bir varaq qog`ozga yozib uni qo`schnisiga beradi, o`z ruchkasini esa, stolning o`rtasiga surib qo`yadi.

41. Rotatsiya metodi bilan fikrlarni ko`rib chiqish.

Bu metod mashg`ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko`rishi uchun qo`llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 minut davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyingi 15 minut davomida esa, muhokama birgalikda o`tkaziladi.

Auditoriyaga tartib raqamlari bilan belgilangan bir nechta topshiriq osib qo`yiladi. Har bir kichik guruh (2-3 kishi) 10 minut davomida muhokama qilib, o`z javobining variantini yozib oladi-da, so`ngra keyingi topshiriqqa o`tadi va oxirigacha shunday qilib boradi.

42. Davralar.

Ta`lim oluvchilar davra qurib o`tirib, taklif etilgan savolni galma-gal izohlab chiqishadi. Har bir ta`lim oluvchi o`z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo`shish imkoniga ega bo`ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin, qatnashchilar o`z ixtiyori bilan navbatini o`tkazib yuboradigan bo`lsa, bu-tamomila odatdagicha hol. Ba`zan qanday bo`lmasisin biror buyum (asbob, pribor) davra bo`ylab o`tkaziladi va uni olgan ta`lim oluvchi o`z fikrini aytish huquqiga ega bo`ladi.

Davra bo`lib ishslashda hamma, jumladan o`qituvchi ham, teng huquqlidir; hamma bir-birini ko`rib turishi, vizual aloqani qo`llab-quvvatlab borishi va shu bilan bir vaqtda so`zlayotgan kishining gaplarini diqqat bilan tinglashi mumkin. Raundlardan ko`pgina maqsadlarda, jumladan, baho berish, muammoni hal qilish, ijobjiy mustahkamlash, davrani rejalshtirish, o`tkazish uchun foydalansa bo`ladi.

43. “Galereyani aylanish” metodi.

Kichik guruhlarning hamma a`zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o`z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo`lmasa,o`z variantini taklif etishi kerak.

44. “Akademik munozara” metodi.

Guruh 2 komandaga bo`linadi, bularning har biriga vaziyatga doir topshiriq beriladi. Har bir komandada 1-2 nafar ta`lim oluvchi konsul’tatsiyaning ijobjiy tomonlarini muhokama qiladi – bular “advokatlar” bo`ladi, boshqalar esa, konsul’tatsiyaning salbiy tomonlarini tahlil qilib chiqadi-bular “prokurorlar”dir.

“Advokatlar” bilan “prokurorlar”ning qo`lga kiritgan natijalari ma`lum qilinadi va butun guruh tomonidan muhokama qilib qichiladi.

Bu metodika ta`lim oluvchining o`sha kungi mavzu yuzasidan chuqr bilimlarga ega bo`lishini talab qiladi, chunki vaziyatga doir topshiriq yoki rolli bo`lsin, “prokurorlar” tomonidan bo`lsin, obdon anglab olish va dalillar bilan izohlab berishni talab etadi.

45. “Qor bo`ron” metodi.

Ikki guruh ta`lim oluvchi bir muammo yoki vaziyatni eng ko`p miqdorda to`g`ri javoblar olish maqsadida birgalikd muhokama qilishadi.

Har bir to`g`ri javob “yumaloqlangan qor” ko`rinishida o`sha guruhga ball tariqasida yozib qo`yiladi. eng ko`p ball olgan guruhga a`lo baholar qo`yiladi.

46. “Asalari galasi” metodi.

Muammoni yo butun guruh yoki ikkita kichik guruh tomonidan muhokama qilib chiqishga mo`ljallangan. Topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo`lishi mumkin. Guruhlar muammoning echimini 10-15 minut davomida

muhokama etib, hamkasblariga ma`lum qilishadi. eng yaxshi variant tanlab olinadi.

47. Guruh dinamikasi metodi.

Bu metod katta tayyorgarlik o`tkazishni talab qiladi va o`quv jarayonining barcha bosqichlarida ta`lim oluvchilarining yuqori darajada faol bo`lishini ko`zda tutadi. Ta`lim oluvchilar guruhi uchta kichik guruhga bo`linadi. Bularning har birida etakchi (hammadan ko`ra bilimdonroq ta`lim oluvchi), ma`ruzachi (kichik guruhning umumlashtirilgan nuqtai nazarini tayyorlaydi), rassom (ma`ruzada namoyish etiladigan materiallarni tayyorlaydi, hisobchi (kichik guruh fikrlarining umumlashtirilgan ko`rsatkichlarini hisoblab chiqadi) tanlanadi va hokazo.

Mashg`ulotlar uchta kichik guruhda yagona dastur bo`yicha baravar olib boriladi. Uchchala kichik guruhning yalpi majlisida (seminarida) ulardan har birining fikri tinglanadi va muhokama qilinadi.

O`qitish muolajasi quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

- butun guruh uchun o`rtaga vazifa qo`yish;
- kichik guruhlarda ishslash (kunning o`rtasida);
- butun guruhning yalpi majlisi (kun oxirida).

SHu tariqa yondashishda ta`lim oluvchilar bir-biriga bog`liq vazifalarni kompleks tarzda izchillik bilan hal qilib boradilar. Guruhning umumlashtirilgan fikri plenar seminar natijasida aniq bilib olinadi.

48. Diskret dinamika metodi.

Bu metod muammoni o`rganishga sistematik tarzda yondashishga asoslangan. Undan muammoga qaratilgan deb ataluvchi kurslar uchun foydalaniladi, bunday kurslarda maxsus tanlangan ta`lim oluvchilar hay`ati tayinli aniq bir muammoni alohida metodika yordamida tasvirlaydi.

1 bosqichda muammo tarkibiy qismlarga- submuammolarga ajratiladi va +mazkur muammoni hal qilishni tasvirlash uchun zarur tarkib aniqlab olinadi.

2 bosqich submuammolar yana maydalashtirilib, vazifalarga ajratiladi.

3 bosqich xususiy seminarlar tashkil etiladi. Tor sohadagi har bir mutaxassislar guruhi uchun alohida auditoriya kerak. Juda bo`lmanida tor sohadagi mutaxassislarning 4 guruhini bitta auditoriyaga joylashtirish mumkin.

4 bosqich yondosh seminarlar o`tkaziladi. Bu bosqich tashkiliy jihatdan hammasidan murakkab hisoblanadi, chunki yrim yondosh vazifalarni hal qilish uchun ta`lim oluvchilar guruhini qayta tuzishga to`g`ri keladi.

5 bosqich umumiy (komplekC) vazifalar muhokama qilinadi, ularni hal qilish uchun tegishli maqsadga qartilgan kompleks dastur ishlab chiqiladi.

Bu xildagi mashg`ulotlar turli fanlar va kafedralar uchun umumiy bo`lgan muammolar yuzasidan integrallashgan seminarlar yoki amaliy mashg`ulotlar o`tkazishda bu metodikadan ayniqsa muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

49. Kosa metodi.

Bu metodning nomi stullari joylashtirish sxemasidan olingan. Kosa ochiq yoki yopiq bo`lishi mumkin. YOpiq kosa mana bunday o`tkaziladi: stullar biri ikkinchisining ichida turgan aylana ko`rinishida qo`yiladi.

Markazga joylashgan guruh munozarada faol ishtirok etadi, tashqi aylanadagilar esa, statistlardir: markaziy doira ichida o`tirganlar, ma`lum bir kishini yoki butun jarayonni kuzatib boradilar. Muhokama tugaganidan keyin statistlar fikr almashishadi, shuningdek yo ko`rib chiqilayotgan masalalar xususida yoki majlis va muhokamada ishtirok etish imkonini cheklangani xususida ushbu muhokamaning ularga nechog`lik tegishli bo`lganini izohlab berishadi. O`qituvchining teskari aloqadan qanday foydalanish va qay tariqa fikr almashinish kerakligini tushuntirib berishi muhim ahamiyatga ega. Mana shu kuzatuvlarni qayd qilib borish oson bo`lishi uchun tashqi doiradagi guruhning bir a`zosi nazorat ro`yxatini tuzadi.

50. “Dumalovchi qor uyumi” tamoyili bo`yicha shug`ullanish metodi.

Dumalovchi qor uyumi – o`quv mashg`ulotini o`tkazish metodining ramziy nomi bo`lib, bu mashg`ulot fikr qilib, mulohaza yuritib ko`rish uchun ta`lim oluvchilarning har qaysisiga vaqt berishdan boshlanadi. Keyin ikki, to`rt, sakkiz kishili va shu tariqa butun guruh a`zolari qatnashadigan qilib tuzilgan guruhlarda

